

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/373797715>

# MIKROIQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIYOT. Uslubiy qo'llanma

Book · September 2022

CITATIONS

0

READS

191

3 authors, including:



[Nozim Muminov](#)

ALFRAGANUS UNIVERSITY

201 PUBLICATIONS 89 CITATIONS

SEE PROFILE



[Azamat Kadirov](#)

National University of Uzbekistan after Mirzo Ulugbek

37 PUBLICATIONS 0 CITATIONS

SEE PROFILE

**Muminov N.G., Rayxanov U.A., Kadirov A.A.**



**MIKROIQTISODIYOT  
VA  
MAKROIQTISODIYOT**



# **MIKROIQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIYOT**

Uslubiy qo'llanma  
(Makroiqtisodiyot praktikum)

**“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022**

**UO‘K: 330.101.54(072)**

**KBK: 65.012.1**

**M 86**

**ISBN 978-9943-8628-4-5**

Muminov, N.G., Rayxanov, U.A., Kadirov, A.A.

Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot [Matn] : uslubiy qo‘llanma / N.G. Muminov, U.A. Rayxanov, A.A. Kadirov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 122 b.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Mikroiqtisodiyot va Makroiqtisodiyot” fani bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturda asosida tayyorlangan bo‘lib unda Makroiqtisodiyot qismidagi mavzular bo‘yicha savol-javoblar, masalalar va test topshiriqlari berilgan. Uslubiy qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, talabalari, mustaqil izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubiy qo‘llanma 2022 yilda o‘z faoliyatini boshlagan “ALFRAGANUS UNIVERSITY” professor o‘qituvchilari tomonidan tayyorlangan ilk o‘quv-uslubiy adabiyotdir.

**Tuzuvchilar:**

Muminov N.G.	“ALFRAGANUS UNIVERSITY”, O‘zMU professori, i.f.n.
Rayxanov U.A.	“ALFRAGANUS UNIVERSITY”, O‘zMU katta o‘qituvchisi
Kadirov A.A.	O‘zMU talabasi

**Taqrizchilar:**

Mambetjanov Q.Q.	O‘zMU Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası mudiri, i.f.d.
Xashimova N.A.	TDIU Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrası professori, i.f.d.

**Ma’sul muharrir:** i.f.d.,prof. Egamberdiyev F.T.

Uslubiy qo‘llanma “ALFRAGANUS UNIVERSITY”ning O‘quv-uslubiy kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya etilgan (bayonnoma № 1, 23.09.2022 y.)

© **ALFRAGANUS UNIVERSITY**

© **Muminov N.G., Rayxanov U.A., Kadirov A.A.**

© **“Bookmany print” nashriyoti, 2022.**

## KIRISH

Milliy iqtisodiyotni makro darajada tahlil qilish, uni rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish, global iqtisodiy inqirozlar sodir bo'layotgan sharoitda mamlakat iqtisodiyotini mutanosib va yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini, talab va taklif, ishsizlik, bandlik, inflyatsiya darajalarining o'zgarishini tahlil qilish, iste'mol, jamg'arma, investitsiya, budjet-soliq siyosati, to'lov balansini baqarorligini ta'minlash makroiqtisodiyotning eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Bugungi kunda iqtisodiy bilimlarni chuqur egallamoqchi bo'lgan talabdan, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning hozirgi bosiqchida iqtisodiyotda bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlarni tezkorlik bilan talqin qilish, tushunib olish va unga o'z munosabatini bildirish talab etiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma Makroiqtisodiy jarayonlarni kompleks tahlil etishda amaliy qo'llanma sifatida taqdim etiladi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada chizmalar, jadvallar orqali keltirilgan maqsadli vazifalar, masalalar, savol-javoblar, testlar Makroiqtisodiyot fani bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga amaliy yordam beradi.

# 1 BOB. MAKROIQTISODIYOT KURSINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

## TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Makroiqtisodiyotni o'rganishdan asosiy maqsad - tadbirkorlik faoliyatida muvoffaqiyatga erishmoqdir.	
2. Agar iqtisodchilar iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini bir xil talqin etishsa, unda ularning siyosiy qarashlari ham bir xildir.	
3. Iqtisodiyot aniq fan emas, lekin u ko'pgina aniq muammolarni yechishda statistik metodlardan foydalanishi mumkin.	
4. Nazariy bilimlarning chuqur va mukammal o'rgangan talabalar biznesda nazariy bilimga ega bo'lmagan talabalarga nisbatan katta muvaffaqiyatga erishadilar.	
5. Iqtisodiyot aniq fan bo'lmagani uchun tahlilning ilmiy metodlaridan foydalana olmaydi.	
6. Bir vaziyatda muvaffaqiyatli qo'llangan iqtisodiy siyosat, boshqa bir vaziyatda xato bo'lishi mumkin.	
7. Makroiqtisodiy tahlil milliy daromad, narx va bandlik darajasi, jami talab va jami taklif kabi tushunchalarni o'rganadi.	
8. Oliy matematikani bilmay turib, nazariy iqtisodiyotni o'rganib bo'lmaydi.	

### Javob

1.N; 2.N; 3.T; 4.N; 5.N; 6.T; 7.T; 8.N.


## MASALA

1. 1.1 jadvalni tahlil qiling. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini chizing. Egri chiziqdagi nuqtalar nimani anglatishini va egri chiziqni xarakterini tushuntirib bering.


1.1 jadval

Mahsulot turi	Muqobil ishlab chiqarish imkoniyatlari				
	A	B	C	D	E
Televizor (ming dona)	0	3	6	9	12
Avtomobil (ming dona)	40	38	35	22	0

**Javob:**



2. Ishlab chiqarish imkoniyatlar egri chizig'i **K** holatidan **N** holatiga o'tdi (1.1-rasm). Bunday holat nima bilan bog'liq? Egri chiziqning o'zgarishini barcha omillarini ko'rib chiqing.




1.1.-rasm.

**Javob:**

Texnika taraqqiyotini, tashqi savdoni, investitsiya va iste'mol o'rtasidagi nisbatni o'zgarishini, ijobiy va salbiy umumiy iqtisodiy holatni va boshqalarni ikkala tovarni va alohida har bir tovarni alohida ishlab chiqarishga ta'sirini o'rganib chiqing.

3. Keltirilgan imkoniyatlar egri chizig'ini o'rganib chiqing.



Quyidagilar qanday iqtisodiy ma'noga ega:

1. **A,B,C,D** nuqtalar;
2. **A** dan **B** ga, **B** dan **S** ga, **S** dan **A** ga, **A** dan **D** ga harakat.

**Javob:**

1. **A** nuqta, resurslardan to'liq foydalanish va ishlab chiqarish salohiyatining jamg'arilishi sharoitida, investitsion tovarlarni iste'mol buyumlariga qaraganda ko'proq ishlab chiqarilishini anglatadi.

**V** nuqta, resurslardan to'liq foydalanish sharoitida, iste'mol buyumlarini investitsion tovarlariga qaraganda ko'proq ishlab chiqarilishini anglatadi, bu asosan «bugungi kun iqtisodiyoti»ni anglatadi.

**S** nuqta resurslarning to'liq band emasligini bildiradi.

**D** nuqta mavjud resurslar bilan bu darajaga yetishib bo'lmashligini bildiradi.

2. **A** dan **V** gacha bo'lgan harakat iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning ko'payishi va investitsion tovarlarni ishlab chiqarishning esa kamayishiga olib keladi. Bu, boshqacha qilib aytganda, «ertangi kun iqtisodiyoti»dan «bugungi kun iqtisodiyoti»ga o'tishini anglatadi.

**V** dan **S** gacha bo'lgan harakat resurslar bandligining kamayishi tufayli iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning kamayishini anglatadi.

**S** dan **A** gacha bo'lgan harakat resurslar bandlikning ortishi tufayli investitsion tovarlar ishlab chiqarilishi ko'payishini anglatadi.

**A** dan **D** gacha bo'lgan harakat mavjud resurslar sharoitida amlga oshishi mumkin emas.

## TEST

**1. Agar iqtisodiyot yaxlit tizim sifatida o'rganilsa, bu tahlil:**

- a) Mikroiqtisodiy;
- b) Makroiqtisodiy;
- v) Pozitiv;
- g) Normativ;

**2. Iqtisodiy tizimda narx va ishsizlikning umumiy darajasi qaysi kursda o'rganiladi:**

- a) Mikroiqtisodiyot;
- b) Makroiqtisodiyot;
- v) Menejment;
- g) Moliya;

**3. Sodda oborot modeliga bozorning qaysi 2 turi kiritilgan?**

- a) Real va pul;
- b) Real va tovar, xizmatlar;
- v) Pul va resurslar;
- g) Tovarlar, xizmatlar va resurslar.

**4. «Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish» muammolari qaysi biriga aloqador:**

- a) Faqat totalitar tizimlarga yoki markazlashgan rejalashtirish xukmron bo'lgan jamiyatlarga;
- b) Faqat bozor iqtisodiyotiga;
- v) Faqat qoloq iqtisodiyotiga;
- g) Har qanday jamiyatga, uning sotsial-iqtisodiy va siyosiy tashkil qilinishidan qat'i nazar;

**5. Agar iqtisodiy umumlashtirishlar faktlarga asoslansa, tahlilning bu usuli:**

- a) tarixiy;
- b) gipotizali;
- v) induktiv;
- g) deduktiv;
- d) matematik.

**6. Iqtisodiy fanlar tizimida narx va ishsizlikning umumiy darajasi qaysi fanda o'rganiladi:**

- a) mikroiqtisodiyot;
- b) makroiqtisodiyot;
- v) menejment;

- g) moliya;
- d) iqtisodiy nazariya.

**7. «Nima ishlab chiqarish» muammosi:**

- a) jamiyat oldida emas, faqat xususiy tadbirkor oldida turishi mumkin;
- b) imkoniyatlar chegarasi chizig'ida nuqta tanlash muammosi sifatida qaraladi;
- v) ishlab chiqarish omillarini samaradorligini pasayib borishi qonuni asosida o'rganiladi;
- g) resurslar defitsiti sharoitida paydo bo'ladi;
- d) ortiqcha ishlab chiqarish sharoitida vujudga keladi.

**8. «Qanday ishlab chiqarish» muammosi qaysi sharoitlarda bo'lmaydi:**

- a) ishlab chiqarish resurslari hajmi qat'iy chegaralangan va konkret tovar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan;
- b) iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari foydaliligini pasayib borishi qonuni ta'sirida bo'lmasa;
- v) ish kuchiga nisbatan ishlab chiqarish resurs zahiralari cheklangan bo'lsa;
- g) texnik jihatdan rivojlangan jamiyatda bu oddiy texnik muammoga aylanadi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

**9. Imkoniyatlar chegarasi chizig'i quyidagilarning qaysi biri:**

- a) xo'jalik ishlab chiqarmoqchi bo'lgan ikki tovarning aniq hajmi;
- b) ikki tovar kombinatsiyalarining eng yaxshisi;
- v) berilgan resurslar hajmidan foydalanib tovarlarni alternativ kombinatsiyalari;
- g) ishlab chiqarish omillari samaradorligini pasayib borishi qonunini amal qila boshlash vaqti;
- d) banklar amalga oshirmoqchi bo'lgan zaruriy moliyaviy ajratmalar hajmi.

**10. Har qanday iqtisodiy tuzum sharoitida kun tartibida turadigan muammo:**

- a) noyoblik muammosidir;
- b) ishlab chiqarish muammosidir;
- v) iste'mol muammosidir;
- g) investitsiya muammosidir;
- d) ijtimoiy va siyosiy barqarorlik muammosidir.

### 11. Cheklangan resurslar egri chizig'i yordamida:

- a) narxning o'zgarishini aniqlash mumkin;
- b) inflyatsiya darajasini aniqlash mumkin;
- v) xarjatlarning o'zgarishini aniqlash mumkin;
- g) mehnat unumdorligi darajasini aniqlash mumkin;
- d) ishsizlik darajasini aniqlash mumkin.

#### Javob:

1. b; 2. b; 3. g; 4. g; 5. b; 6. b; 7. b; 8. a; 9. v; 10. b; 11. v.

## 2 BOB. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Real yalpi milliy mahsulot – bu bir yilda joriy narxlarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarining qiymatidir.	
2. Iste'mol narxlar indeksi «iste'mol savati»ga kiruvchi mahsulotlar narxlari asosida hisoblanadi.	
3. Nominal va real YaIM hajmi faqat qiymat ko'rinishida hisoblanishi mumkin.	
4. Sof eksport hajmi tovar va xizmatlar eksport miqdoridan mamlakat importi hajmining ayirmasiga teng.	
5. Daromad asosida hisoblangan YaIM xarajat asosidagi hisoblangan YaIMga teng.	
6. Sof milliy mahsulot – milliy daromaddan amortizatsiya hajmiga ortiqdir.	
7. Transfert to'lovlarini oluvchi evaziga davlatga biror-bir narsani qaytarishi kerak.	
8. Mamlakatning sof eksporti eksport va import yig'indisiga teng.	

#### Javob

1.N; 2.T; 3.T; 4.T; 5.T; 6.N; 7.N; 8. N.

### MASALA

1. Iqtisodiyotda 2 ta **A** va **V** tovar ishlab chiqariladi va ist'emol qilinadi. Quyidagi ma'lumotlar yordamida 2020 yil uchun INIning hisoblangan. (1980 yil - bazis yili).

<u>Yil</u>	<b>A</b> tovar		<b>V</b> tovar	
	savdo hajmi	narx	savdo hajmi	narx
2010	200	10	1000	6
2020	1500	2	1500	10

**Javob:**

INI = 1,3;

2. X mamlakat iqtisodi ikki xil tovar ishlab chiqaradi: choy va olma. 2 yil uchun ishlab chiqarish va baholar quyidagicha. («1-yil»-bazis yili)

Yil	Ishlab chiqarish Q		Narx P	
	Choy ming t.	Olma ming t.	Choy ming. s. 1 t.	Olma ming. s. 1t
1-yil	500	150	10	6
2-yil	450	250	24	8

YalM deflyatorini toping.

**Javob:**

YalM deflyatori = 2,13

3. A mamlakat bo'yicha quyidagi ma'lumotlar bor:

1.	Sof ichki xususiy investitsiya	32
2.	Individual soliqlar	39
3.	Transfert to'lovlar	19
4.	Egri soliqlar	8
5.	Korporatsiya daromadiga soliqlar	11
6.	Shaxsiy iste'mol xarajatlari	217
7.	Iste'mol qilingan kapital qiymati	7
8.	Eksport	15
9.	Dividend	15
10.	Tovar va xizmatlar uchun davlat xarajatlari	51
11.	Korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi	10
12.	Sotsial sug'urta to'lovlari	4
13.	Import	17

a) Korporatsiya foydasini toping;

b) Sof eksportni toping;

v) **YalM**ni xarajatlar bo'yicha hisoblang;

g) **SIM**ni toping;

d) Yalpi sof ichki investitsiyalarni toping.

**Javob:**

a) Korporatsiya foydasi = 36;

b) Sof eksport = -2;

v) xarajatlar bo'yicha **YalM** = 305;

g) **SIM** = 298;

d) Yalpi sof ichki investitsiyalar = 39.

4. **B** mamlakat bo'yicha quyidagi ma'lumotlar bor:

1.	Shaxsiy iste'mol xarajatlari	245
2.	Transfert to'lovlari	12
3.	Arenda to'lovlari	14
4.	Amortizatsiya	27
5.	Sotsial sug'urta to'lovlari	20
6.	Protsentlar	13
7.	Mulkdan olinadigan daromad	31
8.	Sof eksport	3
9.	Dividend	16
10.	Yollanma ishchilarning mehnat haqi	221
11.	Egri soliqlar	18
12.	Korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi	21
13.	Individual soliqlar	26
14.	Korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i	19
15.	Korporatsiyalar foydasi	56
17.	Sof ichki xususiy investitsiya	33
18.	Renta to'lovlari	14

- a) xarajatlar bo'yicha **YaIM**ni hisoblang;
- b) daromadlar bo'yicha **YaIM**ni hisoblang;
- v) **SIM**ni hisoblang;
- g) **MD**ni hisoblang.

**Javob:**

- a) xarajatlar bo'yicha **YaIM** = 380;
- b) daromadlar bo'yicha **YaIM** = 380;
- v) **SIM** = 353;
- g) **MD** = 335;

### TEST

1. Quyida sanab o'tilganlarning qaysi biri Milliy daromad o'lchanayotgan davrda hisobga olinimaydi:

- a) Korporatsiyalar foydasi;
- b) Davlat transfert to'lovlari;
- v) Renta daromadlari;
- g) Ish xaqi;

2. Narxlar indeksi quyidagilarning qaysi birini hisoblash uchun zarur:

- a) Joriy va o'tgan davrlardagi ishlab chiqarish tarkibini o'zgarishini baholash;

- b) Ikki turli davrdagi «iste'mol savati»ning bozor qiymatini o'zgarishini baholash;
- v) Ikki mamlakat orasida narxlar darajasidagi farqni baholash;
- g) Ulgurji va chakana narxlar orasidagi farqni ko'rsatish;

**3. Quyidagilarning qaysi biri YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblanganda kiritilmaydi:**

- a) Yalpi investitsiyalar;
- b) Sof eksport;
- v) Tovar va xizmatlar uchun davlat xarajatlari;
- g) Ish xaqi;

**4. Yalpi xususiy ichki investitsiya quyidagi ko'rsatkichni hisoblashda yordam beradi:**

- a) Daromadlar bo'yicha YalM;
- b) Xarajatlar bo'yicha YalM;
- v) Xarajatlar bo'yicha SIM;
- g) Shaxsiy daromad;

**5. YalMdan SIMni keltirib chiqarish uchun, quyidagilarning qaysi birini amalga oshirish zarur:**

- a) Sof investitsion xarajatlarni qo'shish;
- b) YalMdan sof investitsiyalarni ayirib tashlash;
- v) YalMga amortizatsiya hajmini qo'shish;
- g) Asosiy fondlarni yemirilgan qismini ayirish;

**6. YalM deflyatorini toping:**

- a) Nominal YalMni real YalMga nisbatiga teng;
- b) Real YalMni nominal YalMga nisbatiga teng;
- v) Inflyatsiya jadallashgan sari kamayib boradi;
- g) Bazis davrdagi «iste'mol savati» narxini o'zgarish sur'atlarini o'lchaydi;

**7. Nominal YalM bu tovar va xizmatlarning quyidagi narxlardagi qiymati:**

- a) Joriy narxlardagi;
- b) Real narxlardagi;
- v) Bazis davri narxlaridagi;
- g) o'tgan davr narxlaridagi;

**8. Quyidagilarning qaysi biri YalM tarkibiga kiradi:**

- a) Uy bekasining xizmatlari;

- b) Qo'shnidan eskiroq avtomobil sotib olish;
- v) Brokerdan yangi aksiyalarni sotib olish;
- g) Kitob do'konidagi yangi kitobning qiymati;

**9. Kapital iste'moli uchun ajratmalar - bu:**

- a) Sof investitsiyalar;
- b) Sof xorijiy investitsiyalar;
- v) Amortizatsiya;
- g) Iste'mol buyumlari sotib olishga ishlatib bo'lmaydigan fondlar;

**10. Transfert to'lovlarini aniqlang:**

- a) Qaytarilmaslik sharti bilan uy xo'jaligiga qilingan to'lovlar;
- b) Hukumat tomonidan alohida kishilarga to'lovlar;
- v) Milliy daromadga kirmaydigan daromad komponenti;
- g) Yuqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri;

**11. Agar O'zbekiston fuqarosi vaqtinchalik Rossiyada ishlaganda uning daromadi quyidagilarning qaysi biriga kiradi:**

- a) O'zbekiston Yalpi Milliy Mahsuloti (YalM)ga va Rossiya Yalpi Ichki Mahsuloti (YalM)ga;
- b) O'zbekiston YalMga va Rossiya YalMga;
- v) O'zbekiston YalMga va Rossiya YalMga;
- g) Rossiya YalMga va Rossiya YalMga;

**12. Iste'mol narxlari indeksi quyidagini aniqlashda qo'llaniladi?**

- a) joriy va o'tgan yillardagi ishlab chiqarish tarkibidagi farqlarni aniqlashda;
- b) ikki davrdagi «iste'mol savati»ning bozor qiymatidagi farqlarni aniqlashda;
- v) ikki mamlakat narxlarining farqlarini aniqlashda;
- g) ulgurji va chakana narxlar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda.

**Javob:**

1. b; 2. b; 3. g; 4. b; 5. g; 6. a; 7. a; 8. g; 9. v; 10. a; 11. a; 12. b.

### 3 BOB. BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA DAVLATNING IQTISODIY VAZIFALARI

#### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. «Robin Gud ta'siri» har bir mehnatkashga minimal ish haqini kafolatlaydi.	
2. «Tabiiy monopoliya» tarmoqlari jahonning har bir mamlakatida bo'lishi shart.	
3. «Tabiiy monopoliya» tarmoqlarini davlatning narxlar va standartlar bo'yicha komissiyasi nazorat qiladi.	
4. «Frirayder muammosi» – odamlar hech qanday xarajat qilmasdan ma'lum turdagi tovar va xizmatlardan foydalanishidir.	
5. Davlat ijtimoiy boyliklarni yaratish uchun zarur resurslarni firma va uy xo'jaliklariga soliq solish yo'li bilan topadi.	
6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida 2ta muhim hodisa: inflyatsiya va ishsizlik bo'lib, ularga qarshi kurashish usullari bir-biriga ziddir.	
7. Ijtimoiy boyliklarning asosiy qismi bo'linmaslik xususiyatiga ega bo'lib, ularga chetlashtirish prinsipi amal qilmaydi.	
8. Ishlab chiqarish jarayonida uch tomon qatnashib qo'shimcha samara ularning birortasiga oqib o'tsa – bu oqib o'tish yoki «qo'shimcha effekt» deb ataladi.	
9. Iqtisodiyotda bozor faoliyatini keskin ravishda buzilishini 2 xil hodisa orqali ko'rish mumkin: oqib o'tish va ijtimoiy boylik.	
10. Kapitalning doiraviy aylanishida «davlat» «uy xo'jaligi»dan oladigan sof solig'i teskari soliqqa ham aylanishi mumkin.	
11. Oqib o'tishdan kelib chiqadigan foydani oshirishning 2 xil usuli bor, bular talabni oshirish va taklifni oshirish.	
12. Oqib o'tishdan kelib chiqadigan xarajatlarni bartaraf etishning 2 xil usuli bor, bular qarorlar va qonunlar chiqarish va alohida soliqlar solish.	
13. Raqobat sharoitida sotuvchi bu xo'jayin, bozor uning agenti, xaridor esa xizmatkordir.	
14. Sof holda olingan bozor iqtisodiyoti iqtisodiy tizimlar orasida eng insonparvaridir.	
15. Transfert to'lovlari bu qonunlashtirilgan sadaqadir, uni oluvchilar esa qonunlashtirilgan gadoylardir.	
16. Hukumat o'z xarajatlarini oshirib soliqlarni kamaytirsa, u inflyatsiyaga qarshi kurashayotgan bo'ladi.	

#### Javob

1.N; 2.N; 3.T; 4.T; 5.T; 6.T; 7.T; 8.N; 9.T; 10.T; 11.N; 12.T; 13.N; 14.N; 15.N; 16.N.

## MASALA

1. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh hukumatining yillik harajatlari o'rtacha **YalM**ning 20% tashkil etdi.

P. Samuelson fikriga ko'ra, jamiyatda ko'pgina muammolar (sog'liqni saqlash, ta'lim va h.k) mavjudki, ularni doimo sof bozor usullari bilan hal etib bo'lmaydi.

A. Smit nuqtai nazari bo'yicha, davlat va iqtisodiyot o'rtasidagi munosabatlarda asosiy tamoyil bo'lib, «arzon davlat» tamoyili bo'lishi kerak.

Ushbu taklif etilgan nuqtai-nazarlardan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob bering:

- 1) «sof bozor iqtisodiyoti» tushunchasini qanday tavsiflab berish mumkin?
- 2) «aralash iqtisodiyot» tushunchasi nimani anglatadi?

### Javob:

1) Davlat aralashuvisiz faoliyat yurita oladigan, bozor mexanizmi tomonidan ta'minlanadigan o'z-o'zini tartibga soluvchi iqtisodiyot.

2) Aralash iqtisodiyot – bu turli mulk (davlat va xususiy) shakllari mavjud iqtisodiyot bo'lib, unda bozor mexanizmi davlat aralashuvi bilan boshqariladi.

2. Quyidagi ma'lumotlarni diqqat bilan ko'rib chiqing:

AQSh federal hukumatining budjet tarkibi (1990 yil).

<b>DAROMAD</b>	%
Individual	44,1
Korporativ	11,1
Soliqning boshqa turlari	44,8
<b>XARAJATLAR</b>	
Milliy mudofaa	26,3
Fundamental fanlar	1,2
Sog'liqni saqlash	4,5
Boshqa xarajatlar	68,0

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil etib, quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Ijtimoiy boylik nima?
- 2) Ijtimoiy boylik iste'molining xususiy boylik iste'molidan farqi nimada?
- 3) Kim va nima uchun ijtimoiy boylik ishlab chiqarilishini moliyalashtiradi?

### Javob:

1) Ijtimoiy boylik – bu bir shaxs foydalanib boshqa shaxslar foydalanmasligi mumkin emas bo'lgan boylikdir (milliy mudofaa, ko'chalarni yoritish, ob-havo ma'lumoti, ma'shallar va boshq.)

2) Ijtimoiy boylikda **iste'moldan chetlashtirish tamoyili** amal qilmaydi. Oddiy, xususiy boylikni esa haqqini to'lagan shaxs olishi mumkin.

3) Barcha soliq to'lovchilar, chunki ijtimoiy boylikni to'lovchi-iste'molchilari va «quyonlar»ni ajratishni arzon mexanizmi mavjud emas. Shuning uchun Davlat budjetida daromad solig'ining ulushi katta: ijtimoiy boylikdan hamma foydalanadi va hamma uning haqini to'lashi zarur.

**3.** Tabiiy monopoliyalari ba'zi bozor segmentlarini hisobga olmaganda AQSh hukumati raqobatni Sherman qonuni (1890 y.), Kleyton akti (1914 y.), Federal savdo komissiyasi to'g'risidagi qonun (1914 y.), Seller-Kefovuyer qonuni (1950 y.)ga asoslanib himoya qiladi.

Nima uchun AQSh hukumati raqobatni himoya qiladi, cheklangan tadbirkorlik amaliyotiga to'sqinlik qiladi?

**Javob:**

Raqobatning susayishi quyidagi natijalarga olib keladi:

- resurslarning samarasiz taqsimlanishiga;
- fan-texnika taraqqiyotini sekinlashtiradi;
- nomutanosiblikni kuchaytiradi;
- siyosiy demokratiyani cheklanishini kuchaytiradi.

**4.** 1990 yildagi AQShning federal budjetida xarajatlar quyidagicha taqsimotga ega edi:

- tibbiyotga - 94,9 mlrd.doll;
- daromadlarni sug'urtalashga - 136,8 mlrd.doll;
- ijtimoiy ta'minotga - 246,7 mlrd.doll;
- veteranlarga g'amxo'rlikka - 29,9 mlrd.\$

Keltirilganlarni ma'lumotlarni tahlil qilib, quyidagi savollarga javob bering:

Sotsial ta'minot, sug'urta va h.k.lar sohasiga davlat aralashuvining sababi nimada? Bozor mexanizmining o'zi ishlab chiqarish omillari egalari daromadlarini (har bir omilning chegaralangan mahsulotiga mos ravishda) adolatli taqsimotini ta'minlashi kerakku?

**Javob:**

Ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat aholining turli qatlamlari daromadlaridagi farqlarni kamaytirishga harakat qiladi. Bozor mexanizmi barqaror rivojlanishni ta'minlay olmaydi va shuning natijasida jamiyatning har bir a'zosiga ma'lum bir standartdagi faravonlikni kafolatlay olmaydi.

**5.** «Aralash iqtisodiyot» sharoitida bozor tizimidagi «o'yin qoidalari»ni hukumat o'rnatadi. Yuqoridagi holatdan kelib chiqib quyidagi savollarga javob bering.

- 1) Bozor iqtisodiyotida «davlat arbitraj»ining huquqiy asosi qanday?
- 2) Davlat tomonidan tartibga solishning siyosiy asosi nimadan iborat?

**Javob:**

- 1) Hukumat jamiyatda mavjud qonunchilikni bajarishi shart.
- 2) Hukumat jamiyatning ijroiya hokimiyati sifatida faoliyat ko'rsatib, u hokimiyat taqsimoti tizimida iqtisodiyot uchun javobgardir.

## **TEST**

**1. Monopollashgan bozor deganda;**

- a) monopol raqobatli bozor tushuniladi;
- b) oligopolistik bozor tushuniladi;
- v) sof monopoliya bozor tushuniladi;
- g) ozchilik sotuvchilar bilan xaridorlar hukmron bo'lgan bozor tushuniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**2. Oligopolistik bozorda;**

- a) sotuvchi sifatida bir firma bozorda tanho hukmronlik qiladi;
- b) sanoqli, ozchilik firmalar va kompaniyalar bozorda tanho hukmronlik qiladi;
- v) raqobat umuman bo'lmaydi;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

**3. «Transfert to'lovlari» deganda;**

- a) bozor sektoriga yollangan ishchilarning ish haqi tushuniladi;
- b) nogironlar, qariyalar, boquvdagi kishilar va ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar tushuniladi;
- v) davlat sektoridagi xizmatchilarning daromadi tushuniladi;
- g) yirik kompaniyalar va tadbirkorlarning soliq to'lovlari tushuniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**4. Quyida keltirilganlarning qaysi biri ijtimoiy boylik emas?**

- a) ma'shal;
- b) elektroenergiya;
- v) politsiya;
- g) mamlakat mudofasi;
- d) mamlakat miqyosida suv toshqinidan saqlash.

**5. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy boylikka kiradi:**

- a) ko'chalarni yoritish;
- b) shaharda huquqiy tartibni saqlanishi;
- v) avtoto'xtov joylari;
- g) ippodromlar;
- d) tennis kortlari;
- e) shahar istirohat bog'laridagi tozalikka rioya qilish.

**6. Qanday boyliklar «sof» hamda «aralash» ijtimoiy boyliklar turlariga kiradi?**

- a) tibbiy xizmat;
- b) oliy ta'lim;
- v) davlat chegarasi himoyasi;
- g) qonunchilik sohasida davlatning faoliyati.

**7. Quyidagi qaysi bir faoliyat «pinhoni» bozorga hos:**

- a) qurol bilan savdo qilish;
- b) narkotik moddalar bilan oldi-sotdi qilish;
- v) valyuta bilan chayqovchilik qilish;
- g) reket;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**8. Bozor regulyatori vazifasini nima bajaradi?**

- a) narx;
- b) monopoliya;
- v) oligopoliya;
- g) raqobat;
- d) hukumat.

**9. Bozor regulyatori amal qilish uchun:**

- a) monopoliyaga yo'l qo'yish kerak;
- b) oligopoliyaga yo'l berish kerak;
- v) erkin bozor raqobatiga yo'l berilishi zarur;
- g) monopoliyaga imkon berish lozim;
- d) davlat mulki ulushini ko'paytirish zarur.

### **10. Bozor kon'yunkturasi deganda:**

- a) bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkiban bir-biriga muvofiq kelishi tushuniladi;
- b) bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi turli sohalar tushuniladi;
- v) mazkur bozor tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlar tushuniladi;
- g) bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi tushuniladi;
- d) ijtimoiy infrastruktura tushuniladi.

### **11. Raqobat:**

- a) rejalashtirilmaydi;
- b) davlat tomonidan rejalashtiriladi;
- v) bu - majburiy safarbarlik;
- g) bu - sotsialistik musobaqa;
- d) bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etmaydi.

### **12. Raqobatchilikni bozordagi:**

- a) talab va taklif belgilaydi;
- b) narx belgilaydi;
- v) oligopoliya va monopoliya darajasi belgilaydi;
- g) davlatning antimonopol siyosati belgilaydi;
- d) soni va strukturasi bo'yicha talab va taklifning muvozanati belgilaydi.

### **13. Kimlar bozor iqtisodiyotining sub'ektlari bo'lib hisoblanadi?**

- a) davlatning barcha mahkama-idora tashkilotlari;
- b) firmalar;
- v) korxonalar va xo'jaliklar;
- g) tadbirkorlar;
- d) davlatning barcha mahkama-idora tashkilotlari, firmalar, korxonalar va xo'jaliklar, tadbirkorlar.

### **14. Davlat - bu:**

- a) «kapitalizimning tungi qorovuli»;
- b) «anarxiya sharoitida mahalla nazoratchisi»;
- v) tarixiy kategoriya, ustqurma belgi hisoblangan mustaqil mamlakat;
- g) «ijtimoiy manfaatni yoqlovchi mutavalli, nozir»;
- d) makrodarajadagi dispecher.

### **15. Davlat nimalarni hal qiladi?**

- a) monetar siyosatni olib boradi;
- b) nima ishlab chiqarishni hal qiladi;
- v) mahsulotni qaysi narxda ishlab chiqarishni hal qiladi;

- g) mahsulotni qanday ishlab chiqarishni hal qiladi;  
d) foiz stavkasini o'rnataadi.

**Javob:**

1. g; 2. b; 3. b; 4. b; 5. a, b, e; 6. v, g; 7. d; 8. a; 9. v; 10. g; 11. a; 12. b;  
13. d; 14. v; 15. a.

**4 BOB. MAKROIQTISODIY TAHLIL: JAMI TALAB VA JAMI TAKLIF**

**TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. Jami talab – bu uy xo'jaligi, korxonalar, hukumat hamda xorijiy xaridorlarning tovar va xizmatlarga talabidir.	
2. Jami taklif – bu muayyan narxlar darajasida chiqarilishi va taklif qilishi mumkin bo'lgan istemol, hamda investitsiya tovarlari va xizmatlarning umumiy miqdoridir.	
3. Jami talab egri chizig'iga quyidagi narx omillari ta'sir ko'rsatadi: foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi, talab samarasi.	
4. Jami talabga quyidagi narxga bog'liq bo'lmagan omillar tasir ko'rsatadi: istemol xarajatlaridagi o'zgarishlar, investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar, davlat xarajatlaridagi o'zgarishlar, eksport sof hajmiga xarajatlardagi o'zgarishlar.	
5. Jami taklif egri chizig'i uch kesmadan iboratdir: a) gorizonttal yoki klassik kesma; b) ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma; v) vertikal yoki keynsian kesma.	
6. Oraliq kesma – ishlab chiqarishning real hajmini o'sishi bilan narxlar ham o'sayotgan vaziyatni ko'rsatadi.	
7. Gorizonttal kesma iqtisodiyotni "To'liq bandlik" sharoitidagi holatini ifodalaydi.	
8. Jami taklif egri chizig'iga tasir etuvchi narxli omil bu ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishidir.	
9. Mahsulot birligiga ketgan xarajatlar quyidagi omillar tasirida bo'ladi: resurslarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi; unumdorlikdagi o'zgarishlar; huquqiy meyorlarning o'zgarishi.	
10. Narxlarning muvozanatli darajasida jami talab va jami taklif bir-biriga mos kelishi yoki bir-biriga teng bo'lishi kerak.	
11. Jami taklif egri chizig'ining klassik kesmasi gorizonttal ko'rinishga ega.	


12. Keynschilar va klassiklar jami taklif egri chizig'ini uzoq muddatda vertikal holatda bo'ladi deb ta'kidlaydilar.	
13. Jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmasida jami talabning ko'payishi narxlar va real YaIM hajmini o'sishiga olib keladi.	
14. Boylik samarasi - jami talab dinamikasini belgilovchi narxli omil emas.	

**Javob**

1.T; 2.T; 3.N; 4.T; 5.N; 6.T; 7.N; 8.N; 9.T; 10.T; 11. N; 12. T; 13. T; 14. N.

**MASALA**

1. 4.1.rasmda (Demand) jami talab egri chizig'i va (Supply) jami taklif egri chizig'i aks ettirilgan. Jami talab egri chizig'i chapga siljiydi.



**4.1.rasm.** Jami talab va jami taklif egri chiziqlari.

- a) jami talab egri chizig'ini chapga siljishi narxlar darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Narxlarining umumiy darajasi qanday o'zgaradi?
- b) jami talab egri chizig'ini chapga siljishi real YaIM darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Uning hajmi qanday o'zgaradi?
- d) Agar iqtisodiyotda ishlab chiqarish unumdorligi 50 % ga qisqarsa, bu jami taklif egri chizig'ida qay tarzda aks etadi?

**Javob:**

- a) Narxlar darajasi 80 dan 70 ga tushib ketadi.
- b) Real YaIM hajmi 200 dan 180 gacha kamayadi.
- v) Jami taklif egri chizig'i tepaga siljiydi.

2. **4.1. jadvalda** jami taklifni xarakterlovchi ma'lumotlar keltirilgan.

**4.1 jadval**

Narxlar darajasi	Real hajmdagi ishlab chiqarilgan YaIM
250	2000
225	2000
200	1900
175	1700
150	1400
125	1000
125	500
125	0

a) Quyidagilarni aniqlang:

(1) jami taklif egri chizig'ining keynsian kesmasida real YaIM hajmi qaysi oraliqda o'zgaradi?

(2) jami taklif egri chizig'ining klassik kesmasida narxlar darajasi va real YaIM hajmi qaysi oraliqda o'zgaradi?


(3) jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmasida real YaIM hajmi qaysi oraliqda o'zgaradi?

b) **4.2 rasmdan** foydalanib jami taklif egri chizig'ini chizing.

d) **4.2 jadvalda** jami taklif funksiyasining 3 varianti keltirilgan.

**4.2 rasmda** jami taklif egri chizig'ini uchta variantiga mos keladigan  $AD_1$ ,  $AD_2$ , va  $AD_3$  egri chiziqlarini chizing. Har bir variant uchun muvozanatlashgan YaIM hajmini va muvozanatlashgan narx darajasini aniqlang.

## 4.2 rasm



## 4.2 jadval


Narxlar darajasi	Real YaIM hajmi (xarajatlar bo'yicha hisoblangan)		
	(1)	(2)	(3)
250	1400	1900	400
225	1500	2000	500
200	1600	2100	600
175	1700	2200	700
150	1800	2300	800
125	1900	2400	900
100	2000	2500	1000

### Javob:

a) (1) 0-1000 (keynsiyan kesmada); (2) 225-250, 2000 (klassik kesmada); (3) 1000-2000 (oraliq kesmada).

d) (1) – 1700, 175; (2) – 2000, 225; (3) – 900, 125.

3. **4.3 rasmda** 6 ta jami talab egri chizig'i va jami taklif egri chizig'i keltirilgan.




**4.3 rasm.** Jami talab va jami taklif egri chiziqlari.

- a) jami talab egri chizig'i **AD<sub>1</sub>** holatidan **AD<sub>2</sub>** holatga; **AD<sub>3</sub>** holatidan **AD<sub>4</sub>** holatiga va **AD<sub>5</sub>** dan **AD<sub>6</sub>** holatiga siljiganda uning dinamikasini aniqlang.
- b) jami talab egri chizig'ini **AD<sub>1</sub>** holatidan **AD<sub>2</sub>** holatiga siljishi real **YaIM** va narx darajasi dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- v) jami talab egri chizig'ini **AD<sub>3</sub>** holatidan **AD<sub>4</sub>** holatiga siljishi real **YaIM** va narx darajasi dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- g) jami talab egri chizig'ini **AD<sub>5</sub>** holatidan **AD<sub>6</sub>** holatiga siljishi real **YaIM** va narx darajasi dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- d) agar **AD** egri chizig'i chap tomonga siljib borsa jami talab qanday o'zgaradi?
- e) agar **AD** egri chizig'i chapga siljisa, jami talabning o'zgarishi real **YaIM** va narx darajasi dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

**Javob:**

- a) o'sish.
- b) real **YaIM** hajmi o'sadi, narx darajasi o'zgarmaydi.
- v) real **YaIM** hajmi va narx darajasi o'sadi.
- g) real **YaIM** hajmi o'zgarmaydi, narx darajasi o'sadi.
- d) qisqaradi.
- e) **AS** egri chizig'ining klassik va oraliq kesmalarida narx darajasining pasayishi va **AS** egri chizig'ining oraliq va keynsian kesmalarida real **YaIM** hajmi qisqaradi.

4. **4.4 rasmda** 3 ta jami talab egri chizig'i va 2 ta jami taklif egri chizig'i keltirilgan.




**4.4 rasm.** Jami talab va jami taklif egri chiziqlari.

- a) agar **AS** egri chizig'i o'ngga siljisa (**AS<sub>1</sub>** holatidan **AS<sub>2</sub>** holatiga) jami taklif qanday o'zgaradi?
- b) tovar narxlari elastik (narx oshishi ham mumkin, pasayishi ham mumkin). Jami taklif egri chizig'i **AS<sub>1</sub>** holatidan **AS<sub>2</sub>** holatiga siljishi jami talabning har bir holati(**AD<sub>1</sub>**, **AD<sub>2</sub>**, **AD<sub>3</sub>**)da real **YaIM** hajmi va narx darajasiga qanday ta'sir etadi?
- v) tovar narxlari pasayish tendensiyasiga ega emas (pasayish tomonga elastik emas). Jami taklif egri chizig'i **AS<sub>1</sub>** holatidan **AS<sub>2</sub>** holatiga siljishi jami talabning har bir holati(**AD<sub>1</sub>**, **AD<sub>2</sub>**, **AD<sub>3</sub>**)da real **YaIM** hajmi va narx darajasiga qanday ta'sir etadi?
- g) agar **AS<sub>2</sub>** egri chizig'i **AS<sub>1</sub>** holatiga o'tsa, jami talabning har bir holati(**AD<sub>1</sub>**, **AD<sub>2</sub>**, **AD<sub>3</sub>**)da (1) jami taklif, (2) narx darajasi va (3) real **YaIM** hajmi qanday o'zgaradi?

**Javob:**

- a) ko'payadi.
- b) narx darajasi pasayadi, real **YaIM** hajmi o'sadi.
- v) narx darajasi o'zgarmaydi, real **YaIM** hajmi o'sadi.
- g) real **YaIM** hajmi o'zgarmaydi, narx darajasi o'sadi.
- d) qisqaradi, o'sadi, pasayib ketadi.

5. Keltirilgan grafikni diqqat bilan o'rganib chiqing.




Grafikni iqtisodiy tahlil etib quyidagi savollarga javob bering:

1. **E** nuqtasidagi kesishuv qanday iqtisodiy ma'noga ega?
2. **P<sub>3</sub>** narx darajasida **KL** kesmasi nimani anglatadi?
3. **P<sub>2</sub>** narx darajasida **MN** kesmasining iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
4. Qaysi sharoitlarda iqtisodiy dinamika to'xtaydi?
5. «Iqtisodiy erkinlik» terminini qanday tushunish mumkin?
6. Nima uchun faqatgina iqtisodiy erkinlik bozor baqarorligi ta'minlaydi?

**Javob:**

1. **E** nuqtasida xarid qilish va sotish ehtiyojlari bir-biriga mos tushadi;
2. **KL** – ortiqcha ishlab chiqarish;
3. **MN** – defitsit;
4. Iqtisodiy muvozanat sharoitida, jumladan **E** nuqtada.
5. Mulk egalaring ishlab chiqarish omillarining boshqarish erkinligi, resurslarning qo'yilish erkinligi, narx erkinligi va boshqalar.
6. Barqaror narxlar erkin narx shakllanishidagina tayinlanishi mumkin.


6. Keltirilgan grafikda narx **P<sub>1</sub>** darajda muvozanatga erishadi. Agar iste'molchilarning daromadlari o'ssa, yangi muvozanat narxi qanday darajada o'rnatiladi, **P<sub>1</sub>**dan yuqoridami yoki pastdami?



**Javob:**

Talab egri chizig'ining o'ng tomonga siljishi yangi muvozanat narxini yuqoriroq darajada ( **$R_1$ dan** balandroq) o'rnatilishiga olib keladi.

7. Xom-ashyoning qimmatlashuvi taklif egri chizig'ining siljishiga olib keldi. Keltirilgan grafikni tahlil etib chiqib, quyidagini aniqlang. Yangi muvozanat narxi qanday darajada o'rnatiladi,  **$R_1$ dan** yuqoridami yoki pastdami?



**Javob:**

Taklif egri chizig'ining chap tomonga siljishi yangi muvozanat narxini yuqoriroq darajada ( **$R_1$ dan** balandroq) o'rnatilishiga olib keladi.

## TEST

**1. Jami talab egri chizig'ining o'ngga surilishi quyidagini aks ettira olmaydi:**

- narxlar darajasi va real YaIM hajmining o'sishini;
- real YaIM hajmi o'sishi bo'lmagan sharoida narxlar darajasi o'sishini;
- narxlar darajasi o'sishi bo'lmagan sharoida real YaIM hajmi o'sishini;

- g) bir vaqtda narxlar darajasi o'sishini va real YaIM hajmi kamayishini;
- d) yuqoridagi javoblarini hammasi to'g'ri.

**2. Jami talab egri chizig'ini o'ngga yoki chapga siljishi natijasi bir xil, agar:**

- a) bu siljish jami taklif egri chizig'ining gorizontal kesmasida amalga oshsa;
- b) bu siljish jami taklif egri chizig'ining vertikal kesmasida amalga oshsa;
- v) bu siljish jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmasida amalga oshsa;
- g) iqtisodiyot depressiya holatida bo'lsa;
- d) yuqoridagi javoblarini hammasi noto'g'ri.

**3. Agar narxlar darajasi o'sib borayotgan sharoitda ishlab chiqarish qisqarib borsa, bu quyidagi o'zgarish natijasidir:**

- a) jami talab egri chizig'ini o'ngga siljishi;
- b) jami talab egri chizig'ini chapga siljishi;
- v) jami taklif egri chizig'ini chapga siljishi;
- g) jami taklif egri chizig'ini o'ngga siljishi;
- d) yuqoridagi javoblarini hammasi noto'g'ri.

**4. Agar to'liq bandlik sharoitida jami talab hajmi YaIM darajasini oshirsa, bu iqtisodiyotda:**

- a) moliyaviy cheklovlar mavjudligidan dalolat beradi;
- b) inflyatsion uzilish mavjudligidan dalolat beradi;
- v) deflyatsion uzilish mavjudligidan dalolat beradi;
- g) jami talab va jami taklif orasida muvozanat kuzatiladi;
- d) budjet defitsiti mavjudligidan dalolat beradi.

**5. Agar muvozanatlashgan YaIM hajmi potensial YaIM hajmi darajasidan yuqori bo'lsa, unda:**

- a) narx darajasi ko'tariladi;
- b) ishsizlik darajasi ortadi;
- v) deflyatsion uzilish paydo bo'ladi;
- g) jami taklif avtomatik ravishda ko'payadi;
- d) jami talab avtomatik ravishda ko'payadi.

**6. Jami talab egri chizig'i quyidagilar orasidagi munosabatni aks ettiradi:**

- a) narx darajasi va tovar va xizmatlar sotib olish uchun jami xarajatlar;
- b) narx darajasi va real ko'rinishdagi ishlab chiqarilgan YaIM;

- v) xaridorlar tan oladigan narx darajasi va sotuvchilarni qoniqtiradigan narxlar darajasi;
- g) ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan real ko'rinishdagi YaIM hajmi;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**7. Jami taklif egri chizig'idagi keynsian kesma:**

- a) ijobiy (o'ngga yuqoriga) ko'rinishga ega:
- b) salbiy (o'ngga pastga) ko'rinishga ega:
- v) vertikal chiziq ko'rinishida:
- g) gorizontal chiziq ko'rinishida:
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**8. Jami taklif egri chizig'idagi oraliq kesma:**

- a) ijobiy (o'ngga yuqoriga) ko'rinishga ega:
- b) salbiy (o'ngga pastga) ko'rinishga ega:
- v) vertikal chiziq ko'rinishida:
- g) gorizontal chiziq ko'rinishida:
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**9. Jami taklifning o'sishi:**

- a) narx darajasini va real YaIM hajmining pasayishiga olib keladi;
- b) narxlarni o'sishni va real YaIM hajmining ko'payishini sekinlashtiradi;
- v) narx darajasini va real ko'rinishidagi YaIM hajmini o'sishiga olib keladi;
- g) narxlar darajasini o'sishini va real YaIM hajmini kamayishini sekinlashtiradi;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

**10. Jami talab egri chizig'i ko'tariladi, agar:**

- a) narxlar darajasi pasaysa;
- b) narx darajasi o'sib borsa;
- v) ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari ko'payib borsa;
- g) milliy pul birligining valyuta kursi pasayib borsa;
- d) yuqoridagi javoblarini hammasi to'g'ri.

**Javob:**

1. g; 2. v; 3. v; 4. b; 5. a; 6. a; 7. g; 8. a; 9. b; 10. g.

## 5 BOB. MAKROIQTISODIY BEQARORLIK: ISHSIZLIK

### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Agar real ish haqi ortsa, mehnatning taklifi ham ortadi.	
2. Ishlab chiqarishni pasayishi natijasida kelib chiqqan ishsizlik friksion ishsizlik deb ataladi.	
3. Strukturali ishsizlik istemol bozori malum mahsulot bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmagan taqdirda vujudga keladi.	
4. Agar strukturali va siklik ishsizlik 0 ga teng bo'lsa, u holda to'la ish bilan bandlikka erishiladi.	
5. "Ishsizlikni tabiiy darajasi" iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensialidan to'la foydalanayotganini ko'rsata olmaydi.	
6. Potensial YaIM ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik tabiiy darajada deb xisoblanadi.	
7. Agar ishsizlik darajasi 1% dan oshib ketsa, iqtisodiyot 2,5% YaIM ni yo'qotadi.	
8. Ishsizlik darajasi deb ish kuchining ishsiz yurgan salmog'iga aytiladi.	
9. Friksion ishsizlikni mavjudligi jamiyat uchun nafaqat majburiy, balki zarur hamdir.	
10. Agar ishsizlik darajasi tabiiy darajada bo'lsa, ishlab chiqarishning potnetsial va amaldagi hajmlari tengdir.	
11. Ishsizlik badallarini ko'payishi, ishsizlik darajasini o'sishiga olib keladi.	

#### Javob

1.T; 2.N; 3.T; 4.N; 5.T; 6.T; 7.N; 8.T; 9.T; 10.T; 11.T.

#### MASALA

1. **5.1 jadvalda** potensial YaIM va haqiqatdagi YaIM hajmlarini xarakterlovchi ma'lumotlar keltirilgan (mlrd.\$). 2020 yilda iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida rivojlandi (ishsizlik darajasida 6%).

#### 5.1 jadval

Yil	potensial YaIM	Haqiqatdagi YaIM
2020	3000	3000
2021	3800	3705
2022	4125	3712,5

a) 2021 yilga tegishli ko'rsatkichlar yordamida quyidagilarni hisoblab toping:

- potensial va haqiqatdagi **YaIM** o'rtasidagi farqni (absolyut va foiz ko'rinishida).
  - Ouken qonuniga asoslanib, 2021 yildagi ishsizlik darajasini aniqlang.
- b) 2022 yilga tegishli ko'rsatkichlar yordamida quyidagilarni hisoblab toping:
- potensial va haqiqatdagi **YaIM** o'rtasidagi farqni (mutlaq va foiz ko'rinishida).
  - Ouken qonuniga asoslanib, 2022 yildagi ishsizlik darajasini aniqlang.

**Javob:**

- a) 95 mlrd.\$, 2,5%, 7,5%.  
 b) 412,5 mlrd.\$, 10%, 10%.

2. Quyida keltirgan shaxslar qaysi toifaga aloqador ekanligini aniqlang:

- to'la bandlar (B)
- ishsizlar (I)
- ish kuchiga kirmaydiganlar (K)

- a) O'z xohishiga binoan ishdan bo'shagan ishchi;  
 b) Yarim ish kuni rejimida ishlashga o'tkazilgan ishchi;  
 v) Salomatligi yomonlashganligi sababli ishlay olmayotgan o'kituvchi;  
 g) Uzoq muddat ish topa olmay yurgan, va shu sababdan ish izlashni to'xtatgan ishdan bo'shatilgan ishchi;  
 d) OO'Yuning kunduzgi bo'limda o'qiyotgan talaba;  
 e) OO'Yuning kechki bo'limda o'qiyotgan avtomexanik;  
 j) Faqat uy ishlari va oilasi bilan shug'ullanuvchi uy bekasi;  
 z) Kunning ma'lum bir qismida kutubxonachi sifatida ishlayotgan uy bekasi.

**Javob:**

- a) I; b) B; v) K; g) K; d) K; e) B; j) K; z) B.

3. **5.2 jadvalda** birinchi va beshinchi yillarda mehnat resurslari va bandlik to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

5.2 jadval

	Birinchi yil	Beshinchi yil
Ishchi kuni	84889	95453
Bandlar	80796	87524
Ishsizlar		
Ishsizlik darajasi (%)		

- a) Birinchi va beshinchi yillardagi ishsizlar soni va ishsizlik darajasini aniqlang.  
b) bandlik va ishsizlikni birgalikda o'sishini qanday tushunsa bo'ladi?  
v) Beshinchi yilda to'la bandlikka erishilgan deb ta'kidlasa bo'ladimi?

**Javob:**

- a) Birinchi yil 4093 ming kishi, 4,8%; beshinchi yil 7929 ming kishi, 8,3%.  
b) Ish kuchi soni bandlikka nisbatan tezroq o'sgan.  
v) Yo'q. Chunki 8,3% darajadagi ishsizlik, ko'pchilik iqtisodchilarning baholariga binoan, tabiiy ishsizlik darajasidan yuqori va to'liq bandlikka mos kelmaydi.

4. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Bandlar soni - 90 mln.kishi

Ishsizlar soni - 10 mln.kishi

a) Ishsizlik darajasini aniqlang.

b) Bir oy vaqt o'tgandan so'ng band bo'lgan 90 mln.kishidan 0,5 mln.kishi ishdan bo'shatildi; rasmiy ishsiz deb ro'yxatdan o'tkazilganlardan 1 mln.kishi ish qidirishni to'xtatishdi. Quyidagilarni aniqlang.

(1) Bandlar soni, (2) ishsizlar soni va (3) ishsizlik darajasi.

**Javob:**

a) 10%

b) (1) = 89,5 mln.kishi; (2) = 9,5 mln.kishi; (3) = 9,6%.

5. Nominal **YaIM**=750 mlrd.\$, ishsizlikning tabiiy darajasi=5%, ishsizlikning haqiqatdagi darajasi=9%. Mamlakatda qanday hajmdagi mahsulot ishlab chiqarilmagan (qiymat ko'rinishida)? (Ouken koeffitsienti=2,5).

**Javob:**

75 mlrd.\$

**TEST**

**1. Ishsizlik deganda;**

a) o'ziga ish topolmasdan, mehnat rezervi armiyasiga aylangan aholining iqtisodiy faol qismi tushuniladi;

b) mehnatga layoqatli, ammo ish joyiga ega bo'lmagan aholi tushuniladi;

- v) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan aholi tushuniladi;
- g) ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan aholi tushuniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

## **2. Ishsizlik:**

- a) friksion ko'rinishda bo'lishi mumkin;
- b) tuzilmaviy ko'rinishda bo'lishi mumkin;
- v) siklik ko'rinishda bo'lishi mumkin;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

## **3. Tabiiy yoki to'la ish bilan bandlik deb;**

- a) ish qidirayotganlar bilan bo'sh ish joyi teng bo'lgandagi xolga aytiladi;
- b) friksion ishsizlikdagi holatga aytiladi;
- v) tuzilmaviy ishsizlikdagi holatga aytiladi;
- g) siklik ishsizlikdagi holatga aytiladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

## **4. Friksion ishsizlik deganda;**

- a) turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushunildi;
- b) ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishi tushuniladi;
- v) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchlari tushuniladi;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

## **5. Tuzilmaviy ishsizlik deganda;**

- a) ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishi tushuniladi;
- b) turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- v) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchlari tushuniladi;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

## **6. Siklik ishsizlik deganda:**

- a) ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishi tushuniladi;
- b) ish qidirayotgan yoki yaqin vaqt ichida ish bilan ta'minlanishini kutayotgan ishchi kuchlari tushuniladi;

- v) turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifga nomuvofiqligi natijasida vujudga kelgan ishsizlik tushuniladi;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

**7. Agar ishsizlik friksion va tuzilmaviy tus olsa, u holda davlat:**

- a) ish bilan bandlikni kuchaytirish uchun ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflaydi;
- b) ishsizlarga qaytadan kasb o'rgatadi;
- v) tadbirkorlarning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditlarning foiz stavkalarini pasaytiradi;
- g) ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**8. Agar ishsizlik siklik tus olsa, u holda davlat:**

- a) ta'lim berish tizimini kengaytiradi;
- b) bo'sh ish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;
- v) ish bilan bandlikni kuchaytirish maqsadida ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflaydi;
- g) mehnat birjalariga investitsiyalarni ko'paytiradi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**9. Mehnat qilish layoqati cheklangan aholi tarkibiga quyidagi toifalarning qaysi biri kiradi?**

- a) nafaqaxo'rlar;
- b) mehnat yoshigacha bo'lgan yoshlar;
- v) nogironlar, qaramoq(boquv)dagi kishilar;
- g) ishsizlar;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**10. Ouken qonuninga asosan: haqiqatdagi ishsizlik darajasi uning tabiiy darajasidan 2%ga ortiq bo'lishi real YaIM hajmini haqiqatdagi YaIM hajmidan quyidagi hajmda kam bo'lishiga olib keladi:**

- a) 2%;
- b) 4%;
- v) 3%;
- g) 5%;
- d) 5%dan ancha ko'p;
- e) 5%dan ancha kam.

**Javob:**

1. a; 2. g; 3. a; 4. v; 5. b; 6. a; 7. b; 8. v; 9. d; 10. g.

## 6 BOB. MAKROIQTISODIY BEQARORLIK: INFLYATSIYA TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Inflyatsiya - bu tovar va xizmatlarning bahosini o'sishidir.	
2. Baho indeksi bazis bahoni haqiqatdagi bahoga nisbatidir.	
3. «70 qiymat qoidasi» = $\frac{70}{P_b}$ .	
4. Inflyatsiyaning 2 xil ko'rinishi mavjud: a) talab inflyatsiyasi; b) jami taklifning kamayishidan kelib chiqadigan inflyatsiya.	
5. Talab inflyatsiyasida "Ko'p tovarlar kam pullarni ovlaydi".	
6. Bir birlik mahsulotga ketadigan xarajatlar oshib borsa jami taklif qisqaradi va inflyatsiya kelib chiqadi.	
7. Bir birlik mahsulotga ketadigan xarajatlarni hisoblash uchun umumiy xarajatlarni jami mahsulotlar soniga bo'lish zarur.	
8. Bir birlik mahsulotga ketadigan xarajatlarni ko'payishiga asosan ikki omil tasir qiladi: a) Nominal ish haqining pasayishi; b) Xom ashyo va energiya bahosining ko'payishi.	
9. Fillips egri chizig'ida ishsizlikni ko'payishi narxlarni oshishi bilan birga kuzatiladi.	
10. Inflyatsiya - bu ishlab chiqarishning umumiy o'sishidir.	
11. Inflyatsiya aholining barcha qatlamlarining real daromadlarini kamayishiga olib keladi.	

### Javob

1.T; 2.N; 3.N; 4.T; 5.N; 6.T; 7.T; 8.N; 9.T; 10.N; 11.N.

### MASALA

1. Real daromad hajmi qanday o'zgaradi, agar:

a) nominal daromad 10%ga ortsa, narx darajasi esa 7%ga o'sgan bo'lsa.

b) nominal daromad 30 ming.\$ni, shu yilning o'zida narxlar indeksi esa 106 ni tashkil etgan bo'lsa.

### Javob:

a) 3%ga ko'payadi.

b) 28 ming.\$gacha pasayadi.

2. **6.1 jadvalda** yillar bo'yicha baho indeklari keltirilgan:

**6.1a jadval**

Yil	Baho indeksi	Inflyatsiya darajasi (%da)
1	100,00	-
2	112,00	
3	123,00	
4	129,00	

- a) har bir yil uchun inflyatsiya darajasi (sur'ati)ni aniqlang.
- b) «70 qiymat qoidasi»ni qo'llab, narxlarning necha yilda 2 barobarga ortishini aniqlang (maxrajdagi songa **a**) punktda aniqlangan har bir yil uchun inflyatsiya darajasidan foydalaning).
- v) agar nominal daromad 2-yilda 1-yilga nisbatan 15%ga ortgan bo'lsa, 2-yilga nisbatan 3-yilda 7%ga ortgan bo'lsa real daromadning o'zgarishini aniqlang (%da).
- g) agar nominal daromad 2-va 3-yillarda 25 ming \$ga teng bo'lgan bo'lsa, shu yillardagi real daromadning absolyut kattaligini aniqlang.
- d) agar 2-yilda kredit uchun foizning nominal darajasi 14% teng bo'lsa (1-va 2-yil davr mobaynida zaem oluvchilar uchun) va 3-yilda 18% (2-va 3-yil davr mobaynida zaem oluvchilar uchun) bo'lsa, unda ushbu yillarda uning real darajasini aniqlang.

**Javob:**

- a) **6.1b jadvalga** qaralsin.

**6.1b jadval**

Yil	Baho indeksi	Inflyatsiya darajasi (%da)
1	100,00	0
2	112,00	12
3	123,00	10
4	129,00	5

- b) 5,83; 7 ;14.
- v) +3%; -3%.
- g) 22 321 \$; 20 292 \$
- d) 2%; 3%.

**TEST****1. Inflyatsiyaning iqtisodiy tanglik va ishsizlik bilan birgalikda yuz berishi:**

- a) stagflyatsiya deb ataladi;
- b) stagnatsiya deb ataladi;
- v) deflyatsiya deb ataladi;
- g) giperinflyatsiya deb ataladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

## **2. Stagflyatsiya qanday aniqlanadi?**

- a) stagflyatsiya = ijtimoiy mahsulotning pasayishi + ishsizlik
- b) stagflyatsiya = muomaladagi pul massasining kamayishi + tovar va xizmatlarga narxning oshishi
- v) stagflyatsiya = stagnatsiya + inflyatsiya;
- g) stagflyatsiya = stagnatsiya - inflyatsiya;

## **3. Deflyatsiya:**

- a) narxning oshishi, pul qadrining pasayishini bildiradi;
- b) milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishini bildiradi;
- v) eksportning importga nisbatan nihoyatda ortib ketishini bildiradi;
- g) narxning pasayishini, pul qadrining ortishini bildiradi;

## **4. Taklif inflyatsiyasi:**

- a) ishlab chiqirishda o'rtacha xarajatlarning ortishi natijasida sodir bo'ladi;
- b) tovar va xizmatlarning jami talabdan orqada qolib, pul birligi qadrining tushishi natijasida sodir bo'ladi;
- v) ishlab chiqarishda o'rtacha xarajatlarning pasayishi natijasida sodir bo'ladi;
- g) tovar va xizmatlarning jami talabdan orqada qolib pul birligi qadrining oshishi natijasida sodir bo'ladi;

## **5. Inflyatsiya qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:**

- a) pul birligi qadrsizlanadi;
- b) shaxsiy jamg'armalar o'z qadrini yo'qotadi;
- v) kam ta'minlangan aholi yanada qashshoqlashadi;
- g) katta investitsiyalar qilishga havf-xatar oshadi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

## **6. Davlat inflyatsiyani tugatish yoki yumshatish uchun:**

- a) emissiyani ko'paytiradi;
- b) ishlab chiqarishni jonlantiradi;
- v) ishlab chiqarishga beriladigan imtiyozlarni ko'paytiradi;
- g) depozitlar uchun bank to'laydigan foizlar kamaytiriladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

## **7. Quyidagi chora-tadbirlarning qaysi biri antiinflyatsiya siyosatiga taaluqli?**

- a) ishlab chiqarishni rag'batlantirish;

- b) eksport-import bo'yicha imtiyozlar berish;
- v) ortiqcha pulni tovar bozorida chiqarish;
- g) ishlab chiqarishga imtiyozli kredit berish;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**8. Kutilmagan inflyatsiyadan quyidagilar eng kam jabr ko'radilar:**

- a) qayd qilingan nominal daromad oluvchilar;
- b) nominal daromadi narxlarning o'sishiga qaraganda sekinroq o'suvchi kimsalar;
- v) pul jamg'armalariga ega kimsalar;
- g) narxlar darajasi past bo'lganda, qarzdor bo'lib qolgan kimsalar;
- d) faqat b) va g) javoblar to'g'ri.

**9. Quyidagilarning qaysi biri ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishidan kelib chiqqan inflyatsiyaga aloqasi yo'q:**

- a) bandlikni va ishlab chiqarining o'sishi;
- b) bir mahsulotga bo'lgan xarajat qiymatining o'sishi;
- v) ish haqining inflyatsiya ketidan yetib olish maqsadidagi o'sishi;
- g) taklifdagi keskin o'zgarishlar;
- d) foiz stavkasining o'sishi.

**10. Jami xarajatlarining o'sishi quyidagi holatda inflyatsiyaga olib keladi:**

- a) iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida taraqqiy etsa;
- b) YalMning potensial va haqiqatdagi darajasi teng bo'lganda;
- v) ishchi kuchi sonining ortmasa;
- g) faqat a) va b) javoblar to'g'ri;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

**11. Jadallashayotgan inflyatsiya davrida foiz stavkasi:**

- a) pasayadi, chunki pul narxi pasayadi;
- b) pasayadi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- v) ortadi, chunki pul narxi pasayadi;
- g) ortadi, chunki bandlik darajasi pasayadi;
- d) o'zgarmaydi.

**12. Kutilmagan inflyatsiya quyidagi bilan birgalikda yuz beradi:**

- a) iqtisodiy zararining mavjud emasligi;
- b) iqtisodiyotining samaradorligining pasayishi;
- v) boylik va daromadning qayta taqsimlanishi;
- g) faqat v) va b) javoblar to'g'ri;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**Javob:**

1. a; 2. v; 3. g; 4. a; 5. d; 6. v; 7. d; 8. g; 9. a; 10. g; 11. v; 12. g.

## 7 BOB. KLASSIK VA KEYNSCHA BANDLIK NAZARIYASI

### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Klassik maktabning namoyondalari quyidagilardir: U.Petti, D.Rikardo, A.Smit, Sey, Dj.Mill, Al.Marshall.	
2. Barcha resurslarning to'liqligicha band bo'lishi iqtisodning normal holatidir-klassiklar fikri.	
3. Sey qonuni – tovarlar sotgandan tushgan pul tovarlar qiymatiga tengdir.	
4. Keynsning ish bilan bandlik nazariyasi «Buyuk depressiya» davrida vujudga kelgan.	
5. Keynsning ish bilan bandlik nazariyasi XIX asrning 30-yillarida vujudga kelgan.	
6. To'la ish bilan bandlikni buzilishiga urush va tabiiy ofatlar sababchi bo'ladi.	
7. Bozor iqtisodiyotida to'la bandlikni ta'minlovchi hech qanday mexanizm mavjud emas.	
8. Makroiqtisodiy barqarorlikning keynschilik modelida iqtisodiy barqarorlikka jami xarajatlarni o'zgartirish orqali erishiladi.	
9. Klassik maktab namoyondalari bozor iqtisodiyoti fiskal siyosat yordamida tartibga solinib turiladi deb ta'kidlaydilar.	
10. Tovar zahiralarining ko'payishi firmalarni bandlikni oshirishga majbur qiladi.	
11. Makroiqtisodiy barqarorlikning keynschilik modelida narx va ish haqi darajasi o'zgarmasdir.	

**Javob**

1.T; 2.T; 3.T; 4.T; 5.N; 6.N; 7.T; 8.T; 9. N; 10. N; 11. T.

### MASALA

1. Qo'yida keltirilgan omillarni (keynschilar va klassiklarning nazariyalari nuqtai-nazarida) YaIM hajmining dinamikasiga va narx darajasiga ta'sirini aniqlang (o'sish +; pasayshi -; o'zgarmas 0).

a) Potensial YaIM hajmining o'sishi.

- b) Jami talabning o'sishi.
- v) Foiz stavkasining o'sishi va jami talabni qisqarishi.
- g) Neftning narxini oshishi, buning natijasida esa boshqa tovar va xizmatlarga talab kamayadi.
- d) Juda katta ofat bo'lib, natijada potensial YaIM 25%ga kamayadi.

Javoblarni **7.1a jadvalga** kiriting.

**7.1a jadval**

Omillar	Keynschilarni baholashi		Klassiklarni baholashi	
	Narxlar	Ishlab chiqarish	Narxlar	Ishlab chiqarish
a				
b				
v				
g				
d				

**Javob:**

a), b), v), g), d) – **7.1b jadvalga** qarang.


**7.1b jadval**

Omillar	Keynschilarni baholashi		Klassiklarni baholashi	
	Narxlar	Ishlab chiqarish	Narxlar	Ishlab chiqarish
a	0	0	-	+
b	+	+	+	0
v	-	-	-	0
g	-	-	-	0
d	0 <sup>1)</sup>	0 <sup>2)</sup>	+	-

<sup>1)</sup> (+) bo'lishi mumkin, agar shu davrda potensial YaIM hajmi jami talab hajmidan kam bo'lsa.

<sup>2)</sup> (-) bo'lishi mumkin, agar shu davrda potensial YaIM hajmi avvalgi muvozanat hajmidan past darajada bo'lsa.

**2. 7.1 rasmda** potensial ishlab chiqarish hajmi 1000 mlrd.\$ga teng bo'lgan sharoitda jami taklif egri chizig'i aks ettirilgan (A va B grafiklar).



**7.1 rasm.** Jami taklif egri chiziqlari.

a) bu grafiklarning qaysi birida jami taklif egri chizig'i klassiklar nazariyasi bo'yicha, qaysi biri keynschilar nazariyasi bo'yicha talqin etilmoqda?

b) klassiklar va keynschilar konsepsiyalarining qaysi biri jami talabni kamayishi YalM hajmiga ta'sir etmaydi, ammo narxlarning umumiy daorajasini o'zgarishiga olib keladi deb talqin etadi?

**Javob:**

a) **A** grafik keynschilar nazariyasini, **B** grafik esa klassiklar nazariyasini aks ettirmoqda.


b) Klassiklar.

3. Muvozanatlashgan ishlab chiqarishning klassik modeliga muvofiq o'rtacha narx darajasini aniqlang. Bunda mamlakat yalpi ishlab chiqarishi 500 000 birlik; aylanma pul miqdori 1 000 000 \$, ularning aylanish tezligi 4 ga teng deb hisoblang.


**Javob:**

$$MV = PY; P = \frac{MV}{Y} = \frac{1000000\text{долл.} \times 4}{500000} = 8\text{долл.}$$

4. **7.2a** va **7.3a rasmlarda** mehnat va avtomobil bozorlaridagi boshlang'ich muvozanat aks ettirilgan. Agar avtomobilga bo'lgan talab ortsa, klassik nazariya nuqtai-nazaridan avtomobil va mehnat bozorlarida muvozanat qay yo'sinda o'zgarishini ko'rsating?




**7.2a rasm.** Avtomobillar bozoridagi talab va taklif egri chiziqlari




**7.3a rasm.** Mehnat bozoridagi talab va taklif egri chiziqlari

**Javob: 7.2b va 7.3b rasmlarga qarang**



**7.2b rasm.** Avtomobillar bozoridagi talab va taklif egri chiziqlari



**7.3b rasm.** Mehnat bozoridagi talab va taklif egri chiziqlari

Avtomobilga bo'lgan talabning o'sishi talab egri chizig'ini o'ngga suradi ( $D_1$  chizig'i  $D_2$  ga suriladi). Narx  $P_1$  darajada bo'lganda avtomobillar bozorida defitsit holati yuzaga keladi. Klassiklar nazariyasiga binoan avtomobilga bo'lgan talabning o'sishi va avtomobillar bozorida defitsit holatining mavjudligi narxlar darajasini  $P_2$  gacha ko'tarilishiga olib keladi. Narxlarning yanada o'sishi avtomobillar

taklifi hajmini o'sishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, ishchi kuchiga bo'lgan talabni o'sishiga olib keladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talab egri chizig'i  $D_{L1}$  dan  $D_{L2}$  gacha suriladi. Ishchi kuchiga bo'lgan talabning o'sishi ish haqini  $W_1$  dan  $W_2$  ga surilishiga olib keladi. Shunday qilib, klassiklar nazariyasiga binoan Yangi o'rnatilgan muvozanat sharoitida avtomobilning narxi o'sdi, uni ishlab chiqarish ortdi, ishchi kuchiga bo'lgan talab o'sdi va ish haqi darajasi ko'tarildi.

5. Iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:  $S = 100 + 0,9DI$

a) jadvalda keltirilgan ixtiyordagi daromad ma'lumotlari yordamida iste'mol va jamg'arma xarajatlarini hisoblang (7.2a jadval)

7.2a jadval

Ixtiyordagi daromad (DI) (mlrd.\$)	Iste'mol xarajatlari (C) (mlrd.\$)	Jamg'armalar (S) (mlrd.\$)
600		
800		
1000		
1200		
1400		

b) chegaralangan iste'molga moyillik (**MRS**) va chegaralangan jamg'armalarga moyillik (**MPS**)ni aniqlang.

v) xarajatlar multiplikatorini (**M**) aniqlang.

**Javob: a)** 7.2b jadvalga qarang.

7.2b jadval

Ixtiyordagi daromad (DI) (mlrd.\$)	Iste'mol xarajatlari (C) (mlrd.\$)	Jamg'armalar (S) (mlrd.\$)
600	640	-40
800	820	-20
1000	1000	0
1200	1180	20
1400	1360	40

b)  $MRS = 0,9$ ;  $MPS = 0,1$ .

v)  $M = 10$ .

6. **7.3 jadvalda** yopiq iqtisodiyot uchun iste'mol xarajatlari, jamg'armalar va SIM miqdori (\$ da) ko'rsatilgan.

### 7.3 jadval

SIM hajmi (NNP)	Iste'mol (S)	Jamg'armalar (S)
550	520	30
560	526	34
570	532	38
580	538	42
590	544	46
600	550	50
610	556	54
620	562	58
630	568	62

a) To'la bandlik sharoitida SIM hajmi 590 \$ga teng. Investitsiya multiplikatori hajmini toping.

b) Sof rejalashtirilgan investitsiyalar 58 \$ni tashkil etdi. Real va nominal SIM hajmlaridagi farqni aniqlang. Ulardagi farq qanday xarakterga ega – inflyatsionmi yoki deflyatsionmi?

v) Sof rejalashtirilgan investitsiyalar 38 \$ga teng. To'la bandlik va to'liq bo'lmagan bandlik sharoitlarida real SIM hajmlarini aniqlang. Bu farq qanday xarakterga ega – inflyatsionmi yoki deflyatsionmi?

#### Javob:

a)  $2 \frac{1}{2}$ .

b) Nominal muvozanatlashgan SIM = 620; farq = 30 (620-590); inflyatsion.

v) To'liq bo'lmagan bandlik sharoitida real SIM = 570; farq = 20 (590-570); deflyatsion.

7. a) Quyidagi ma'lumotlar yordamida hisob-kitoblar qilib **7.4a jadvalni** to'ldiring (mlrd.\$da): iste'mol xarajatlari = 200 + 0,15 ixtiyordagi daromad, investitsiyalar = 200, eksport = 125, import = 25, soliqlar = 200.

### 7.4a jadval

Jami ishlab chiqarish = milliy daromad (AS = Y)	Soliqlar (T)	Ixtiyordagi daromad (Yd)	Iste'mol (C)	Investitsiyalar (I)	Davlat xarajatlari (G)	Sof eksport (X-M)	Jami talab (AD)
1800							
2000							
2200							
2400							
2600							

b) Daromadning qanday darajasida iqtisodiyot makroiqtisodiy muvozanatga erishadi?

v) Investitsiyalar multiplikatori nechaga teng?

g) Investitsiyalar hajmi 150 mlrd. \$gacha tushib ketsa, iqtisodiyot yangi muvozanatga daromadning qaysi darajasida erisha oladi?

**Javob:** a) 7.4b jadvalga qarang.

**7.4b jadval**

Soliqlar (T)	Ixtiyordagi daromad (Yd)	Iste'mol (C)	Investitsiyalar (I)	Davlat xarajatlari (G)	Sof eksport (X-M)	Jami talab (AD)
?	?	?	200	200	100	1900
?	?	?	200	200	100	2050
?	?	?	200	200	100	2200
?	?	?	200	200	100	2350
?	?	?	200	200	100	2500

b) AS = AD agar Y = 2200 mlrd.\$ga teng bo'lsa.

v) Investitsiyalar multiplikatori =  $\frac{1}{1-MPC} = \frac{1}{1-0,75} = \frac{1}{0,25} = 4$

g) Milliy daromad va ishlab chiqarishning o'zgarishi quyidagicha hisoblanadi:

Daromadning o'zgarishi ( $\Delta Y$ ) = investitsiyalarning o'zgarishi ( $\Delta I$ ) x multiplikator;  $\Delta Y = (150-200) \times 4 = -200$  mlrd.\$

$$Y_2 = Y_1 - 200$$

$$Y_2 = 2200 - 200 = 2000 \text{ mlrd.}\$$$

8. **7.5a jadvalda** narxlar darajasi o'zgarmas va davlatning aralashuvi mavjud bo'lmagan yopiq iqtisodiyot ma'lumotlari (\$da) berilgan.

**7.5a jadval**

Real SIM (NNP)	Iste'mol xarajatlari (C)	Jamg'armalar (S)	Rejalashtirilgan investitsiyalar (I)	Jami xarajalar (C+I)	Amaldagi investitsiyalarning rejalashtirilgan investitsiyalardan farqi (S-I)
1300	1290	10	22	1312	-12
1310	1298	12	22	1320	-10
1320	1306	14	-	-	-

1330	1314	16	-	-	-
1340	1322	18	-	-	-
1350	1330	20	-	-	-
1360	1338	22	-	-	-
1370	1346	24	-	-	-
1380	1354	26	-	-	-
1390	1362	28	22	1384	+6
1400	1370	30	22	1392	+8

a) quyida turli foiz stavkalaridagi rejalashtirilgan investitsiyalar hajmi keltirilgan:

Foiz stavkasi (%)	10	9	8	7	6	5	4	3
Xususiy investitsiyalar (\$.)	0	7	13	18	22	25	27	28

Foiz stavkasi 6% teng deb taxmin qilsak. Jami xarajatlari (iste'mol xarajatlari + investitsiyalar) va rejalashtirilgan investitsiyalarni amaldagi investitsiyalarni farqlanishi kattaliklarini aniqlab **7.5a jadvaldagi** yetishmayotgan ma'lumotlarni kiriting.

b) Ushbu foiz stavkasi darajasi va 22 \$ga teng bo'lgan sof investitsiyalar darajasida quyidagilarni aniklang:

- Real SIMning muvozanatlashgan darajasini;
- chegaralangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armalarga moyillikni;
- Investitsiya multiplikatorini.

v) Agar foiz stavkasi 6% dan 5%gacha tushsa, rejalashtirilgan investitsiyalar va real SIMning muvozanatlashgan hajmi qanday tarzda o'zgaradi?

g) Agar foiz stavkasi 6% dan 7%gacha ko'tarilsa, rejalashtirilgan investitsiyalar va real SIMning muvozanatlashgan hajmi qanday tarzda o'zgaradi?

**Javob:**

a) **7.5b jadvalga** qarang.

**7.5b jadval**

Rejalashtirilgan investitsiyalar (I)	Jami xarajatlari (C+I)	Amaldagi investitsiyalarning rejalashtirilgan investitsiyalardan farqi (S-I)
22	1312	-12
22	1320	-10
22	1328	-8
22	1336	-6
22	1344	-4

22	1352	-2
22	1360	0
22	1368	+2
22	1376	+4
22	1384	+6
22	1392	+8

b) muvozanatlashgan SIM = 1360 \$

Chegaralangan iste'molga moyillik = 0,8

Chegaralangan jamg'armalarga moyillik = 0,2

Multiplikator = 5.

v) Rejalashtirilgan investitsiyalar va real SIMning muvozanatlashgan hajmi mos ravishda 5 va 15 \$ga o'sadi.

g) Rejalashtirilgan investitsiyalar va real SIMning muvozanatlashgan hajmi mos ravishda 4 va 20 \$ga qisqaradi.

9. **7.6a jadvalda** yopiq iqtisodiyot sharoitida real SIMning konkret hajmlariga mos keluvchi jami xarajatlar (iste'mol xarajatlari + rejalashtirilgan sof investitsiyalar) keltirilgan. (mlrd.dol).

**7.6a jadval**

real SIM hajmi	Yopiq iqtisodiyotda jami xarajatlar	Eksport	Import	Sof eksport	Ochiq iqtisodiyotda jami xarajatlar
750	776	90	86		
800	816	90	86		
850	856	90	86		
900	896	90	86		
950	936	90	86		
1000	976	90	86		
1050	1016	90	86		

a) Ochiq iqtisodiyotda mamlakat eksporti va importi hajmi doimiy bo'lib mos ravishda 90 va 86 mlrd.\$ga teng.

SIMning hamma darajasi uchun quyidagilarni hisoblang:

- Sof eksport xajmi;
- Ochiq iqtisodiyotda jami xarajatlar;

Natijalarni 7.6a jadvalga kiriting.

b) Ochiq iqtisodiyotda SIMning muvozanatlashgan hajmini aniqlang.

v) Ochiq iqtisodiyot uchun multiplikatorni hisoblang.

**Javob:**

a) 7.6b jadvalga qarang.

**7.6b jadval**

Sof eksport	Ochiq iqtisodiyotda jami xarajatlar
4	780
4	820
4	860
4	900
4	940
4	940
4	1020

b) 900 mlrd.\$

v) 5.

### **TEST**

#### **1. Keynes nazariyasining klassik nazariyaning siqib chiqarishiga asosiy sabab:**

- a) Keynes nazariyasi iqtisodiyotni uzoq muddatda o'zgarishini tushuntirib berdi;
- b) Keynes nazariyasi iqtisodiyotni qisqa muddatda o'zgarishini tushuntirib berdi;
- v) klassiklar nazariyasi iqtisodiyotni qisqa muddatda o'zgarishini tushuntirib bera olmadi;
- g) Keynes nazariyasi asosiy holatlarni mamlakatda aylanayotgan pul miqdori bilan bog'lamagan;
- d) faqat b) va v) javoblar to'g'ri.

#### **2. Sey qonuni quyidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi:**

- a) quyoshdagi dog'lar, ob-havo sharoitlari va qishloq ho'jaligidagi ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni;
- b) pulga talab va uning taklifi o'rtasidagi bog'liqlikni;
- v) jamg'armalar, investitsiyalar va foiz darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni;
- g) kredit, ishlab chiqarish va mehnat bozori o'rtasidagi bog'liqlikni;
- d) ishlab chiqarish, daromad va xarajat o'rtasidagi bog'liqlikni.

#### **3. To'liq bandlik va barcha resurslardan to'liq foydalanish sharoitida ishlab chiqarish darajasi naqd pul masassiga va narx darajasiga bog'liq emas, degan g'oya kimga aloqador:**

- a) Keynschilik nazariyasiga;
- b) Marksistlar nazariyasiga;
- v) pul miqdori nazariyasiga;

- g) Sey qonuniga;
- d) javoblarning hammasi noto'g'ri.

**4. Dj.M.Keyns klassik makroiqtisodiy nazariyasining qaysi konsepsiyasini tanqid qilgan:**

- a) Sey qonunini;
- b) pul miqdori nazariyasini;
- v) bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini tartibga solish nazariyasini;
- g) yuqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri;
- d) faqat a) va v) javoblar to'g'ri.

**5. Dj.M.Keyns nazariyasiga binoan, quyidagi holda jamg'armalar investitsiyalardan oshishi mumkin:**

- a) foiz stavkasi darajasi o'sib borsa;
- b) iqtisodiyotda uzoq muddat ichida ortiqcha ishlab chiqarish va ishsizlik mavjud bo'lsa;
- v) Sey qonunini amal qilmasa;
- g) bunday iqtisodiyotga ortiqcha ishlab chiqarish va ishsizlik umuman mumkin emas;
- d) faqat b) va v) javoblar to'g'ri.

**6. Iste'mol xarajatlari Keynschilik konsepsiyasiga muvofiq:**

- a) iste'mol xarajatlari ixtiyordagi daromadga bevosita aloqador;
- b) agar ixtiyordagi daromad ortsa, iste'mol xarajatlari kamayadi;
- v) agar ixtiyordagi daromad ortsa, uning iste'molga yo'naltirigan ulushi kamayadi;
- g) yuqoridagi javoblarning hammasi to'g'ri;
- d) faqat a) va v) javoblar to'g'ri.

**7. Ixtiyordagi daromadning o'zgarishi iste'mol xarajatlari hajmini o'zgarishiga olib kelishi g'oyasi quyidagi konsepsiyaga kam darajada aloqador:**

- a) Keynschilikning investitsiyalar nazariyasiga;
- b) Keynschilikning bandlik nazariyasiga;
- v) klassiklarning makroiqtisodiy nazariyasiga;
- g) pul miqdori nazariyasiga;
- d) Keynschilikning iste'mol nazariyasiga.

**8. Keynschilik nazariyasiga muvofiq ishlab chiqarish darajasi jami talab hajmi orqali aniqlanadi. Bu degani:**

- a) daromadni yaratilishi ushbu daromadga talabni keltirib chiqaradi;
- b) pulga bo'lgan talab tadbirkorlarni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga undaydi;

- v) tadbirkorlar ishlab chiqarishni to'liq bandlikka erishkunga qadar kengaytirishga harakat qiladilar;
- g) tadbirkorlar ishlab chiqarishni rejalashtirgan mahsulot hajmi unga mavjud bo'lgan talabga bog'liq;
- d) faqat a) va b) javoblar to'g'ri.

**9. Muvozanatning keynschilik modeliga muvofiq iqtisodiyot quyidagi vaziyatda muvozanatga erishadi:**

- a) iste'mol xarajatlari summasi - jamg'armalar = investitsiyalar;
- b) pul taklifining dinamikasi ma'lum bir davr mobaynida doimiy bo'lsa;
- v) rejalashtirilgan iste'mol xarajatlari + investitsiyalar = umumiy ajratmalar;
- g) davlat budjeti balanslashtirilsa;
- d) jami taklif jami talabga teng bo'lsa.

**10. Dj.M.Keynsning oddiy modelida, agar jami taklif jami talabga teng bo'lsa, unda:**

- a) zahiralar qisqaradi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytirishni boshlaydilar;
- b) zahirada o'zgarish bo'lmaydi, lekin tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytiradilar;
- v) zahiralar o'sadi, tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartirishni boshlaydilar;
- g) zahira hajmi va ishlab chiqarish darajasi o'zgarmaydi;
- d) zahiralar o'zgarmaydi, biroq tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartiradilar.

**Javob:**

1. d; 2. d; 3. a; 4. g; 5. b; 6. d; 7. d; 8. g; 9. d; 10. g.

**8 BOB. IQTISODIYOT MUVOZANATI VA UNI  
BARQARORLASHTIRISH  
TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. Xususiy muvozanatlarning yig'indisi umumiy muvozanatni keltirib chiqaradi.	
2. Chayqovchilarning faoliyati iqtisodiyot uchun foydali va qonuniydir.	
3. «O'rgimchakuyasimon model»ni tuzishdan oldin talabni va taklifni o'zgarmas deb faraz qilishimiz zarur.	

4. Vaqt o'tishi bilan narx muvozanat narxiga qaytsa bu barqaror yoki asimptotik muvozanat deb ataladi.	
5. Davlat «tovar intervensiyasi» bilan umuman shug'ullanmasligi kerak.	
6. Ma'lum bir vaqt ichida oldingi muvozanat bahoga qaytilmasa, boshqa muvozanat baho paydo bo'ladi.	
7. Narxning vaqt davomida o'zgarish dinamikasi davriy tebranish ko'rinishiga ham ega bo'lishi mumkin.	
8. Serhosil va kamhosil yillarda taklifni oshib ketishi va kamayib ketishini chayqovchilar muvozanatlashtiradilar.	
9. Serhosil va kamhosil yillarda talab va muvozanat narxi o'zgarmas deb qabul qilinadi.	
10. Umumiy muvozanatni o'rganish makroiqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biridir.	

### Javob

1.T; 2.N; 3.N; 4.N; 5.N; 6.T; 7.T; 8.T; 9.T; 10.T.

### MASALA

1. Mamlakat iqtisodiyoti quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi: Haqiqiy daromad ( $Y$ ) = 4000 \$. Iste'molga chegaralangan moyillik ( $MPC$ ) = 0,8 Muvozanatli daromad ( $Y^*$ ) = 4200 \$.

a) Iqtisodiyotning muvozanatga erishishi ( $Y = 4200$ )\$ uchun, hukumat xarajatlari (boshqa shartlar o'zgarmas bo'lgan holda) qanday o'zgarishi lozim?

b) iqtisodiyotning muvozanatga erishishi uchun, soliq tushumlari miqdori (boshqa shartlar o'zgarmas bo'lgan holda) qanday o'zgarishi lozim?

### Javob:

a)  $\Delta Y = \Delta G \times \text{xarajatlar multiplikatori}(M)$

$\Delta Y$  – daromadning o'sishi,  $\Delta G$  – davlat xarajatlarining o'sishi).


$Y = Y^* - Y = 4200 \$ - 4000 \$ = 200 \$$ . (MRS – iste'molga chegaralangan moyillik).  $200 = \Delta G \times 5$   $\Delta G = 40$ , ya'ni davlat xarajatlari 40 \$ga ko'payishi lozim.

b)  $\Delta Y = \Delta T \times \text{soliq solish multiplikatori}$  (bunda T – soliqlar).

M soliq solish = - MRS : MPS = -0,8 : 0,2 = - 4 (bunda MRS va MPS, mos ravishda iste'molga va jamg'arishga chegaralangan moyilliklari).  $200 = \Delta T \times (-4)$   $\Delta T = -50$ , ya'ni soliqlar 50 \$ga kamaytirilishi lozim.

2. **8.1-rasmda** jami talab va jami taklif egri chiziqlari aks ettirilgan.

- a) Iqtisodiyot inflyatsiya uzilishini boshidan kechirayapti degan xulosa qilish mumkinmi?
- b) Iqtisodiyot retsessiya uzilishini boshdan kechirayapti degan xulosa qilish mumkinmi?
- v) Agar hukumat soliqlarini kamaytirsa, jami talab va jami taklif egri chizig'ining holati o'zgaradimi? (o'zgarsa qay tariqa?)



8.1-rasm. Jami talab va jami taklif egri chiziqdari

**Javob:**

- a) Yo'q.
- b) Ha.
- v) Ha, jami talab egri chizig'i o'ngga suriladi.

3. Quyidagi tenglamalar tizimi **A** mamlakat iqtisodiyotining narx-navo darajasi doimiy bo'lgandagi oddiy Keynes modelini aks ettiradi (barcha miqdorlar million \$ hisobida):

$$(1) C_d = 200 + 0,8Y_d$$


$$(2) G_{np} = Y_d$$

$$(3) I_d = 160$$

(**C<sub>d</sub>** - kutilayotgan iste'mol xarajatlari, **I<sub>d</sub>** - kutilayotgan investitsiyalar, **Y<sub>d</sub>** - ixtiyordagi daromad, **GDP** - YaIM). Endi bu modelga davlat bo'g'ini qo'shiladi. Davlat xaridlari va soliqlari 500 mln.dol.ga teng. Sof eksport 0 ga teng. Bu holda jami xarajatlar:  $200 + 0,5(GDP - 500) + 160 + 500$  ga teng.

- a) **8.2 rasmda A** mamlakat iqtisodiyoti uchun jami xarajatlar egri chiziqini chizing.
- b) muvozanatli YaIM (**GDP**) xajmini aniqlang va grafikda iqtisodiyotning muvozanat nuqtasini ko'rsating.
- v) multiplikator qiymatini aniqlang.


g) agar davlat xarajatlari 700 mln.dol.ga ko'tarilsa, qolgan barcha xarajatlarning tarkibiy qismlari doimiylikicha qolsa, u holda YaIM (GDP) ning muvozanatli xajmi qay tariqa o'zgaradi?



8.2 rasm.

Javob:

a) 8.3-rasmga qaralsin:



8.3-rasm. Makroiqtisodiy muvozanat

b) 2300 mlrd.\$ (a)ga qaralsin).

v) 5. investitsiyalarning 1 \$ga oshirilishi YaIMning 5 \$ga o'sishiga olib keladi.

g) YaIM 1000 mln.\$ga ko'payadi.

4. **8.1-jadvalda** SIMning real hajmini va sof soliq tushumlari miqdorini (\$ hisobida) aks ettiruvchi ma'lumotlar keltirilgan.

a) SIM o'zgarish sur'atlari bilan soliq tushumlari o'zgarishi o'rtasida (to'g'ri, teskari) bog'liqlik tabiatini aniqlang.

b) faraz qilaylik, investitsiyalar multiplikatori 10 ga teng. Investitsiya xarajatlari hajmi 10 \$ga kamayadi. Soliq tushumlari miqdori o'zgarmasa, muvozanatli SIM hajmi qanchaga qisqaradi? Agar SIM hajmining qisqarishi soliq tushumlari kamayishi bilan birga yuz bersa, javob xuddi yuqoridagidek bo'ladimi?

v) Faraz qilaylik, davlat tomonidan tovar va xizmatlar xarid qilish multiplikatori ham 10 ga teng. Hukumat real SIMning muvozanatli hajmini 50 \$ga ko'paytirishni rejalashtirmoqda. Agar soliq tushumlar miqdori o'zgarmasa, davlat xaridlari hajmini qancha miqdorga oshirish lozim?

Agar muvozanatli SIM darajasining oshishi soliq tushumlari o'sishi bilan yuz bersa, mazkur muvozanatli SIMni rejalashtirilgan darajada ko'paytirish uchun yetarli bo'ladimi?

g) Faraz qilaylik, to'la bandlik sharoitida SIM miqdori 1150 \$ga teng, davlat xaridlari hajmi esa real SIMning barcha darajalarida 200 \$ni tashkil etadi.

Real SIMning har bir darajasidagi davlat budjeti taqchiligi/ortiqchaligi miqdorini hisoblab chiqib, **8.1-jadvalni** to'ldiring (taqchillikni ayiruv belgisi bilan ko'rsating).

**8.1-jadval**

Real SIM	Sof soliq tushumlari	Davlat xaridlari	Budjet taqchiligi (ortiqligi)
850	170		
900	180		
950	190		
1000	200		
1050	210		
1100	220		
1150	230		

d) Mamlakat iqtisodiyoti retsessiya holatidadir (real SIM 900 \$ga teng). Agar hukumat sof soliq tushumlari miqdorini o'zgartirmasa, u holda

davlat xaridlari summasini 70 \$ga oshirib, muvozanatli SIM hajmini 900 \$dan 1150 \$gacha ko'paytirish mumkin.

To'la bandlikka mos keluvchi real SIM hajmi 1150 \$ bo'lganida, \$ga davlat budjeti taqchilligi/ortiqchaligi miqdori qanday bo'ladi?

e) Agar hukumat davlat xaridlari miqdorini o'zgartirmasa, u holda u SIMning barcha qiymatlarida sof soliq tushumlarini 80 \$ga pasaytirib, muvozanatli SIM hajmini 900 \$ni 1150 \$gacha ko'paytirish mumkin.

SIM hajmi 1150 \$ bo'lganda, davlat budjeti taqchiligi/ortiqchaligi miqdori qanday bo'ladi.

**Javob:**

a) to'g'ri chiziq.

b) 100 \$ga; yo'q, YaIM hajmining qisqarishi bu holda kamroq bo'ladi.

v) 5 \$ga; yo'q, u kamroq bo'ladi.

g)

**8.2-jadval**

Real SIM	Sof soliq tushumlari	Davlat xaridlari	Budjet taqchiligi (ortiqligi)
850	170	200	-30
900	180	200	-20
950	190	200	-10
1000	200	200	0
1050	210	200	+10
1100	220	200	+20
1150	230	200	+30

d) budjet taqchilligi 40 \$ Bo'ladi.

e) budjet taqchilligi 50 \$ga teng bo'ladi.

5. **8.3-jadval**da sof milliy mahsulotning aniq darajalariga mos keladigan iste'mol xarajatlari va jamg'armalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan (mln.\$).

(**S** - iste'mol xarajatlari, **S** - jamg'armalar, **Ca** va **Sa** - mos ravishda soliq to'langandan keyin iste'mol xarajatlari va jamg'armalar, **M** - import, **T** - soliqlar, **G** - davlat xarajatlari, **X** va **Xn** - mos ravishda eksport va sof eksport).

a) Hukumat soliqlari 100 mln.\$, import 5 mln.\$ga teng. SIMning har bir darajasida soliqlar to'langandan keyingi iste'mol xarajatlari va jamg'armalar miqdori qancha bo'lishini hisoblang. 6.2-jadvaldagi tegishli ustunlarni to'ldiring.

### 8.3-jadval

Real SIM	C	S	Ca	Sa	Sa+M+T	I+X+G	Ca+I+Xn+G
1500	1250	250					
1600	1340	260					
1700	1430	270					
1800	1520	280					
1900	1610	290					
2000	1700	300					
2100	1790	310					

b) Chiqim miqdorini hisoblab chiqing:  $(Sa + M + T)$  va **8.3-jadval**dagi tegishli ustunni to'ldiring.

v) Rejadagi investitsiyalar 150 mln.\$ga, eksport 5 mln.\$ga teng. Kirimlar miqdorini hisoblab chiqing:  $(I + X + G)$  va jadvaldagi tegishli ustunni to'ldiring. Jami xarajatlarni hisoblab chiqing:  $(Ca + I + X + G)$  va **8.3-jadval**dagi tegishli ustunni to'ldiring.

g) Muvozanatli real SIM hajmini hisoblang.

d) Soliq to'lovlari hajmi ilgaridagidek qolsa, hukumat xaridlari esa 10 mln.\$ga ko'paysa, muvozanatli SIM hajmi qay tariqa o'zgaradi?

e) Agar davlat xaridlari ilgaridagidek 200 mln.\$ga teng, soliq to'lovlari esa 100 mln.\$dan 200 mln.\$gacha ko'paygan bo'lsa, muvozanatli SIM hajmi qay tariqa o'zgaradi?

j) Bir vaqtning o'zida davlat xaridlari ham, soliqlar ham 10 mln.\$ga oshsa, muvozanatli SIM hajmi qay tariqa o'zgaradi?

#### Javob:

a) **MRS** = 0,9, shu sababli 100 mln.\$li soliqlar **Sa** ni **S** ga qaraganda 90 mln.\$ga qisqartiradi. Har bir real **SIM** darajasiga muvofiq keluvchi **Sa** (mln.\$ hisobida): 1160, 1250, 1340, 1430, 1520, 1610, 1700 ga teng.

**MPS** = 0,1. Har bir real **SIM** darajasiga muvofiq keluvchi **Sa** (mln.\$ hisobida): 240, 250, 260, 270, 280, 290, 300 ga teng.

b) Har bir real **SIM** darajasiga muvofiq keluvchi **Sa + M + T** (mln.\$ hisobida): 345, 355, 365, 375, 385, 395, 405 ga teng.

v) **I+X+G** real **SIM** hamma darajalari uchun 355 mln.\$ga teng.

Har bir real **SIM** darajasiga muvofiq keluvchi **Ca+I+Xn+G** (mln.\$ hisobida): 1510, 1600, 1690, 1780, 1870, 1960, 2050 ga teng.

g) SIM 160 mln.\$ga teng.

d) 100 mln.\$ga ko'payadi.

e) 90 mln.\$ga pasayadi

j) 10 mln.\$ga ko'payadi.

**8.4-jadval**


Real SIM	C	S	Ca	Sa	Sa+M+T	I+X+G	Ca+I+Xn+G
1500	1250	250	1160	240	345	355	1510
1600	1340	260	1250	250	355	355	1600
1700	1430	270	1340	260	365	355	1690
1800	1520	280	1430	270	375	355	1780
1900	1610	290	1520	280	385	355	1870
2000	1700	300	1610	290	395	355	1960
2100	1790	310	1700	300	405	355	2050

6. A mamlakatdagi iste'mol funksiyasi quydagicha ko'rinishga ega:

Ixtiyoridagi daromad (DI) (mlrd.\$)	900	1000	1100	1200	1300	1400
Ixtiyordagi xarajatlari (S) (mlrd.\$)	750	800	850	900	950	1000


a) Aytaylik, rejadagi investitsiyalar (I) 200 mlrd.\$ni tashkil etadi, davlat xarajatlari va sof eksport esa birgalikda ( $G + X_n$ ) 100 mlrd.\$ga teng.

**8.4-rasm**da jami xarajatlar egri chizig'ini ( $C + I + G + X_n$ ) chizing va koordinata boshidan  $45^\circ$  burchakli to'g'ri chiziq o'tkazing.



**8.4-rasm.** Jami xarajatlar egri chizig'i


- b) YaIMning muvozanatli hajmini aniqlang (narx darajasi o'zgarmaydi).
- v) Aytaylik, YaIM darajasi to'la bandlik sharoitida 1400 mlrd.\$ni tashkil etadi. Bunday holda jami xarajat bilan YaIM o'rtasida to'la bandlik sharoitida qanday uzilish ro'y beradi, inflyatsiyalimi yoki retsessiyalimi?
- g) Hukumat to'la bandlikka erishish uchun qanday chora-tadbirlarni qo'llashi mumkin.
- d) Davlat xarajatlarning 1 mlrd.\$ga ortishi YaIMning muvozanatli hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- e) Davlat xarajatlarning 1 mlrd.\$ga qisqarishi YaIMning muvozanatli hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- j) **8.5-rasm**da soliqlar miqdori YaIM hajmining 10%ini tashkil etgan sharoitdagi iste'mol xarajatlari chizig'ini chizing. Aytaylik, rejadagi investitsiyalar 200 mlrd.\$ga, hukumat xarajatlari va sof eksport birgalikda 100 mlrd.\$ga teng. Rasmda  $C + J + G + Xn$  egri chizig'ini chizing va koordinata boshidan  $45^\circ$  burchakli to'g'ri chiziq o'tkazing. YaIMning muvozanati hajmini aniqlang.
- z) Boshqa teng shartlarda, agar soliqlar darajasi (1) oshsa yoki (2) kamaysa, YaIMning muvozanatli hajmi qanday o'zgaradi?



**8.5-rasm.** Iste'mol va jami xarajatlar egri chizig'i

**Javob:**

a) **8.6-rasm**ga qaralsin.



**8.6-rasm.** Jami xarajatlar egri chizig'i

b) 1200 mlrd.\$


v) 100 mlrd.\$ga teng retsessiyali uzilish.

g) hukumat davlat xarajatlarini ko'paytirishi va xususiy kapital faoliyatini rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ko'rishi mumkin.

d) davlat xarajatlarining o'sishi muvozanatli YaIMni 2 mlrd.\$ga ko'paytiradi.

e) davlat xarajatlarining qisqarishi muvozanatli YaIMni 2 mlrd.\$ga kamayib ketishiga olib keladi.

j) **8.7-rasm**ga qaralsin. Muvozanatli YaIM 1091 mlrd.\$ga teng.



8.7-rasm. Iste'mol va jami xarajatlar egri chizig'i

z) (1) YaIMning muvozanatli hajmi pasayadi; (2) YaIMning muvozanatli hajmi ko'tariladi.

7. Iqtisodiyot modeli quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

$$(1) C_d = 1000 + 0,9Y_d$$

$$(2) G = 600$$

$$(3) I_d = 390$$

$$(4) T = 400$$

$$(5) Y_d = GNP - T$$

$$(6) B = T - G$$

$$(7) X - M = 0$$

bunda **C<sub>d</sub>** - rejalashtirilayotgan iste'mol xarajatlari, **G** - davlat xarajatlari, **I<sub>d</sub>** - rejalashtirilayotgan investitsiyalar, **T** - soliqlar, **Y<sub>d</sub>** - ixtiyordagi daromad, **B** - davlat budjeti taqchiligi yoki ortiqchaligi, **X** - eksport, **M** - import, **GDP** - yalpi milliy mahsulot.

a) Muvozanatli **GDP** ni hisoblang.

b) Davlat xarajatlari multiplikatorini hisoblang.

v) Soliqlar 1 \$ga o'sishining **GDP** miqdoriga ta'sirini hisoblang.

g) Muvozanatli **GDP** da jamg'armalar xajmini hisoblang.

d) Agar to'la bandlik sharoitida **GDP** 15000 mlrd.\$ga teng bo'lsa, inflyatsiya uzilishini hisoblang.

e) To'la bandlik sharoitidagi jamg'armalar hajmini hisoblang.

j) Agar to'la bandlik darajasiga erishish vazifasi qo'yilsa, soliqlar doimiy bo'lganda, davlat xarajatlari qay tariqa o'zgarishi lozim?

**Javob:**

- a) 16300 mln.\$
- b) 10.
- v) -9 \$
- g) 590 mln.\$
- d) 130 mln.\$
- g) 460 mln.\$
- g) 470 mln.\$

## **TEST**

### **1. Bozor muvozanati deganda:**

- a) bozorda muvozanatning mavjudligi yoki buzilganligi tushuniladi;
- b) bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkiban bir-biriga muvofiq kelishi tushuniladi;
- v) mazkur bozor tarkibida amal qiluvchi bo'g'inlar tushuniladi;
- g) bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi turli sohalar tushuniladi;
- d) pul bozoridagi talab va taklifning muvozanati.

### **2. Bozor tarkibi deganda:**

- a) bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi turli sohalar tushuniladi;
- b) bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkiban bir-biriga muvofiq kelishi tushuniladi;
- v) bozor muvozanatining mavjudligi yoki buzilganligi tushuniladi;
- g) bozordagi talab va taklif miqdoran va tarkiban bir-biriga nomuvofiq kelishi tushuniladi;
- d) barcha bozor va nobozor omillarining yig'indisi tushuniladi.

### **3. Quyidagilarning qaysi biri mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etmaydi?**

- a) texnologik o'zgarishlar;
- b) ishchilar sonining ortishi;
- v) ishchilarning bilim va malakasi darajasi;
- g) ishlab chiqarish masshtabi samarasi;
- d) ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi.

### **4. Muvozanat nafillik holatiga erishish uchun iste'molchi nima qilishi zarur?**

- a) Oliy kategoriyali mahsulotlarni sotib olishi kerak;

- b) Sifatsiz tovarlarni harid qilmasligi kerak;
- v) Tovar uchun sarflanayotgan bir birlik puldan olinayotgan naflilik boshqa tovardan ham bir birlik pul evaziga olinadigan naflilikka teng bo'lishi zarur;
- g) Tovarlarining chekli nafliligi har bir tovar narxiga teng bo'lishiga ishonch hosil qilishi kerak;
- d)\* Tovar uchun sarflanayotgan bir birlik puldan olinayotgan chekli naflilik boshqa tovardan ham bir birlik pul evaziga olinadigan chekli naflilikka teng bo'lishi zarur.

### **5. Bozor narxi muvozanat narxdan yuqori bo'lganda qanday holat yuz beradi?**

- a) \*tovar ortiqchaligi paydo bo'ladi;
- b) tovar tanqisligi yuz beradi;
- v) istemolchilar bozori shakllanadi;
- g) resurslar narxi arzonlashadi;
- d) korxonalar tarmoqni tark etadi.

### **6. Quyidagilarning qaysi birida bozor muvozanatiga erishiladi?**

- a) Pulga bo'lgan talab oshganda;
- b) Taklif talabga nisbatan qisman o'zgargan holatda;
- v) \*Talab va taklif bir-biriga miqdor va tarkib jihatdan moslashganda;
- g) Iste'mol, davlat investitsiya xarajatlari, sof eksportda o'zgarishlar sodir bo'lganda;
- d) iqtisodiyotda talabning keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish imkoni bo'lmay qolganda.

### **7. Makroiqtisodiy muvozanat – bu...**

- a)\*Tovar va xizmatlar bozoridagi, pul bozoridagi hamda sarmoya va mehnat bozoridagi muvozanat;
- b) Tovar va xizmatlar bozoridagi cheklangan muvozanat;
- v) Ixtiyordagi daromad va iste'mol xarajatlari o'rtasidagi muvozanat;
- g) Sarmoyalar o'rtasidagi muvozanat;
- d) Pul bozoridagi muvozanat.

### **8. Mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi.**

- a) O'rmalovchi inflyatsiya;
- b) \*Taklif inflyatsiyasi;
- v) Talab inflyatsiyasi;
- g) Giperinflyatsiya;

d) Investitsiyaviy inflyatsiya.

**9. Makroiqtisodiyotda aholiga to'lanadigan nafaqalar, stipendiyalar qanday atama bilan nomlanadi?**

- a) Subsidiyalar;
- b) Bojlar;
- v) \*Transfertlar to'lovlari;
- g) Yordam pullari;
- d) Majburiy to'livlar.

**10. Makroiqtisodiy siyosatning muhim vazifalari nimalardan iborat?**

- a) \*Makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash;
- b) Iqtisodiy o'sishni oshirish;
- v) Makroiqtisodiy beqarorlikni ta'minlash;
- g) Pul massasi va pul aylanish tezligini oshirish;
- d) Aholi farovonligini oshirish.

**Javob:**

1. b; 2. a; 3. b; 4. d; 5. a; 6. v; 7. a; 8. b; 9. v; 10. a;

**9 BOB. IQTISODIY O'SISH. IQTISODIYOTNING SIKLIK  
TEBRANISHI**

**TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. Iqtisodiy o'sish va pasayish hodisalarini o'z ichiga oluvchi davr iqtisodiy o'sish sikli deyiladi.	
2. Iqtisodiyotdagi tebranishlarning paydo bo'lishiga asosiy sabab iqtisodning qoloqligi.	
3. Iqtisodiy siklning quyidagi 4 fazasi mavjud: 1) pasayish, 2) o'sish cho'qqisi, 3) turg'unlik, 4) depressiya.	
4. Iqtisodiy siklning o'sish fazasida ishlab chiqarish pasayadi, ishsizlik ortib boradi.	
5. Pasayish fazasida iqtisodiy inqiroz yuz beradi.	
6. Turg'unlik fazasida iqtisodga qilinayotgan investitsiyalar o'sib boradi.	
7. Uzoq yillar davomida qaytarilib turadigan sikllar yirik iqtisodiy sikllar deb ataladi.	

8. Jami taklifning jami talabdan goh kamayib ketishi, goh o'sib ketishi yirik iqtisodiy sikllarning yuz berishiga sabab bo'ladi.	
9. Iqtisodiy o'sish milliy iqtisodning rivojlanish darajasini ko'rsatadi.	
10. Iqtisodiy o'sish 2 usul bilan aniqlanadi: real YaIM (YaIM)ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishini aniqlash va SIMni o'sish darajasini aniqlash.	
11. Bazis va zanjirli iqtisodiy o'sish sur'atlari hisob-kitob qilinadi.	
12. Iqtisodiy davr deb o'sish holatida ishlab chiqarishni vaqti-vaqti bilan kengayishi va qisqarishidir.	
13. Qisqa iqtisodiy davr 1-5 yilga tengdir.	
14. Kuznets davrida uy-joylar va ba'zi inshootlar yangilanadi.	
15. Kondratev davri 50-60 yil bo'lib uni uzun to'lqinlar deb atashadi.	
16. Iqtisodiy o'sish uchun sharoit tayyorlash davlatning muhim vazifasidir.	
17. Iqtisodiy o'sish salbiy oqibatlariga ham olib kelishi mumkin.	
18. Iqtisodiy o'sishga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: kapital, mehnat va tadbirkorlik qobiliyati.	
19. Iqtisodiy o'sishga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil bu – kapitaldir.	
20. Iqtisodiy o'sish omillarining o'sish sur'atlarini yig'indisi asosida tuzilgan model Solou modeli deb ataladi.	
21. Davlat iqtisodiy o'sishga quyidagi vositalar yordamida ta'sir ko'rsatadi: fan va texnikani qo'llab-quvvatlash, kadrlarni tayyorlash, soliq tizimini qayta qurish.	

### Javob

1.T; 2.N; 3.N; 4.N; 5.T; 6.T; 7.T; 8.T; 9.T; 10.N; 11.T; 12.T; 13.N; 14.T; 15.T; 16.T; 17.T; 18.N; 19.N; 20.T; 21.T.

### MASALA

1. **9.1a jadvalda** berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlang:

#### 9.1a jadval

Yil	Aholi (mln.kishi)	real YaIM hajmi (mlrd.\$)	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmi (\$)
1	30	9	
2	60	24	

3	90	45	
4	120	66	
5	150	90	
6	180	99	
7	210	105	

- a) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmi (jadvalga kiriting).  
b) mamlakat aholisining optimal miqdori.  
v) 1-chi yilga nisbatan 2-chi yilda YaIMning absolyut o'sish hajmi.  
g) 3-chi yilga nisbatan 4-chi yilda YaIM o'sish sur'ati (%da).  
d) 6-yilga nisbatan 7-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIMning o'sish sur'ati (%da).

**Javob:**

a) **9.1b jadvalga** qarang:

**9.1b jadval**

Yil	Aholi (mln.kishi)	real YaIM hajmi (mlrd.\$)	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmi (\$)
1	30	9	300
2	60	24	400
3	90	45	500
4	120	66	550
5	150	90	600
6	180	99	550
7	210	105	500

- b) 150 mln.kishi.  
v) 15 mlrd.\$  
g) 46,7%.  
d) -9,1%.

2. **9.2a jadvalda** berilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagilarni aniqlang:

**9.2a jadval**

Yil	Mehnat miqdori (soat)	Mehnat unumdorligi (\$)	real YaIM hajmi (\$)
1	1000	100	
2	1000	105	
3	1100	105	

- a) har bir yil uchun real YaIM hajmi (jadvalga kiriting).  
b) 1-yilga nisbatan 2-yilda mehnat unumdorligi nega foizga o'sdi? Buning natijasida real YaIM hajmi necha foizga o'sdi (mehnat unumdorligi o'zgarmagan holda)?

v) 2-yilga nisbatan 3-yilda mehnat miqdori nega foizga usdi? Buning natijasida real YaIM hajmi necha foizga o'sdi (mehnat unumdorligi o'zgarmagan holda)?

g) 1-yilga nisbatan 3-yilda real YaIM hajmi nega foizga o'sdi?

**Javob:**

a) **9.2b jadvalga** qarang:

**9.2b jadval**

Yil	Mehnat miqdori (soat)	Mehnat unumdorligi (\$)	real YaIM hajmi (\$)
1	1000	100	100 000
2	1000	105	105 000
3	1100	105	115 500

b) 5%; 5%.

v) 10%; 10%.

g) 15,5%.

## TEST

**1. Iqtisodiy siklikning bosqichlari qaysi ketma-ketlikda to'g'ri berilgan?**

a) turg'unlik, jonlanish, pasayish, cho'qqi;

b) cho'qqi, jonlanish, turg'unlik, pasayish;

v) jonlanish, turg'unlik, cho'qqi, pasayish;

g) pasayish, turg'unlik, jonlanish, cho'qqi;

d) cho'qqi, pasayish, turg'unlik, jonlanish:

**2. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy sababi nimada?**

a) ish vaqti hajmini ortishi;

b) ishlab chiqarishda texnologik o'zgarishlarning ro'y berishi;

v) kapital qo'yilmalar hajmini ko'payishi;

g) pul-kredit va fiskal siyosatning amalga oshirilishi;

d) ish kuchining malakasining ortishi.

**3. Real YaIMning va kishi boshiga to'g'ri keladigan real YaIMning o'sishi to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagini anglatadi:**

a) kishi boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmining o'sish sur'ati jami real YaIM hajmining o'sish sur'atiga qaraganda tezroq ekanligini;

b) iqtisodiy o'sishni kamaytiradi, chunki ushbu ma'lumotlar atrof-muhitni zarar ko'rish omilini hisobga olmaydilar;

v) iqtisodiy o'sishni kamaytiradi, chunki ushbu ma'lumotlar ish vaqtini qisqarishi mavjudligini hisobga olmaydilar;

- g) iqtisodiy o'sishni ko'paytiradi, chunki ushbu ma'lumotlar turmush tarzini yaxshilanganligini hisobga olmaydilar;
- d) real YaIM hajmining o'sish sur'ati nominal YaIM hajmining o'sish sur'atiga qaraganda tezroq ekanligini;

**4. Mehnat unumdorligi quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:**

- a) kapital xarajatlarini mehnatga bo'lgan xarajatlarga;
- b) mahsulotning real hajmini ish vaqtining miqdoriga;
- v) mahsulotning real hajmini aholi soniga;
- g) ish vaqtining miqdorini real YaIM hajmiga;
- d) kapital xarajatlarini mahsulotning real hajmiga.

**5. Quyidagilarning qaysi biri mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etmaydi?**

- a) texnologik o'zgarishlar;
- b) ishchilar sonining ortishi;
- v) ishchilarning bilim va malakasi darajasi;
- g) ishlab chiqarish masshtabi samarasi;
- d) ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi.

**6. To'liq bandlik bilan xarakterlanidigan iqtisodiyotda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'ati quyidagini talab qiladi?**

- a) jamg'armalarning past normasini va investitsiyalarning past normasini;
- b) jamg'armalarning yuqori normasini va investitsiyalarning past normasini;
- v) jamg'armalarning yuqori normasini va investitsiyalarning yuqori normasini;
- g) jamg'arma va investitsiyalarining normasining pasayishini;
- d) jamg'armalarning past normasini va investitsiyalarning yuqori normasini.

**7. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar statistikasi shuni ko'rsatadiki:**

- a) YaIM dagi investitsiyalar ulushi va mehnat unumdorligini o'sish sur'ati teskari proporsional;
- b) YaIM dagi investitsiyalar ulushi va mehnat unumdorligini o'sish sur'atlari o'rtasida to'g'ri va izchil bog'liqlik mavjud;
- v) korporatsiyalardan olinadigan daromad solig'i va shaxsiy daromad solig'ining yuqori chegaradagi stavkalari investitsiyalarning ko'payishiga olib keladi;

- g) ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitda yangi ish o'rinlari tashkil etilmaydi;
- d) ish bilan bandlarni qisqartirish o'rtacha mehnat unumdorligini pasayishiga olib keladi.

**8. Iqtisodiy sikl quyidagiga bog'liq:**

- a) tashqi omillar ta'siriga;
- b) ichki omillar ta'siriga;
- v) asosan jami talab dinamikasiga ta'sir qiluvchi omillarga;
- g) asosan taklif dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarga;
- d) faqat tasodifiy siyosiy omillarga.

**9. Iqtisodiy siklga quyidagi o'zgarish katta ta'sir etadi:**

- a) tovar-moddiy zahiralarning ko'payishiga yo'naltirilgan sof investitsiyalar;
- b) uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sof investitsiyalar;
- v) iste'mol xarajatlari;
- g) davlat xarajatlari;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**Javob:**

1. g; 2. b; 3. v; 4. b; 5. b; 6. v; 7. b; 8. v (keyns nazariyasiga binoan); 9. b.

**10 BOB. ISTE'MOL, JAMG'ARMA VA INVESTISIYA FUNKSIYALARI**

**TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. Iste'mol bozori – iste'mol uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan joy.	
2. Iste'mol bozori holatiga qarab 2 xil bo'ladi: to'yinmagan va taqchil.	
3. Pirovard iste'molda tovar va xizmatlar to'la iste'mol qilinadi.	
4. Jamg'arma-bu daromadning iste'mol maqsadida ishlatiladigan qismidir.	
5. $DI=C+S$ bo'lganligi sababli $S=DI-C$ .	
6. Daromad o'sib borgan sari jamg'arish o'sib boradi.	
7. Daromadning o'sgan qismi iste'mol qilinsa chegaralangan iste'molga moyillik deb ataladi.	
8. Investitsiya sof xarajatlarning asosiy qismidir.	

9. Investitsiyalarni sarflanishiga 2ta asosiy omil ta'sir ko'rsatadi: foyda normasi va aholi boyligi darajasi.	
10. Agar iste'mol funksiyasi ma'lum bo'lsa, jamg'arma funksiyasi grafigini tuzish imkoni bordir.	
11. Daromadning o'sishi investitsiyalarni ortishni rag'batlantiriladi.	
12. Ixtiyordagi daromadan iste'moldagi xarajatlarning ayirmasi jamg'armalarga tengdir.	

**Javob**

1.T; 2.N; 3.T; 4.N; 5.T; 6.T; 7.T; 8.T; 9.N; 10.T; 11.T; 12.T.

**MASALA**

1. «A» malakatining iqtisodiyotida investitsiyalar funksiyasi  $I=40+0,4Y$  tenglamasi bilan, jamg'armalar funksiyasi esa  $S=-20+0,6Y$  tenglamasi bilan aniqlanadi, bu yerda  $Y$  – milliy daromad. Mamlakatdagi muvozanatlashgan  $Y$ ni aniqlang.

**Javob:**

$$Y = 300$$

2. Agar jamg'armalar funksiyasi  $S=-30+0,1Y$  formulasi bilan ifodalansa, avtonom investitsiyalar 125 tashkil etsa,  $Y$ ning muvozanatlashgan darajasi nimani tashkil etadi?

**Javob:**

$$Y = 1550$$

3. Iste'mol funksiyasi  $S=100+0,8 Y$  ko'rinishga ega.

a) quyidagi daromad ko'rsatkichlarida iste'mol xarajatlari va jamg'armalarini aniqlang:

daromad	iste'mol xarajatlari	jamg'armalar
600		
800		
1000		
1200		
1400		

b) iste'mol grafigini chizing.

v) chegaralangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armaga moyillikni hisoblang.


g) xarajatlar multiplikatorini aniqlang.

**Javob:**

a)

daromad	iste'mol xarajatlari	jamg'armalar
600	480	120
800	640	160
1000	800	200
1200	960	240
1400	1120	280

b)



v) **MRS** = 0,8; **MPS** = 0,2.

g) 5

4. Iste'mol funksiyasi  $S=80+0,5 Y$  ko'rinishga ega.

a) jadvalni to'ldiring:

daromad	Iste'mol	Jamg'armalar
0		
100		
200		
300		
400		
500		

b) Iste'mol grafigini chizing.


v)  $45^\circ$  dagi chiziqni chizing. Ixtiyordagi daromadning qanday darajasida iste'mol harakatlari uning hajmiga qaraganda kamroq, teng va ko'proq bo'lishini hisoblang.

**Javob:**

a)

daromad	Iste'mol	Jamg'armalar
0	80	-80
100	130	-30
200	180	20
300	230	70

400	280	120
500	330	170



v) grafik yoki formula yordamida aniqlash mumkin:  $S=Y$ , unda  $Y=80+0,5Y$ ,  $Y=160$ .  $0<Y<160$  oralig'ida iste'mol hajmi ixtiyordagi daromaddan katta bo'ladi, 160 - keyin ixtiyordagi daromaddan kichik bo'ladi.

5. Iste'mol funksiyasi  $S=100+0,2Y$  ko'rinishga ega.


a) iste'mol grafigini chizing.


b) jamg'arma grafigini chizing.

v)  $Y$  (milliy daromad)ning muvozanatlashgan hajmini aniqlang.

g) xarajatlar multiplikatori kattaligini aniqlang.

**Javob:**





- v) 125  
g) 1,25

## TEST

### 1. Iste'molga chegaralangan moyillik - bu:

- a) jami iste'molning jami daromadga nisbati;
- b) daromad o'zgarishi oqibatida iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar;
- v) daromadning berilgan darajasida iste'mol xarajatlari miqdorini ifodalovchi egri chiziq;
- g) iste'mol xarajatlari o'sishining ixtiyordagi daromad o'sishi birligiga nisbati;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

### 2. Iste'molga va jamg'armaga chegaralangan moyillik o'rtasidagi bog'liqlik quyidagida o'z ifodasini topadi:

- a) ularning yig'indisi 1 ga teng;
- b) ular o'rtasidagi nisbat iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillikni ifodalaydi;
- v) ularning yig'indisi ixtiyordagi daromadga teng, chunki u iste'mol va jamg'armaga bo'linadi;
- g) ular teng bo'lgan egri chizikdagi nuqta daromadning chegaraviy (boshlang'ich) darajasiga mos keladi;
- d) ularning yig'indisi 0 ga teng.

### 3. Agar kishilar o'z daromadlarinint barchasini iste'molga sarflamay, xarajat qilinmagan qismini bankka joylashtirsa, unda (daromad va mahsulotning milliy hisobi atamasini qo'llab) ularning bu ishlari haqida nima deyish mumkin:

- a) jamg'aradilar, biroq investitsiya qilmaydilar;

- b) investitsiya qiladilar, biroq jamg'armaydilar;
- v) jamg'armaydilar va investitsiya qilmaydilar;
- g) ham jamg'aradilar, ham investitsiya qiladilar;
- d) jamg'aradilar, biroq qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun foydalaniladigan jamg'arma qismini investitsiya qiladilar.

**4. «Yakka tartibdagi jamg'armalar» milliy hisoblar tizimida qo'llanuvchi atama sifatida nimani anglatadi?**

- a) oila barcha aktivlarining umumiy miqdori;
- b) qandaydir davrda olingan va iste'molga ishlatilmagan daromad;
- v) oilaning uning majburiyatlari chegirib tashlangandan keyin qolgan barcha aktivlarining umumiy miqdori;
- g) ma'lum davrda olingan va faqat qimmatli qog'ozlar sotib olishga ishlatilgan yoki bankka joylashtirilgan daromad;
- d) qandaydir davrda olingan, iste'mol uchun ham, qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun ham ishlatilmagan, shuningdek bankka ham joylashtirilmagan daromad.

**5. Yakka tartibdagi iste'mol funksiyasining «boshlang'ich darajasi» nuqtasida:**

- a) jamg'arma daromadga teng;
- b) daromad iste'molga teng;
- v) jamg'arma iste'molga teng;
- g) iste'mol investitsiyalarga teng;
- d) iste'molga chegaralangan moyillik 1 ga teng.

**6. Sanab o'tilganlardan qaysi biri milliy hisoblar tizimidagi «investitsiyalar» tushunchasiga taalluqli:**

- a) har qanday obligatsiya sotib olish;
- b) jamg'armaga yo'naltirilmagan jamg'arilgan daromadning har qanday miqdori;
- v) har qanday aksiya sotib olish;
- g) barcha javoblar noto'g'ri;
- d) «a», «b» va «v» javoblar to'g'ri.

**7. Quyidagi bog'likliklardan qaysi biri teskari bog'liklikni ifodalaydi?**

- a) iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'liklik;
- b) investitsiya xarajatlari va foiz stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'liklik;
- v) jamg'armalar va iste'mol stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- g) investitsiya xarajatlari va milliy daromad o'rtasidagi bog'liqlik;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**8. Agar ixtiyordagi daromad hajmi mamlakatda oshsa, unda:**

- a) iste'molga va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik o'sadi;
- b) iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik o'sadi, jamg'armaga bo'lgani esa pasayadi;
- v) iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik pasayadi, jamg'armaga bo'lgani esa o'sadi;
- g) iste'molga va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik pasayadi;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**9. Quyidagi bog'liqliklardan qay biri to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi?**

- a) iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'iklik;
- b) jamg'armalar va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi bog'iklik;
- v) jamg'armalar va foiz stavkasi darajasi o'rtasidagi bog'iklik;
- g) iste'mol xarajatlari va ahli soni o'rtasidagi bog'iklik;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**10. Quyidagilardan qay biri bog'liq bo'lmagan xarajatlar o'sishini aks ettiradi?**

- a) iste'mol funksiyasi egri chizig'ining yuqoriga siljishi;
- b) SIM ko'payishiga qarab investitsiyalarning o'sishi;
- v) iste'mol funksiyasi egri chizig'i bo'ylab yuqoriga harakat;
- g) iste'mol funksiyasi egri chizig'i bo'ylab pastga harakat;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

**11. Ixtiyordagi daromadning berilgan darajasida jamg'armaga va iste'molga cheklangan moyillik miqdorlarining yig'indisi:**

- a) 0 ga teng;
- b) 1 ga teng;
- v) 100 ga teng;
- g) 1000 ga teng;
- d) 10000 ga teng.

**12. Agar real foiz stavkasi ko'paysa, unda:**

- a) investitsiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- b) investitsiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i chapga siljiydi;
- v) investitsiyalarga bo'lgan talab egri chizig'i yuqoriga ko'chadi;
- g) investitsiya xarajatlari qisqaradi;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**Javob:**

1. g; 2. a; 3. a; 4. b; 5. b; 6. g; 7. b; 8. v; 9. d; 10. a; 11. b; 12. g.

## 11 BOB. TOVAR VA XIZMATLAR BOZORIDAGI MUVOZANAT

### TO'G'RI / NOTO'G'RI


1. Barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyotda haqiqatdan sarf qilinayotgan xarajatlar rejalashtirilayotgan xarajatlarga teng bo'ladi.	
2. Zahiralar iqtisodiyotni muvozanat holatiga intilishida muhim rol o'ynaydi.	
3. Zahiralar kamayib borsa firmalar ishlab chiqarishni qisqartirishga majbur bo'ladilar va daromadlar kamayib boradi.	
4. Keynesian xochi-bu qisqa davrda daromadlar va rejalashtirilayotgan xarajatlarni o'zaro bog'liqligini soddalashtirilgan tasviri.	
5. Davlat xarajatlarini qo'shimcha o'sishini ( $\Delta G$ ) daromadlarning qo'shimcha o'sishiga ( $\Delta Y$ ) nisbati ( $\Delta G/\Delta Y$ ) davlat xarajatlarining multiplikatori deb ataladi.	
6. Davlat xarajatlari multiplikatori davlat xarajatlari bir miqdorga ko'payganda muvozanatli daromad qanchaga ko'payganligini bildiradi.	
7. Soliqlarni o'zgarishi ( $\Delta T$ ) daromad va iste'molga teskari ta'sir ko'rsatadi.	
8. Banklarning foiz stavkasini o'sishi firmalarning investitsiyaga bo'lgan talabini oshiradi.	
9. Firmalarning daromadlari ko'payib borishi bilan ularning jamg'armalari ham ko'payib boradi.	
10. Banklarning foiz stavkasi pasayib borishi bilan YaIM ishlab chiqarish ko'payib boradi.	
11. <b>IS</b> egri chizig'i Xeyk egri chizig'i deb ataladi.	

#### Javob

1.T; 2.T; 3.N; 4.T; 5.N; 6.T; 7.T; 8.N; 9.T; 10.T; 11.T.

#### MASALA

1. Grafikda mashhur «Keynsian xochi» keltirilgan. Bu model makroiqtisodiy muvozanatga erishish imkoniyatlari namoyon etadi:



«Keynsian xochi» qaysi koordinata tizimida tuzilgan? Bissektrisa va uni kesib o'tuvchi egri chiziq nimani bildiradi? Ushbu egri chiziqlarni qaysi birini jami talab va qaysi birini jami taklif qilib asoslab berishingiz mumkin? Nima uchun?

**Javob:**

Absissa o'qi – milliy daromad; ordinata o'qi – jami xarajatlar; bissektrisa aholi xarajatlarini ularning daromadlariga mos tushganligini ifodalovchi nuqtalarning geometrik joyini anglatadi; qavariq egri chiziq olingan milliy daromadning haqiqatdagi xarajatini anglatadi.

Bissektrisani jami talab deb ham tasavvur etish mumkin (chunki milliy daromad=milliy mahsulot); bissektrisani kesib o'tuvchi egri chiziqni jami talab deb tasavvur etish mumkin (bu jami xarajatlarning o'zi).

2. Iste'mol va jamg'armalar grafiklari o'rtasida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud:

a) og'ish burchagi nuqtai nazaridan (agar **S** chizig'ining burchagi o'zgarsa **S** chizig'ining og'ish burchagi qanday o'zgaradi)?


b) egri chiziqlarning o'zaro joylashishi nuqtai nazaridan (agar **S** chizig'i yuqori yoki pastga siljisa **S** chizig'i qanday o'zgaradi)?

**Javob:**

a) agar simmetriya o'qi sifatida  $45^\circ$  chiziqni tasavvur etsak, **S** va **C** grafiklari huddi oynadagi bir-birini aksiga o'xshash o'zaro bog'liq bo'ladi.

b) ixtiyordagi daromad = iste'mol + jamg'arish bo'lgani uchun, egri chiziqlar qarama-qarshi yo'nalishda siljiydi.

3.



a) Grafikdagi **OA** kesmasi nimani anglatadi? Qanday qilib 0(nol) daromad darajasida iste'mol xarajatlari ijobiy kattalikka ega bo'lishi mumkin?

b) **S** grafigini yuqori yoki pastga siljishiga qanday omillar ta'sir etadi.

**Javob:**

a) **OA** – avtonom iste'mol (ya'ni daromad kattaligiga bog'liq emas). Nol darajadagi daromadda iste'mol amalga oshirilish mumkin, masalan «qarzga yashash» hisobiga bo'lishi mumkin.


b) Asosiy omillar: iste'molchilarning kutishi, boylik (shu jumladan, aholi egalik qilayotgan moliyaviy aktivlar), mamlakatdagi narx darajasi.

4. **X** mamlakatning YaIM 200 mlrd.\$ni tashkil etadi. Iste'molga chegaralangan moyillik - 0,75. Agar hukumat YaIMni 400 mlrd.\$ga yetkazish vazifasi qo'ysa, investitsiyalar hajmi qanday bo'lishi kerak?

**Javob:**

50 mlrd.\$


5. Rejalashtirilgan va amaldagi investitsiyalar o'rtasidagi farq nimada? Nima uchun bunday farq bo'lishi mumkin? Ishlab chiqarishning  $Y_1$  darajasidagi real xajmida **I** chiziq **S** chiziqdan ma'lum kattalikka ustunlik qilmoqda (shaklli qavs bilan ko'rsatilgan). Amaliyotda bunday farq nimani bildiradi? **E** nuqtasidan siljishlarda (-) va (+) belgilari nimani anglatadi?



**Javob:**

Rejalashtirilgan investitsiyalar (**I** chiziq), o'z nomi bilan tadbirkorlarning ma'lum bir summaga investitsion tovarlarni sotib olish rejasiga mos tushadi. Amaldagi investitsiyalar rejalashtirilgan investitsiyalardan tovar-moddiy zahiralarga nazarda tutilmagan investitsiyalar hajmiga farqidir. Rasmda  $Y_1$  darajadagi **S** va **I** orasidagi farq bu tovar-moddiy zahiralarga nazarda tutilmagan investitsiyalar hajmiga farqidir: 16 mlrd.doll – 30 mlrd.doll = -14 mlrd.\$ Tovar-moddiy zahirasining kamayishi - ishlab chiqarishni kengaytirishga undaydigan omil, iqtisodiyot barqarorlikka ( $Y_0$  darajadagi ishlab chiqarish hajmiga) qarab intiladi (bunda **E** muvozanat nuqtasida **S=I**). Umumiy qoida: amaldagi investitsiyalar – rejalashtirilgan investitsiyalar = tovar-moddiy zahiralalar; amaldagi investitsiyalar jamg'armalar (**S**) bilan mos tushadi.

6. Rasmda makroiqtisodiy muvozanat holati aks ettirilgan. Bundan  $U_F$  to'la bandlik sharoitini bildiradi.  $S+I$  va  $45^\circ$  chiziqlar kesishgan nuqta doimo to'la bandlikni anglatadimi?



**Javob:**

Har doim ham emas. Keynes nazariyasi bo'yicha, egiluvchan bo'lmagan ish haqi va narxlar sharoitida tadbirkorlar jami talabni kamayishiga narx va ish haqini kamaytirish orqali emas, balki ishlab chiqarish hajmini qisqartirish va ishchilarni ishdan bo'shatish orqali o'z

munosabatlarini bildiradilar. Shunday qilib, makroiqtisodiy barqarorlik oʻrnatilib boriladi, ammo ishsizlik mavjud boʻladi.

## TEST

### 1. Davlatning soliq-budjet siyosati:

- a) monetar siyosat deb yuritiladi;
- b) fiskal siyosat deb yuritiladi;
- v) antimonopol siyosat deb yuritiladi;
- g) antiinflyatsion siyosat deb yuritiladi;
- d) diskriminatsion siyosat deb yuritiladi.

### 2. Mehnat unumdorligi quyidagi nisbat bilan aniqlanadi:

- a) kapital xarajatlari mehnatga boʻlgan xarajatlarga;
- b) mahsulotning real hajmini ish vaqtining miqdoriga;
- v) mahsulotning real hajmini aholi soniga;
- g) ish vaqtining miqdorini real YaIM hajmiga;
- d) kapital xarajatlari mahsulotning real hajmiga.

### 3. Foiz stavkasini oʻzgarishi YaIMning qaysi elementiga eng katta taʼsir koʻrsatadi?

- a) isteʼmol xarajatlari;
- b) investitsiyalar;
- v) davlat xarajatlari;
- g) eksport;
- d) import.

### 4. Dj.Keyns taʼkidlashicha, mamlakatdagi isteʼmol xarajatlarning hajmi nimaga bogʻliq?

- a) isteʼmolchining yashash joyiga;
- b) oila aʼzolarining yoshiga;
- v) pul taklifining oʻsish surʼatiga;
- g) milliy daromad darajasiga;
- d) ixtiyordagi daromad darajasiga.

### 5. Agar ixtiyordagi daromad hajmi kamayayotgan boʻlsa, unda boshqa teng shartlarda:

- a) isteʼmol xarajatlari ham, jamgʻarmalar ham oʻsadi;
- b) isteʼmol xarajatlari oʻsadi, jamgʻarmalar esa qisqaradi;
- v) isteʼmol xarajatlari qisqaradi, jamgʻarmalar esa oʻsadi;
- g) isteʼmol xarajatlari ham, jamgʻarmalar ham qisqaradi;
- d) barcha javoblar notoʻgʻri.

## 6. Investitsiyalar hajmiga quyidagilardan qay biri ta'sir ko'rsatadi:

- a) foiz stavkasi darajasi;
- b) tadbirkorlarning umid bilan yoki umidsiz kutishlari;
- v) texnologik o'zgarishlar darajasi;
- g) ishlab chiqarish uskunasi yuklanganlik darajasi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

### Javob:

1. b; 2. b; 3. b; 4. d; 5. g; 6. d.

## 12 BOB. MAKROKO'LAMDA PUL BOZORI. IS VA LM MODELI

### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Pul bozor munosabatlarining mahsulidir.	
2. Pul muomilasi 2 xil ko'rinishda yuritiladi: naqd pul muomilasi, naqd bo'lmagan pul muomilasi.	
3. «Shartnoma tuzish uchun pul» va «keng ma'nodagi pul» ajratiladi.	
4. Kredit-bank foydasidan ajratilgan pul summasidir.	
5. Kredit qisqa muddatli, ssuda uzoq muddatli bo'ladi.	
6. Bankka qo'yilgan har 1 so'm 10 so'mni vujudga keltiradi.	
7. Bankning topgan foydasini morj deb ataymiz.	
8. Kredit tizimining asosiy elementi bo'lmish Markaziy bank davlatlararo munosabatlarni muvofiqlashtiradi.	
9. Foiz stavkasini o'sishi bilan pul taklifi kamayib boradi.	
10. $mD = f\left(\frac{1}{h}P, Y, L\right)$ .	
11. Foiz stavkasi bilan investitsiya o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.	
12. <b>IS</b> egri chizig'ini tahlil qilib foiz stavkasini pasayishi YalMni kamayishiga olib keladi degan xulosaga kelish mumkin.	
13. <b>IS</b> egri chizig'ini Xeyk egri chizig'i deb atashadi.	
14. <b>IS</b> va <b>LM</b> modeli yordamida stagflyatsiya va inflyatsiyani tahlil qilish mumkin.	

### Javob

- 1.T; 2.T; 3.T; 4.N; 5.N; 6.T; 7.N; 8.N; 9.N; 10.T; 11.T; 12.N; 13.T; 14.T.

## MASALA

1. **12.1-jadval**da keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:  
a)  $M_1$  miqdorini; b)  $M_2$  miqdorini; v)  $M_3$  miqdorini.

**12.1-jadval.**

	mlrd.\$
Katta bo'lmagan muddatli omonatlar	1630
Muddatli yirik omonatlar	645
Chekda bo'lmagan jamg'arma omonatlar	448
Chekda bo'lmagan jamg'arma omonatlar	300
Naqd pullar	170

**Javob:**

- a)  $170 + 448 = 618$  mlrd.\$  
b)  $618 + 300 + 1630 = 2548$  mlrd.\$  
v)  $2548 + 645 = 3193$  mlrd.\$

2. a) Faraz qilaylik, bitimlar uchun mo'ljallangan har bir \$ bir yilda o'rtacha 4 marta muomalada bo'ladi va pirovard tovar va xizmatlar sotib olishga yo'naltiriladi. YalMning nominal hajmi 2000 mlrd. \$ni tashkil etadi. Bitimlar uchun pulga talab miqdorini aniqlang.

b) **12.2-jadval**da foiz stavkasining turli darajalaridagi aktivlar tomonidan pulga talab miqdori keltirilgan. «a» savolga javob berishda olingan ma'lumotlarni qo'llab jadvalda pulga talabning umumiy hajmini ko'rsating.

**12.2-jadval**

Foiz stavkasi (%)	Pulga talab hajmi (mlrd.\$)	
	Aktivlar tomonidan	Umumiy
16	20	
14	40	
12	60	
10	80	
8	100	
6	120	
4	140	

v) Pul taklifi 580 mlrd.\$ni tashkil etadi. Muvozanatli foiz stavkasini aniqlang.

g) Agar pul taklifi 600 mlrd.\$gacha o'ssa yoki 540 mlrd.\$gacha qisqarsa, muvozanatli foiz stavkasi miqdorini aniqlang.

d) Agar nominal YalM hajmi 80 mlrd.\$ga ko'paysa, yoki 120 mlrd.\$ga qisqarsa, foiz stavkasining har bir darajasida pulga umumiy talab qanday o'zgarishini va muvozanatli foiz stavkasi qancha bo'lishini aniqlang.

**Javob:**

a)  $2000 : 4 = 500$  mlrd.\$

b) **12.3-jadvalga** qarang.

v) 10%

g) 8%; 14%.

d) 20 mlrd.\$ga ko'payadi; 30 mlrd.\$ga kamayadi; 3 %.

**12.3-jadval**

Foiz stavkasi (%)	Pulga talab hajmi (mlrd.\$)	
	Aktivlar tomonidan	Umumiy
16	20	520
14	40	540
12	60	560
10	80	580
8	100	600
6	120	620
4	140	640


3. **12.1-rasmda** pulga talab  $M$  miqdordan  $M_1$  miqdorgacha o'zgaruvchi to'rtta holat keltirilgan. Keltirilgan holatlardan qaysinisi quyidagi jarayonlarni aks ettirishini ko'rsating:

a) O'zgarmas foiz stavkalarida YaIM nominal hajmining ko'payishi.

b) Foiz stavkasining ko'payishi.

v) Foiz stavkalari miqdorida o'z ifodasini topmaydigan narxlar qisqarishi.

g) Jami talab o'zgarishida aks etmaydigan foiz stavkasi darajasining qisqarishi.



**12.1-rasm. Pulga talab**

**Javob:**


a) a.

b) v.

v) g (narx pasayganda YalMning nominal hajmi kamayadi).

g) b.

4. **12.2-rasmda** jami talab va jami taklif egri chiziqlari keltirilgan.



**12.2.-rasm.** Jami talab va jami taklif egri chiziqlari

Agar pul taklifi ko'paysa, egri chiziqlar holati qanday o'zgaradi? Pul taklifi kamaysachi?

**Javob:**

Jami talab egri chizig'i o'ngga suriladi; jami talab egri chizig'i chapga suriladi.

5. Iqtisodiyotda narxlar darajasi quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi.


Yil	1950	1960	1970	1980	1990
Narxlar darajasi (1950=100)	100	120	140	200	300

a) Yillar bo'yicha narxlar darajasi o'zgarishini grafik usulida aks ettiring.

b) 1980 yildan 1990 yilgacha bo'lgan davrda pullar qiymati necha foizga pasaygan? 1950 yildan 1980 yilgacha bo'lgan davrda-chi?

**Javob:**

a) **12.3-rasmga** qarang.



**12.3-rasm.** Narxlar darajasining o'zgarishi

b) 33,3%; 50%.

6. Faraz qilaylik, foiz stavkasi va pulga talab miqdori o'rtasidagi bog'liklik quyidagicha ifodalanadi:

$$i = 20 - 2M$$

bu yerda  $i$  - foiz stavkasi (foizlarda),  $M$  - pul miqdori (trln.\$da):

a) Grafik usulida berilgan bu funksiya nimani aks ettiradi?

b) Agar pulga talab miqdori 5 trln.\$ga teng bo'lsa, foiz stavkasi miqdori qanday?

v) Faraz qilaylik, YalM hajmi o'sdi.  $i$  va  $M$  o'rtasidagi bog'liqlik avvalgidagidek qoladimi? Agar qolmasa, unda u qanday yo'nalishda o'zgaradi?

**Javob:**

a) Pulga talab egri chizig'i.

b) 10%.

v) Yo'q. Pulga talab egri chizig'i yuqoriga va o'ngga suriladi.

7. YalMning real hajmi 1989 yildan 1992 yilgacha bo'lgan davrda yiliga 3 %ga o'sdi, pullarning aylanish tezligi esa yiliga 2%ga ko'paydi. **12.4-jadval**ni kerakli ma'lumotlar bilan to'ldiring.

**12.4-jadval**

Yil	Narxlar darajasi (1989=100)	Pul taklifi (1989=100)
1989	100	100
1990	-	101
1991	100	-
1992	100	-

**Javob:**

**12.8-jadvalga** qarang.

**12.8-jadval**

Yil	Narxlar darajasi (1989=100)	Pul taklifi (1989=100)
1989	100	100
1990	100	101
1991	100	102
1992	100	103

8. **12.5-jadvalda** AQShdagi YaIMning nominal xajmi va pul miqdori xaqidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd.\$da).

**12.5-jadval**

Yil	M <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>	YaIMning nominal hajmi
1967	187,4	350,0	816,4
1969	209,0	332,5	963,9
1971	234,0	471,9	1102,7
1973	270,5	571,4	1359,3
1975	295,2	664,7	1598,4
1977	338,4	809,5	1990,5

Jadvalda ko'rsatilgan davrlar uchun AQShda M<sub>1</sub> va M<sub>2</sub> asosida hisoblangan pulning aylanish tezligini solishtiring. Ushbu vaziyatlarning qay birida pullarning aylanish tezligi barqarorroq bo'lgan edi?

**Javob:**

**12.9-jadvalga** qarang.

**12.9-jadval**

Yil	Pul aylanishi tezligi: M <sub>1</sub> va M <sub>2</sub> asosida hisoblangan	
	M <sub>1</sub>	M <sub>2</sub>
1967	4,36	2,33
1969	4,61	2,43
1971	4,71	2,34
1973	5,02	2,38
1975	5,41	2,40
1977	5,88	2,46

Pullarning aylanish tezligi M<sub>2</sub> asosida hisoblanganda barqaror bo'ladi.

9. Obligatsiya bo'yicha yiliga 100 mlrd.\$ miqdorida foiz to'lanadi. **12.6-jadvalda** foiz stavkasining turli darajalarida obligatsiyalar narxi

haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Jadvalni kerakli ma'lumotlar bilan to'ldiring.

**12.6-jadval**

Foiz stavkasi (%)	Obligatsiyalar narxi (\$)	Foiz stavkasi (%)	Obligatsiyalar narxi (\$)
1	-	-	2000
2	-	10	-
-	2500	12,5	-

**Javob:**

**12.10-jadvalga** qarang.

**12.10-jadval**

Foiz stavkasi (%)	Obligatsiyalar narxi (\$)	Foiz stavkasi (%)	Obligatsiyalar narxi (\$)
1	10000	5	2000
2	5000	10	1000
4	2500	12,5	800

### TEST

**1. Pul taklifining ortishi quyidagi holni yuzaga keltiradi:**

- a) IS egri chizig'ini o'ngga siljiydi;
- b) IS egri chizig'ining chapga siljiydi;
- v) LM egri chizig'ining o'ngga siljiydi;
- g) LM egri chizig'ining chapga siljiydi;
- d) ikkala egri chiziqning o'ngga siljiydi;
- e) ikkala egri chiziqning chapga siljiydi.

**2. Agar investitsiyalar foiz stavkasining o'zgarishi ta'sirida o'zgarsa, unda:**

- a) IS yanada egriroq bo'ladi;
- b) LM yanada tekisroq bo'ladi;
- v) IS yanada tekisroq bo'ladi;
- g) LM yanada egriroq bo'ladi;

**3. Natural xo'jalikdan bozor xo'jaligiga o'tishda bevosita mahsulot ayirboshlash (barter) pullar vositasida amalga oshiriladigan ayirboshlash bilan almashindi va bunda pullar sifatida ma'lum tovarlar qatnashdi. Bu nima sababdan sodir bo'ldi?**

- a) sotuvchiga kerakli tovarlarni unda mavjud tovarlarga ayirboshlashga rozi sub'ektlarni topish bilan bog'liq xarajatlar yuqori bo'lganligi uchun;

- b) noqulay bo'lganligi sababli;
- v) ijtimoiy mehnat taqsimoti rivojlanishiga to'sqinlik qilgani uchun;
- g) ayirboshlanayotgan tovarlarga ehtiyojlarning bir-biriga mos kelib qolgani uchun;
- d) yuqorida sanalgan barcha sabablar mavjud bo'lgani uchun.

#### **4. $M_1$ o'z ichiga quyidagilardan birini oladi:**

- a) metall va qog'oz naqd pullar hamda chekdagi omonatlar;
- b) metall va qog'oz naqd pullar hamda muddatli omonatlar;
- v) metall va qog'oz naqd pullar hamda barcha bank depozitlari;
- g) barcha pullar va «deyarli pullar»;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

#### **5. Pullar va «deyarli pullar» o'rtasidagi farq quyidagidan iborat:**

- a) pullarni, «deyarli pullar»dan farqli o'laroq, bevosita sarflash mumkin;
- b) «deyarli pullar» bank hisoblaridagi depozitlarni o'z ichiga oladi, pullar esa ularni o'z ichiga olmaydi;
- v) pullar «deyarli pullar»ga qaraganda tezroq aylanadi;
- g) «deyarli pullar», pullardan farqli ravishda, maydalanmaydigan qog'oz pullardir;
- d) «deyarli pullar» pulga sotilishi mumkin bulgan barcha tovarlarni o'z ichiga oladi.

#### **6. Bank hisobiga yozilgan chek:**

- a) agar u haqiqiy bo'lsa, ya'ni bankda uni to'lash uchun mablag'lar mavjud bo'lsa,  $M_1$  ning bir qismi hisoblanadi;
- b) u haqiqiy yoki haqiqiy emasligidan qat'iy nazar, egasi uni to'lashga rozilik bildirgan taqdirda,  $M_1$  ning qismi hisoblanadi;
- v) agar faqat tovar va xizmatlar sotib olishga ishlatilsa,  $M_1$  ning qismi hisoblanadi;
- g)  $M_1$  qismi hisoblanmaydi, chunki bank hisobvarag'i pul massasining tarkibiy qismi emas;
- d)  $M_1$  qismi hisoblanmaydi, chunki chekning u yozilgan omonatlar bilan bir qatorda  $M_1$  tarkibiga kiritilishi takroriy hisobga olib keladi.

#### **7. Pullar:**

- a) muomala vositasi;
- b) qimmatni saqlash vositasi;
- v) hisob birligi;
- g) barcha javoblar to'g'ri;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**8. Bitimlar uchun pulga talab quyidagicha o'zgaradi:**

- a) foiz stavkasi oshganda o'sadi;
- b) foiz stavkasi pasayganda o'sadi;
- v) YaIM nominal hajmining o'sishiga qarab kamayadi;
- g) YaIMning nominal hajmi kamayganda pasayadi;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**9. Agar aktivlar tomonidan pulga talab o'zgarsa, quyidagi javoblardan qaysi biri to'g'ri?**

- a) foiz stavkasi oshganda o'sadi;
- b) foiz stavkasi pasayganda o'sadi;
- v) YaIM nominal hajmining o'sishiga qarab kamayadi;
- g) YaIMning nominal hajmi kamayganda pasayadi;
- d) barcha javoblar noto'g'ri.

**10. «Pulga talab» tushunchasi quyidagini bildiradi:**

- a) zarur bo'lganda, qat'iy belgilangan narxlar bo'yicha pulga oson aylantirilishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarga ega bo'lish istagi;
- b) ushbu foiz stavkasida tadbirkorlar kredit berish uchun ishlatishni xohlagan pullar miqdori;
- v) «qora kun» uchun daromadning bir qismini asrash istagi;
- g) aktivlar tomonidan pulga talab nima bo'lsa, xuddi shu;
- d) bitimlar uchun pulga talab va aktivlar tomonidan pulga talab yig'indisi nima bo'lsa, xuddi shu.

**11. Quyidagilardan qaysi birini «deyarli pullar»ga kiritib bo'lmaydi?**

- a) chekda bo'lmagan jamg'ariladigan omonatlar;
- b) muddatli yirik omonatlar;
- v) kredit kartochokalari;
- g) qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari;
- d) katta bo'lmagan muddatli omonatlar.

**12. Aktivlar tomonidan pulga talab bildirilishining sababi shundaki, pullar:**

- a) muomala vositasi;
- b) hisob birligi;
- v) qimmatlarni saqlash vositasi;
- g) barcha javoblar to'g'ri;
- d) boshqa sabablarga ko'ra.

**13. Agar bitimlar uchun pullar yilda o'rtacha 5 marta aylansa, unda talab bildirilgan, ayirboshlashga xizmat kursatish uchun zarur pullar miqdori:**

- a) YalM nominal hajmidan 5 marta ko'p;
- b) nominal YalMning 20 foizini tashkil etadi;
- v) 5 hamda YalM nominal hajmining nisbatiga teng;
- g) 20% va YalM nominal hajmining nisbatiga teng;
- d) 20% va 5 ning nisbatiga teng.

**14. Faraz qilaylik, bitimlar uchun pulga talab YalM nominal hajmining 10%ni tashkil etadi. Pul taklifi 450 mlrd.\$ni tashkil etadi, aktivlar tomonidan pulga talab esa 8.3-jadvalda kursatilgan.**

8.3-jadval

Foiz stavkasi (%)	Aktivlar tomonidan talab (mlrd.\$)	Foiz stavkasi (%)	Aktivlar tomonidan talab (mlrd.\$)
14	100	12	200
13	150	11	250

Agar YalMning nominal hajmi 3000 mlrd.\$ga teng bo'lsa, unda muvozanatli foiz stavkasi quyidagini tashkil etadi:

- a) 14%; b) 13%; v) 12%; g) 11%; d) 10%.

**15. Agar avvalgi testdagi mavjud shartlar saqlanganda, YalMning nominal hajmi o'zgarmasa, pul taklifi esa 450 mlrd.\$dan 500 mlrd.\$gacha o'ssa, muvozanatli foiz stavkasi qanday o'zgaradi?**

- a) 14 %gacha ko'payadi;
- b) 11 %gacha qisqaradi;
- v) 12 %gacha qisqaradi;
- g) o'zgarishsiz qoladi;
- d) 15 %gacha ko'payadi.

**16. Agar foiz stavkasining eng yuqori darajasi qonun bo'yicha muvozanatli darajadan past o'rnatilsa, unda:**

- a) pulga talab hajmi pul taklifi hajmiga qaraganda ko'p bo'ladi;
- b) pulga talab hajmi pul taklifi hajmiga qaraganda kam bo'ladi;
- v) pul taklifi hajmi o'sib boradi, pulga talab hajmi esa qisqaradi;
- g) pulga talab hajmi o'sib boradi, pul taklifi hajmi esa qisqaradi;
- d) pulga talab hajmi va pul taklifi hajmi ko'payib boradi.

**17. Quyida keltirilgan fikrlar qaysinisi pulning real qimmatini yoki xarid qobiliyati va narx darajasini o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi? Pulning xarid qobiliyati:**

- a) narxlar darajasiga teskari bog'liqlikda bo'ladi;
- b) narxlar darajasiga iqtisodiy tanazzul davrida to'g'ri bog'liqlikda va inflyatsiya yuksalishi davrida teskari bog'liqlikda bo'ladi;
- v) narxlar darajasiga to'g'ri, biroq mutanosib bo'lmagan bog'liqlikda bo'ladi;

- g) narxlar darajasiga to'g'ri va mutanosib bog'liqlikda bo'ladi;
- d) narxlar darajasiga bog'liq emas.

**18. Agar biz indeksda ifodalangan narx darajasini R bilan, pullar qiymatini esa D bilan belgilasak, unda:**

- a)  $R=D-1$ ; b)  $D=1:R$ ; v)  $1=D:R$ ; g)  $D=R-1$ ; d)  $D=1-R$

**19. Yirik muddatli omonatlar quyidagilardan birining tarkibiga kiradi:**

- a)  $M_1$ ;
- b)  $M_2$ ;
- v)  $M_3$ ;
- g)  $M_2$  va  $M_3$ ;
- d) M tarkibiga umuman kirmaydi.

**20. Agar YalMning nominal hajmi qisqarsa, unda:**

- a) bitimlar uchun pulga talab va pulga umumiy talab o'sadi;
- b) bitimlar uchun pulga talab va pulga umumiy talab qisqaradi;
- v) bitimlar uchun pulga talab o'sadi, biroq pulga umumiy talab qisqaradi;
- g) bitimlar uchun pulga talab qisqaradi, biroq pulga umumiy talab o'sadi;
- d) bitimlar uchun pulga talab va pulga umumiy talab o'zgarishsiz qoladi.

**21. Agar YalMning nominal hajmi 4000 mlrd.\$ni tashkil etsa, bitimlar uchun pulga talab hajmi esa 800 mlrd.\$ni tashkil etsa, unda:**

- a) aktivlar tomonidan pulga talab 3200 mlrd. \$ni tashkil etadi;
- b) pulga umumiy talab 4800 mlrd. \$ni tashkil etadi;
- v) har bir \$ yiliga o'rtacha 5 marta aylanadi;
- g) pul taklifi hajmini ko'paytirish zarur;
- d) aktivlar tomonidan pulga talab 4800 mlrd. \$ni tashkil etadi.


**22. Agar pulga talab va pul taklifi o'sib borsa, unda:**

- a) muvozanatli pul miqdori va muvozanatli foiz stavkasi o'sadi;
- b) muvozanatli pul miqdori va muvozanatli foiz stavkasi qisqaradi;
- v) muvozanatli pul miqdori o'sadi, muvozanatli foiz stavkasining o'zgarishini esa oldindan aytib bo'lmaydi;
- g) muvozanatli foiz stavkasi o'sadi, pul miqdoridagi o'zgarishlarni esa oldindan aytish mumkin emas;
- d) pul miqdori va muvozanatli foiz stavkasi o'zgarishini oldindan aytish mumkin emas.


**Javob:**

1. v; 2. v; 3. d; 4. a; 5. a; 6. d; 7. g; 8. g; 9. b; 10. d; 11. v; 12. v; 13. b; 14. b; 15. v; 16. a; 17. a; 18. b; 19. v; 20. b; 21. v; 22. v.

### 1. chizma javob



### 2. chizma javob



## 13 BOB. DAVLAT BYUDJETI VA SOLIQ SIYOSATI

### TO'G'RI / NOTO'G'RI

1. Moliya tizimi 2 bo'g'indan iborat: davlat budjeti va mahalliy budjet.	
2. Davlat budjeti jamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurs.	
3. Amaliyotda budjetning daromad qismi xarajat qismidan katta bo'ladi.	
4. Kichik hajmdagi budjet taqchilligi iqtisodiyot uchun havfli emasdir.	
5. Budjet mablag'larini nimaga(qaysi sohaga) sarflanishi budjet taqchilligi xatarli yoki xatarli emasligini aniqlashtiradi.	
6. Mahalliy budjet davlat budjetining bir qismidir.	
7. Ko'pincha mahalliy budjetga davlat tomonidan dotatsiya qilinadi.	

8. Dotatsiya-qaytarmaslik sharti bilan davlat ajratgan mablag'.	
9. Subsiya-aniq maqsad uchun ajratilgan dotatsiyadir.	
10. Soliq milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shaklidir.	
11. Soliqlar 2 ta vazifani bajaradilar: fiskal va rag'batlantirish.	
12. Emissiya davlat tomonidan qo'shimcha qog'oz pullarni chiqarish va qo'shimcha kredit uyushtirish.	

**Javob**

1.N; 2.T; 3.N; 4.T; 5.T; 6.T; 7.T; 8.T; 9.N; 10.T; 11.N; 12.T.

**MASALA**

1. Quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Daromad (V)	5000
Iste'mol (S)	3200
Investitsiyalar (I)	900
Davlat xarajatlari (G)	1000
Soliqlar (T)	900

Davlat budjetining kamomadini toping.

**Javob:**

Davlat budjetining kamomadi = 100.

2. O'tgan yili kompaniya balans foydasidan 50% lik soliq to'ladi; unda qolgan sof foyda avans qilingan sarmoyaning 15% tashkil etdi. Joriy yilda balans daromadi 1/3 ga qisqardi, shu sababdan daromad solig'i stavkasi ham 40%gacha kamaydi.

Agar joriy yilda sof foyda 14%dan kam bo'lsa, unda kompaniya rahbariyati ishlab chiqarishini qisqartirishni, yangi kapital qo'yilmalarni to'xtatishni, shtatni qisqartirishni rejalashtiradi.

O'tgan va joriy yil uchun balans daromadni hisoblang, o'tgan yildagi sof foydani aniqlang. Sizning fikringizcha, kompaniya o'z xo'jalik faoliyatini to'xtasmasligi uchun moliya vazirligi daromad solig'i stavkasini qanchaga pasaytirishi zarur?

**Javob:**

Agar balans foydasidan 50% lik soliq to'langan bo'lsa va avans qilingan sarmoyaning 15% hajmida sof daromad qolgan bo'lsa, unda balans foydasi kapitalning 30% hajmiga teng. Joriy yilda balans foydasi 13%ga qisqardi, ya'ni kapitalning 30% hajmiga teng bo'ldi; unga 40% soliq solindi va sof foyda 12%ga teng bo'ldi.

Hozirgi balans foydasi darajasida sof foyda 14%dan kam bo'lmasligi uchun daromad solig'i stavkasi 30%dan oshmasligi zarur.

Balans foydasi 20% va soliq stavkasi 30% bo'lgan taqdirda sof foyda 14%ga teng bo'ladi.

3. Yalpi milliy mashulot to'la bandlik sharoitida 20 mlrd.\$ni tashkil etadi. YalMning haqiqiy hajmi 16 mlrd.\$ga teng. Soliqlar YalMning 10% ini tashkil qiladi. Tovar va xizmatlarga davlat xarajatlari 1,8 mlrd.\$ga teng.

a) Davlat budjeti taqchil bo'ladimi yoki ortiqchami? Uning miqdorini aniqlang.

b) To'la bandlikka erishilgan sharoitda davlat budjetining qoldig'i qanday o'zgarishini aniqlang.

**Javob:**

a) Davlat budjeti taqchiligi 0,2 mlrd.\$ni tashkil etadi.

b) Davlat budjeti ortiqchaligi 0,2 mlrd.\$ni tashkil etadi.

4. Hukumat chet el banklaridan 1 mlrd.\$ miqdorida yillik 8% stavkada qarz oldi. Bu mablag'lar mamlakat yalpi milliy mahsulotini keyingi yillar mobaynida yiliga 300 mln.\$ga oshirishga imkon beruvchi loyihalarni amalga oshirishga investitsiyalanadi.

a) bu qarz mamlakat davlat qarzining oshishiga olib keladimi, agar oshsa qanchaga?

b) ushbu mamlakat fuqarolariga yuklanayotgan sof moliyaviy og'irlik o'sadimi.

**Javob:**

a) Davlat qarzi 1 mlrd.\$ga ortadi.

b) Yo'q. Milliy mahsulot o'sishining foiz miqdoridan har yillik ortiqchiligi 220 mlrd.\$ni tashkil etadi. 5 yil davomida to'plangan mablag' qarzni to'lashga yetarli bo'ladi.

5. Hukumat 1 yil muddatga 4% stavka bo'yicha 10000 \$ miqdorida qarz oldi.

a) yil oxiriga kelib hukumat qarzining qanday miqdorini to'lashi lozim?

b) agar yillik inflyatsiya sur'ati 3%ni tashkil qilsa, qarzning bu miqdori nominal miqdorga teng bo'ladimi?

v) inflyatsiya bo'lmagan sharoitda qarz va foiz miqdori qanday bo'ladi?

g) agar yillik inflyatsiya sur'ati 3%ni tashkil qilsa, inflyatsiyani hisobga olib o'zgartirilgan qarz va foizning miqdori qanday bo'ladi?

d) agar inflyatsiya yiliga 3%ni tashkil qilsa, inflyatsiyani hisobga olmay hisoblangan qarz va foiz miqdori qanday bo'ladi?

**Javob:**

a) 10 000 \$

b) yo'q.

v) qarz miqdori – 10 000 \$, foiz hajmi – 400 \$.

g) qarz miqdori – 10 300 \$, foiz hajmi – 412 \$

d) qarz miqdori – 10 000 \$, foiz hajmi – 712 \$

6. **13.1-jadvalda** turli foiz stavkalarida investitsiyalarga bo'lgan talabning miqdori haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Iste'molga me'yoriy moyillik 0,8 ga teng.

**13.1-jadval.**

Foiz stavkasi (%)	Rejalashtirilgan sof investitsiyalar (\$)
8	115
7	140
6	165
5	190
4	215

a) agar tovar va xizmatlarning davlat xaridi hajmi 20 \$ga oshsa, real sof milliy mahsulotning muvozanatli hajmi qanday o'zgaradi?

b) agar hukumat bu mablag'ni soliqlar miqdorini 20 \$ga oshirish hisobiga olgan bo'lsa, real sof milliy mahsulotning muvozanatli hajmi qanday o'zgaradi?

v) agar hukumat pul bozorida 20 \$ olishi natijasida foiz stavkasi 5% dan 6%gacha ko'tarilsa, rejalashtirilgan sof investitsiyalar hajmi qanday o'zgaradi? Sof milliy mahsulot muvozanatli real hajmining o'zgarishida ifodalangan davlat xarajatlari ko'payishining sof samarasini aniqlang.

**Javob:**

a) 100 \$ga oshadi.

b) 20 \$ga oshadi.

v) 25 \$ga kamayadi; 125 \$ga kamayadi; 25 \$ga kamayadi.

7. **13.2-jadvalga** qarang.

**13.2-jadval.**

YaIM	Soliq tushumlari miqdori	Davlat xarajatlari
800	200	260
900	230	260
1000	260	260
1100	300	260

a) to'la bandlik sharoitida erishiladigan YaIM miqdori 900 mlrd. \$ga teng bo'lganda budget qoldig'ining miqdori va xususiyati qanday bo'ladi? 1100 mlrd. \$ga teng bo'lgandachi?

b) to'la bandlik sharoitida taxminiy investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasidagi nisbat qanday? (bunda sof eksport nolga teng).

**Javob:**

- a) taqchillik 30 mlrd.\$; ortiqchalik 40 mlrd.\$ga teng.
- b) investitsiyalar jamg'armalardan 40 mlrd.\$ga ortiq bo'lishi kerak.

**TEST**

**1. Subsidiya - bu:**

- a) iqtisodiyotga budjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri bo'lib, qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratishdir;
- b) maqsadli dotatsiya bo'lib, u mahalliy budjetlarga davlat budjetidan ajratiladi. Uni mo'ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi;
- v) umumiy dotatsiya bo'lib, uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida bo'lib, markaz unga aralashmaydi;
- g) noto'g'ri javob yo'q;

**2. Budjet taqchilligi qaysi hollarda hosil bo'ladi?**

- a) ishlab chiqarish barqarorlashganda;
- b) ijtimoiy dasturga ko'zlangan xarajatlardan kamroq sarflansa;
- v) mudofaga xarajat me'yorida bo'lsa;
- g) ko'lankali iqtisodiyot rivoj topib ketsa;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**3. Budjet taqchilligini qoplash uchun davlat nimalardan foydalanadi;**

- a) markaziy bank kreditlaridan foydalanadi;
- b) mahalliy budjet daromadidan foydalaniladi;
- v) korxonada budjet daromadidan foydalanadi;
- g) subvensiyadan foydalaniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**4. Davlatning soliq-budjet siyosati;**

- a) monetar siyosat deb yuritiladi;
- b) fiskal siyosat deb yuritiladi;
- v) antimonopol siyosat deb yuritiladi;
- g) antiinflyatsion siyosat deb yuritiladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q;

**5. Rivojlangan davlatlarning budjetining to'rtta eng asosiy manbalarini ajratib ko'rsating:**

- a) davlat mulkidan tushgan daromadlar;
- b) merosga solinadigan soliq;
- v) kapital bozoridan jalb etilgan mablag'lardan keladigan sof tushumlar;

- g) qo'shilgan qiymat solig'i;
- d) bojxona bojlari;
- e) mulk solig'i;
- j) ijtimoiy badallar;
- z) qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalardan soliq;
- i) kompaniyalarning daromad solig'i;
- k) shaxsiy daromad solig'i;
- l) k), j), g) va i) javoblar to'g'ri;
- m) g), d) va b) javoblar to'g'ri.

**6. Quyida keltirilganlardan davlat budjeti xarajatlaridan uchta eng asosiy manbalarni aniqlang:**

- a) ma'muriy-boshqaruv xarajatlari;
- b) davlat qarzlari bo'yicha to'lovlari;
- v) xorijiy davlatlarga yordam va zayomlar;
- g) ijtimoiy xizmatlarga xarajatlar: pensiya, nafaqalar, ta'lim va sog'liqni saqlash;
- d) mudofa;
- e) xo'jalik xarajatlari;
- j) atrof-muhitni himoya qilish va yaxshilashga ketadigan xarajatlar;
- z) a), v) va e) javoblar to'g'ri;
- i) d), e) va j) javoblar to'g'ri.

**7. Mamlakat iqtisodiyotida soliqlarning quyidagi funksiyalari mavjud:**

- a) fiskal;
- b) ijtimoiy;
- v) tartibga soluvchi (iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi);
- g) hamma javob to'g'ri – chunki bular soliqning uch asosiy funksiyalaridir

**8. Yer solig'ining oshirilishi quyidagi oqibatlarining qaysi birlariga olib keladi:**

- a) qishloq xo'jaligida bandlikni qisqarishiga;
- b) fermerlarning daromadining kamayishiga;
- v) uy-joy narxining oshishiga;
- g) yerdan unumli foydalanishga;
- d) milliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi import mahsulotlar narxi bilan tenglashishiga;
- e) sanoat, savdo, xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ob'ektlarning qurilishi qisqarishiga;

- j) g), d) va b) javoblar to'g'ri;  
z) g), v) va a) javoblar to'g'ri.

**9. Quyida sanab o'tilgan soliqlarning qaysi birlari pirovard iste'molchiga o'tkazilishi mumkin:**

- a) aksizlar;  
b) meros va sovg'aga soliq;  
v) kompaniyalarning daromad solig'i;  
g) qo'shilgan qiymat solig'i;  
d) shaxsiy daromad solig'i;  
e) ijtimoiy badallar;  
j) g), e) va d) javoblar to'g'ri;  
z) a) va g) javoblar to'g'ri.

**Javob:**

1. v; 2. g; 3. a; 4. b; 5. l; 6. i; 7. g; 8. j; 9. z.

**14 BOB. XALQARO SAVDO NAZARIYALARI**

**TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. Milliy xavfsizlik maqsadida bir qator sohalarni himoya qilish savdo cheklovlarini o'rnatish uchun yaqqol dalildir.	
2. Erkin savdo sharoitidagi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi import bojlarini kiritilishi davriga nisbatan doimo pastroq bo'ladi.	
3. Nisbiy afzallik turli tovarlarni muqobil ishlab chiqarish xarajatlarini xalqaro tafovutini aks ettiradi.	
4. Bojxona bojlarini kiritilishi mamlakatning ichki iste'molini rag'batlantiradi.	
5. Yangi sohalarni xorijiy raqobatdan himoya qilish zaruriyati savdo cheklovlarini o'rnatish uchun adolatli dalildir.	
6. Rossiyadagi turmush darajasi, Daniyanikidan farqli o'laroq, tashqi savdogaga ko'proq darajada bog'liqdir.	
7. Tovar va xizmatlar importi ichki narxlarning o'sishiga olib keladi va inflyatsiyaga sabab bo'ladi.	
8. Import mamlakatda jami talabni ortishiga olib keladi.	
9. Savdo sharti – bu eksport narxlarning import narxlariga bo'lgan nisbatidir.	
10. Import bojlarini kiritishdan asosiy maqsad – milliy tarmoqlarni va ish o'rinlarini xorijiy raqobatdan himoya qilish uchun importni qisqartirishdir.	


11. Resurslar bilan ta'minlanish va inson, hamda moddiy resurslar turlarining nisbati va hajmidagi xalqaro farqlar – ixtisoslashuv va savdo uchun muhim asosdir.	
12. Chet el tovarlari importini cheklash nuqtai-nazaridan import kvotalari import bojlariga qaraganda yaxshi natija beradi.	
13. GATT – «umumiy bozor»ga kiruvchi, Yevropa mamlakatlarini birlashtiruvchi xalqaro tashkilot.	
14. Importni cheklash mamlakatda samarasiz tarmoqlarni saqlanishiga sabab bo'ladi va samarali ishlab chiqarishni o'sishiga to'sqinlik qiladi.	

**Javob**

1.T; 2.N; 3.T; 4.N; 5.N; 6.N; 7.N; 8.N; 9.T; 10.T; 11.T; 12.T; 13.N; 14.T.

**MASALA**

1-masala. **14.1 rasm** X mamlakat kiyim bozoridagi ichki talab (DD) va ichki taklifni (SS) aks ettiradi. OA – jahon bozoridagi kiyim narxi.



**14.1 rasm.** Import kvotasini o'rnatilishi.

a) agar savdo cheklovlari bo'lmasa, mamlakatning kiyim importi qanday bo'lar edi?

Davlat kiyim importini cheklash maqsadida **FJ** darajasida import kvotasini o'rnatdi.

b) import kvotasi kiritilgandan keyin ichki bozorda kiyim narxi qanday bo'ladi?

v) ichki ishlab chiqarish va kiyim sotib olinishi qay tarzda o'zgaradi?

g) **FGKJ** to'g'ri to'rt burchagi maydoni nimani ko'rsatadi?

d) import kvotasi o'rnatilgandan keyin jamiyatning sof yo'qotishlari qanday.

**Javob:**

a) **DM.**

b) **OB.**

v) ichki ishlab chiqarish **OC**dan **OE**gacha o'sadi, iste'mol esa **OL**dan **OH**gacha qisqaradi.

g) agar grafik import kvotasini o'rnatilishini aks ettirganda edi, **FGKJ** to'g'ri to'rt burchagi davlat budjetiga qo'shiladigan bojdan tushgan daromadni ko'rsatgan bo'lar edi. Bu vaziyatda bu to'g'ri to'rt burchak xorijlik sotuvchilar va mahalliy importerlar oladigan daromadni ko'rsatadi.

d) **DFG + JKM + FGJK**ning xorijlik sotuvchilarga tushadigan qismi.

2. AQShda tranzistorli radiolar talab va taklif dinamikasi quyidagicha:

Narxi (\$)	talab hajmi (mln.dona)	taklif hajmi (mln.dona)
5	5	2
10	4	3
15	3	4
20	2	5

Yaponiyada tranzistorli radiolar talab va taklif dinamikasi quyidagicha:

Narxi (\$)	talab hajmi (mln.dona)	taklif hajmi (mln.dona)
5	2,5	1
10	2,0	3
15	1,5	5
20	1,0	7

a) agar mamlakatlar o'rtasida erkin savdo yo'lga qo'yilsa tranzistorli radiolarning muvozanat narxi nechaga teng bo'ladi?

b) Mamlakatlardan qaysi biri tranzistorli radiolarni eksport qiladi?

v) Eksport miqdori nechaga teng bo'ladi?

g) agar AQSh import qilinayotgan har bir tranzistorli radiolardan 10 \$ miqdorida boj undirsa, import va eksport hajmi qanday o'zgaradi?

**Javob:**

a) 10 \$

b), v) Yaponiya AQShga 1 mln. tranzistorli radiolarni eksport qiladi.

g) eksport va import qisqarib boradi.

3. Faraz qilaylik, AQSh bir birlik resursdan foydalanib, 3 dona kompyuter yoki 3000 bochka vino ishlab chiqarishi mumkin; Fransiya ham bir birlik resursdan foydalanib, 1 dona kompyuter yoki 5000 bochka vino ishlab chiqarish mumkin.

a) har bir mamlakatning ixtisoslashuvi umumiy ishlab chiqarishning ko'payishiga olib keladimi?


b) ushbu misol mutlaq yoki nisbiy afzallikning qaysi birini tasvirlaydi?

v) agar AQShda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan kompyuterlarning eng ko'p miqdori 1000 donani tashkil etsa, mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i qanday ko'rinishda bo'ladi? (**14.2a-rasmdan** foydalaning)


g) **14.2a-rasmda** AQSh faqat kompyuterlar ishlab chiqaradi va ularni Fransiya vino ayirboshlash orqali sotadi, deb faraz qilib, AQShning savdo imkoniyatlari chizig'ini chizing (1 amerika kompyuterining narxi 2000 bochka fransuz vinosi narxiga teng).

d) agar Fransiyada ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan vino bochkalarining eng ko'p miqdori 2 mln. donani tashkil etsa, bu mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i qanday ko'rinishda bo'ladi? (**14.3a-rasmdan** foydalaning)

e) **14.3a-rasmda** Fransiya savdo imkoniyatlari chizig'ini chizing. Bunda Fransiya faqat vino ishlab chiqaradi va uni AQShga kompyuterga ayirboshlashda sotadi, deb faraz qiling (1 Amerika kompyuterining narxi 2000 bochka fransuz vinosiga teng)




14.2a-rasm.




14.3a-rasm.

Javob:



**14.2b-rasm.** AQShning ishlab chiqarish va savdo imkoniyatlari.



**14.3b-rasm.** Fransiyaning ishlab chiqarish va savdo imkoniyatlari.

- a) ha.
- b) AQSh kompyuterlar ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega. Fransiya vino ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega.
- v) **14.2b-rasmga** qarang. 1v chiziq.
- g) **14.2b-rasmga** qarang. 1g chiziq.
- d) **14.3b-rasmga** qarang. 1d chiziq.
- e) **14.3b-rasmga** qarang. 1e chiziq.

4. Birinchi muammoga qayting. Faraz qilaylik, kompyuterning narxi o'sayapti. Endi uning narxi 4000 bochka vinoga teng. Boshqacha qilib aytganda, endi bitta Amerika kompyuteri 4000 bochka fransuz vinosiga ayirboshlanadi.

- a) **14.2a-** va **14.3a-rasmlarda** mos holda AQSh va Fransiya savdo imkoniyatlarining yangi chiziqlarini chizing.
- b) olingan natijalar AQSh dagi iste'mol darajasi endilikda avvaliga nisbatan past bo'lishi mumkinligini ko'rsatadimi? Avvaliga qaraganda yuqori bo'lishinichi? O'z javobingizni tushuntiring.

v) olingan natijalar Fransiyadagi iste'mol darajasi endi avvaliga nisbatan past bo'lishi mumkinligini ko'rsatadimi? Avvaliga nisbatan yuqori bo'lishini-chi? O'z javobingizni tushuntiring.

**Javob:**

a) **14.2b-** va **14.3b-rasmlarga** qarang. 2a chiziqlari.

b) avvalgiga qaraganda yuqori. **14.2b-rasmda** savdo imkoniyatlari chizig'i (2a) avvalgisidan (1g) yuqorida yotibdi;

v) avvalgiga qaraganda past. **14.3b-rasmda** savdo imkoniyatlari chizig'i (2a) avvalgisidan (1e) yuqorida yotibdi.

5. **A** va **B** mamlakatlar o'rtasida siyosiy muammolar tufayli o'zaro savdo bo'lmagan. Nihoyat, siyosiy ziddiyatlar bartaraf etildi va mamlakatlar o'zaro savdoni boshladi.

**A** mamlakatda sigaretlar nisbatan arzon, yog' esa nisbatan qimmat. **B** mamlakatda yog' nisbatan arzon, sigaretlar esa nisbatan qimmat.

Demak, agar **A** va **B** mamlakatlar o'rtasida erkin savdo tartibi o'rnatilsa, unda:

a) **A** mamlakat ishlab chiqarilayotgan sigaretlarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **A** mamlakatda sigaretlar narxi o'sadimi yoki tushadimi?

b) **B** mamlakat ishlab chiqarilayotgan sigaretlarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **B** mamlakatda sigaretlar narxi o'sadimi yoki tushadimi?

v) **A** mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yog'ga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **A** mamlakatda yog' narxi o'sadimi yoki tushadimi?

g) **B** mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yog'ga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **B** mamlakatda yog' narxi o'sadimi yoki tushadimi?

d) **A** mamlakatda sigaretlar ishlab chiqarish uchun foydalanilgan resurslarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **B** mamlakatda yog' ishlab chiqarish uchun foydalanilgan resurslarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi?

e) **B** mamlakatda sigaretlar ishlab chiqarish uchun foydalanilgan resurslarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi? **A** mamlakatda yog' ishlab chiqarish uchun foydalanilgan resurslarga talab ko'payadimi yoki kamayadimi?

**Javob:**

a) ko'payadi, o'sadi.

b) kamayadi, tushadi.

v) kamayadi, tushadi.

- g) ko'payadi, o'sadi.  
 d) ko'payadi, o'sadi.  
 e) kamayadi, tushadi.

6. **G** va **H** mamlakatlarda faqat oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqariladi. Quyida bu ikki mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari keltirilgan (ishlab chiqarish birliklarda o'lchanadi).

<b>G</b> mamlakat			<b>H</b> mamlakat		
Imkoniyat	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish	Kiyim-kechak ishlab chiqarish	Imkoniyat	Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish	Kiyim-kechak ishlab chiqarish
A	0	32	A	0	24
B	5	24	B	4	18
V	10	16	V	8	12
G	15	8	G	12	6
D	20	0	D	10	0

- a) **G** mamlakatdagi oziq-ovqat mahsulotlarida ifodalangan kiyim-kechakning muqobil qiymati qanday?  
 b) **H** mamlakatdagi oziq-ovqat mahsulotlarida ifodalangan kiyim-kechakning muqobil qiymati qanday?  
 v) agar **G** va **H** mamlakatlari o'rtasida erkin savdo boshlansa, unda qaysi mamlakat oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiladi? Qaysi mamlakat kiyim-kechakni eksport qiladi?  
 g) ikki mamlakat o'rtasida «savdo shartlari» qanday chegaralarda bo'ladi?

**Javob:**

a)  $\frac{5}{8}$

b)  $\frac{2}{3}$

v) **H** mamlakat. **G** mamlakat.

g) kiyim-kechak birligining narxi oziq-ovqat mahsulotlari birligi narxining  $\frac{5}{8}$  dan  $\frac{2}{3}$  gacha miqdoriga teng bo'ladi.

7. Faraz qilaylik, ikki mamlakat, **A** va **B**, ikkita tovarni-velosipedlar va tennis raketkalarini ishlab chiqaradi, ikkala mamlakat ham umumiy

valyutani qo'llaydi. **14.1-jadvalda** **A** va **B** mamlakatlarda ikkita mahsulotni ishlab chiqarishga mehnat sarflari ko'rsatilgan.

**14.1-jadval**

	Mehnat sarfi (bir birlik ishlab chiqarishga soatlarda)	
	<b>A</b> mamlakat	<b>B</b> mamlakat
Velosipedlar	60	120
Raketkalar	30	40

a) qaysi mamlakat ikkala tovarni ishlab chiqarishda mutlaq afzallikka ega?

b) har bir mamlakat uchun raketkalarda ifodalangan velosipedlarni ishlab chiqarishning muqobil xarajatlarini va velosipedlarda ifodalangan raketkalarni ishlab chiqarishning muqobil xarajatlarini hisoblang.

v) qaysi mamlakat velosipedlar ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega.

Faraz qilaylik, xalqaro savdo yo'q. Har bir mamlakat haftasiga 40 soat band bo'lgan 300 ishlovchiga ega. Dastlab har bir mamlakatda ishlovchilarning yarmi velosipedlar ishlab chiqarishda, boshqa yarmi esa tennis raketkalari ishlab chiqarishda banddir.

g) har bir mamlakatdagi velosipedlar va raketkalar ishlab chiqarish hajmlarini hisoblang va **14.2a-jadvalni** to'ldiring.

**14.2a-jadval**

	Ishlab chiqarish hajmi (haftasiga birlik)		
	<b>A</b> mamlakat	<b>B</b> mamlakat	Umumiy
Velosipedlar			
Raketkalar			

Endi faraz qilaylik, xalqaro savdo boshlandi. Mamlakalar ixtisoslashuvi quyidagicha amalga oshiriladi: tennis raketkalari ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega mamlakat faqat raketkalarni chiqaradi; boshqa mamlakat savdo yo'qligida mavjud bo'lgan ishlab chiqarish umumiy hajmi darajasida velosipedlar ishlab chiqaradi, qolgan mehnat resurslarini raketkalar chiqarishga yo'naltiradi.

d) har bir mamlakatdagi velosipedlar va raketkalar ishlab chiqarish hajmini hisoblang, **14.3a-jadvalni** to'ldiring va ikkala mamlakat halqaro savdodan qanday foydaga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsating.

e) alohida grafikda har bir mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlari chiziqlarini chizing.

**14.3a-jadval**

	Ishlab chiqarish hajmi (haftasiga birlik)		
	<b>A</b> mamlakat	<b>B</b> mamlakat	Umumiy
Velosipedlar	-	-	-
Raketkalar	-	-	-

j) ishlab chiqarish imkoniyatlarining ushbu grafik tasviri asosida xalqaro ayirboshlashdan olinadigan imkoniyatli foyda haqida xulosa chiqarish mumkinmi? O'z javobingizni asoslang.

**Javob:**

a) **A** mamlakat

b) velosiped ishlab chiqarishning muqobil harajatlari:

- **A** mamlakatda 1 velosiped 2 raketkaga teng.

- **B** mamlakatda 1 velosiped 3 raketkaga teng.

Raketkalar ishlab chiqarishning muqobil harajatlari:

- **A** mamlakatda 1 raketka  $\frac{1}{2}$  velosipedga teng.

- **B** mamlakatda 1 raketka  $\frac{1}{3}$  velosipedga teng.

v) **A** mamlakat, chunki u nisbatan kam muqobil xarajatlarga ega.

g) **14.2b-jadvalga** qarang.

**14.2b-jadval**

	Ishlab chiqarish hajmi (haftasiga birlik)		
	<b>A</b> mamlakat	<b>B</b> mamlakat	Umumiy
Velosipedlar	100	50	150
Raketkalar	200	150	350


d) **14.3b-jadvalga** qarang. Velosipedlar ishlab chiqarilishining miqdoriy ustunligi o'zgardi. (masala shartiga ko'ra), biroq tennis raketkalarni ishlab chiqarish 350 dan 400 donagacha ko'paydi. Bu yutuq ikki mamlakat o'rtasida qanday taqsimlanishi, masalan, valyuta kursiga bog'liq bo'lishi mumkin (agar ikki mamlakat turli valyutadagi pullarni qo'llasa).

**14.3b-jadval**

	Ishlab chiqarish hajmi (haftasiga birlik)		
	<b>A</b> mamlakat	<b>B</b> mamlakat	Umumiy
Velosipedlar	150	-	150
Raketkalar	100	300	400


e) **14.4-rasmga** qarang.  $ICh_H_A$  va  $ICh_H_B$  – mos ravishda **A** mamlakat va **B** mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari chiziq ( $ICh_H$ )lari.

j) ha, ikki mamlakatning  $ICh_H$ lari turli og'ish burchaklariga ega, bu muqobil xarajatlardagi mamlakatlararo farqni aks ettiradi.



**14.4-rasm. A va B mamlakatlarning IChHlari.**

8. **14.5-rasmda** X mamlakatda magnitafon bozoridagi ichki talab (DD) va ichki taklif (SS) aks ettirilgan. Magnitafonning jahon bozoridagi narxi OB kesmaga teng.



**14.5 rasm. Tarif bojining kiritilishi.**

a) Erkin savdo sharoitida magnitafonning ichki narxini va import hajmini aniqlang.

Taxmin qilamizki, import qilinayotgan har bir magnitafon uchun davlat boj kiritdi, u VS kesmaga teng.

b) Boj kiritilgandan keyin magnitafonning ichki narxini va import hajmini aniqlang.

v) Magnitafonlarni ichki ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgaradi?

g) Import boji kiritilgandan keyin magnitafonlarni sotib olishda xaridorlarning qo'shimcha xarajatlarini grafikda aks ettirilgan shakl maydonini aniqlang.

d) Qo'shimcha harajatlarning qaysi miqdori davlat budjetiga boj kiritilgandan kelgan daromad tariqasida tushadi va qaysi miqdori mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo'shimcha rentasi bo'la oladi?

e) Import boji kiritilgandan so'ng jamiyatning sof yo'qotishlari qanday.

### **Javob:**

a) narx OBga teng; import hajmi FPga teng (bu narx darajasida ichki talab ichki taklifdan ortiq bo'ladi).

b) narx OCga teng; import hajmi JMga teng.

v) EG hajmga o'sadi.

g) BCML.

d) bojdan tushgan daromad HJMLga teng, renta BCJFga teng.

e) FHJ + LMP.

## **TEST**

**1. A mamlakat 1 birlik resurs ishlatib 1 tonna bug'doy yetishtiradi yoki 4 tonna ko'mir qazib oladi. B mamlakat 1 birlik resurs ishlatib 2 tonna bug'doy yetishtiradi yoki 5 tonna ko'mir qazib oladi.**

a) A mamlakat bug'doy eksport qiladi, ko'mirni import qiladi;

b) B mamlakat bug'doy eksport qiladi, ko'mir import qiladi;

v) A mamlakat bug'doyni eksport ham import ham qilmaydi;

g) B mamlakat ko'mirni eksport ham import ham qilmaydi;

d) hamma javoblar noto'g'ri.

**2. Agar Fransiya Angliyaga vino, Angliya Fransiyaga to'qimachilik mollarini eksport qilsa, vino narxlarini to'qimachilik narxlariga nisbatan o'sishi quyidagini anglatadi.**

a) Fransiya uchun savdo-sotiq sharoitlarini yaxshilanishini;

b) Fransiyaning savdo imkoniyatlar chizig'ining burchak qiyligining o'zgarishini;

v) Angliyaning savdo imkoniyatlar chizig'ining burchak qiyligining o'zgarishini;

g) Hammasi to'g'ri;

d) a va b javoblar to'g'ri.

**3. Import boji va kvotasi o'rtasida farq shundan iboratki, faqat boj:**

- a) Xalqaro savdoning kamayishiga olib keladi;
- b) Narxlarning o'sishiga olib keladi;
- v) Davlat budgetiga daromad keltiradi;
- g) Malakatdagi turmush darajasini pasaytiradi;
- d) Hamma javoblar noto'g'ri.

**4. Nisbiy afzallik prinsipini birinchi bo'lib kim isbotlagan:**

- a) Tomas Maltus;
- b) Adam Smit;
- v) Pol Samuelson;
- g) David Rikkardo;
- d) Alfred Marshall;

**5. Proteksionizm tarafdorlari boj, kvota va boshqa savdo cheklovlari quyidagi uchun kerak, deb ta'kidlaydilar:**

- a) Yangi yosh sohalarni xorijiy raqobatdan himoya qilish;
- b) Ichki bandlikni oshirish;
- v) Dempingni oldini olish;
- g) Mamlakat havfsizligini ta'minlash;
- d) Hamma javoblar to'g'ri.

**6. A va B malakatlar quyidagi X va Y tovarlarni ishlab chiqarmoqda (birlikda):**

	X tovar	Y tovar
A mamlakat	12	16
B mamlakat	8	8

Agar har bir mamlakat nisbiy afzallik prinsipi asosida ixtisoslashsa, unda ayirboshlov koeffitsienti (savdo shartlari) quyidagicha bo'ladi:

- a) 1 birlik X -  $1\frac{1}{3}$  birlik Y uchun
- b) 1 birlik X - 2 birlik Y uchun
- v) 1 birlik X - 1 birlik Y uchun
- g) 1 dan  $\frac{1}{3}$  birlikgacha X - 1 birlik Y uchun
- d)  $\frac{1}{2}$  dan  $\frac{3}{4}$  birlikgacha X - 1 birlik Y uchun

**7. Savdo cheklovlarining qaysi bir shakli erkin savdo uchun katta to'siq bo'la olmaydi:**

- a) Import boji
- b) Eksportning ixtiyoriy cheklovlari

- v) import kvotasi
- g) import va eksportga litsenziya
- d) hamma javoblar noto'g'ri

8. Quyida keltirilgan jadvalda vino va movut ishlab chiqarish hajmlarini 2 malakatdagi ko'rsatkichi keltirilgan (faqat bitta resurs - mehnat hisobga olingan).

1 soatda ishlab chiqarish	A mamlakat	B mamlakat
Movut (metr)	5	15
Vino (litr)	10	20

**Ikki mamlakatni taqqoslab va ular o'rtasidagi savdo imkoniyatlarini tahlil etib, A mamlakat quyidagi imkoniyatga ega deb ta'kidlash o'rinli bo'ladi:**

- a) movut ishlab chiqarishda absolyut ustunlikka;
- b) vino ishlab chiqarishda absolyut ustunlikka;
- v) movut ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka;
- g) vino ishlab chiqarishda nisbiy ustunlikka;
- d) hech qaysi tovar ishlab chiqarish bo'yicha nisbiy ustunlika ega emas.

9. Avval ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo bo'lmagan. A - mamlakat valyutasi - a, B mamlakat valyutasi - b. A va B mamlakatlarda movutning narxi mos ravishda 20 a va 60 b ni tashkil etadi. Agar har bir mamlakat mustaqil ravishda vino va movutni ishlab chiqarsa, unda vinoning narxi mos ravishda quyidagiga teng bo'ladi.

- a) 5a, 20b, b) 40a, 45b, v) 10a, 80b, g) 10a, 60b, d) 40a, 80b

10. Agar ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo-sotiq yo'lga qo'yilsa, unda B mamlakat quyidagini amalga oshiradi deb taxmin qilish mumkin.

- a) vino import qiladi.
- b) vino eksport qiladi.
- v) vino va movut import qiladi.
- g) vino va movut eksport qiladi.
- d) hech narsani eksport ham, import ham qilmaydi.

11. Savdo jarayonlari boshlanishidan avval har bir mamlakat uchun o'z narx munosabatlari mavjud bo'lib, u ichki ishlab chiqarish xarajatlarini aks ettirgan. Agar A va B mamlakatlar o'rtasida o'zaro savdo rivojlangansa, vino narxining movut narxiga bo'lgan nisbati:

- a) A mamlakatda o'sadi, B da pasayadi;
- b) A mamlakatda pasayadi, B mamlakatda o'sadi;

- v) ikkala mamlakatda o'sadi;
- g) ikkala mamlakatda pasayadi;
- d) hech qaysi mamlakatda o'zgarmaydi.

12. Agar ikki mamlakat o'rtasida barqaror savdo aloqalari o'rnatilgan bo'lsa, movut narxining vino narxiga nisbati taxminan quyidagicha bo'ladi:

- a) ikkala mamlakatda - 1,2;
- b) A mamlakatda - 1,8, B mamlakatda - 1,5;
- v) ikki mamlakatda - 1,6;
- g) A mamlakatda - 2,1, B mamlakatda - 1,3;
- d) ikkala mamlakatda - 2,3.

13. Movutning kundalik eksporti 500 m. tashkil etadi, 12-testda aniqlangan narx nisbatini hisobga olgan holda, kundalik vino eksporti quyidagiga teng:

- a) A mamlakatdan 600 litr;
- b) B mamlakatdan 600 litr;
- v) A mamlakatdan 800 litr;
- g) B mamlakatdan 800 litr;
- d) A mamlakatdan 1150 litr;

**Javob:**

1. b; 2. g; 3. v; 4. g; 5. d; 6. g; 7. d; 8. g; 9. v; 10. a; 11. a; 12. v; 13. v.

**15 BOB. TO'LOV BALANSI VA VALYUTA KURSI**

**TO'G'RI / NOTO'G'RI**

1. IBM korporatsiyasining Angliyadagi bo'limi o'z daromadini AQShga o'tkazsa, bu jarayon Buyuk Britaniya to'lov balansida «kredit» sifatida o'tadi.	
2. Oltin standart tizimi mamlakat importi va eksportini avtomat ravishda balanslashishiga olib keladi, chunki, agar mamlakatda oltin zahirasi kamaysa, unda narx darajasi ortadi, agar oltin zahirasi ko'paysa, narx darajasi pasayadi.	
3. Mamlakat to'lov balansi doimo nolga teng bo'ladi.	
4. Bretton-Vuds valyuta tizimi xalqaro rezerv sifatida oltin va \$dan foydalanishni nazarda tutgan.	
5. Agar biz boshqa mamlakat rezidentlariga zayom bersak, bu jarayon bizning to'lov balansimizda «kredit» sifatida o'tadi.	


6. Agar mamlakat oltinning narxini pasaytirs, bu uning valyutasi qadrsizlanayotganini anglatadi.	
7. Mamlakat to'lov balansini muvozanatlashtirish uchun ichki narxlarni umumiy darajasini o'zgartirish mumkin.	
8. Agar amerikaning IBM kompaniyasi Samarqandda zavod sotib olsa, bu jarayon O'zbekiston to'lov balansida «kredit» sifatida o'tadi.	
9. Agar italyanlar fransuz vinosi, pishloq va boshqa fransuz tovar va xizmatlariga talabni oshirsalar, unda grafikda fransuz frankiga bo'lgan talab egri chizig'ining hamda taklif egri chizig'ining o'ngga siljishini ko'ramiz.	
10. AQSh xorijiy valyutasining rasmiy rezervlarining kamayishi to'lov balansida «minus» belgisi bilan aks etadi: bu jarayon debet, yoki import operatsiyasi ko'rinishida bo'ladi.	
11. Egiluvchan valyuta kursi tizimi ichki iqtisodiyotni beqarorligiga, tashqi savdoni va xorijda investitsiyalar hajmini qisqarishiga olib kelishi mumkin.	
12. To'lov balansining joriy operatsiyalar bo'yicha defitsiti asosan sof kapital oqimi yordamida moliyalashtiriladi.	
13. 13. Agar \$da funt sterling narxi pasaysa, unda \$ funtga nisbatan qadrini yo'qotibdi, deb aytadilar.	
14. Jahon iqtisodiyotida 1971 yildan beri qayd qilingan valyuta kurslari tizimi ishlatilib kelinmoqda.	
15. Erkin suzuvchi valyuta kurslari talab va taklifning to'siqlarsiz o'yinlari orqali aniqlanadi.	

### Javob

1.N; 2.T; 3.T; 4.T; 5.N; 6.N; 7.T; 8.T; 9.N; 10.N; 11.T; 12.T; 13.N; 14.N; 15.T.

### MASALA

1. **15.1 rasmda** Amerika bozorida Yaponiya televizorlari taklifi egri chizig'i aks ettirilgan. U ikki davrdagi taklifni aks ettiradi.



**15.1. rasm.** AQSh bozorida yapon televizorlarining taklifi egri chizig'i.

a) Taklif egri chizig'larining biri AQSh \$ining Yapon ienasiga nisbatan qadrining pasayib ketishidan oldingi davrga taaluqli, ikkinchisi esa \$ o'z qadrini yo'qotgandan keyingi davrga taaluqlidir;

Qaysi egri chiziq birinchi davrga, qaysi biri ikkinchi davrga tegishli ekanligini aniqlang va izohlang.

b) AQSh \$ini pasayib ketishi yapon televizorlarining narxiga (\$da) qanday ta'sir etadi?

v) Agar AQShda yapon televizorlariga talab narx bo'yicha elastik bo'lsa, bu vaziyat amerikaliklarning yapon televizorlariga bo'lgan xarajatlariga (\$da) qanday ta'sir qiladi?

g) Agar AQShda yapon televizorlariga talab narx bo'yicha elastik bo'lmasa, bu vaziyat amerikaliklarning yapon televizorlariga bo'lgan xarajatlariga (\$da) qanday ta'sir qiladi?


**Javob:**

a), b) yuqoridagi taklif egri chizig'i \$ o'z qadrini yo'qotgandan keyingi davrga taaluqli. Taklif hajmini shu darajada saqlab qolish uchun yapon ishlab chiqaruvchilari \$da yuqoriroq narxni belgilashlari zarur.

v) xarajatlar kamayadi.

g) xarajatlar oshadi.

2. **15.2 rasmda** Yaponiyada amerika kompyuterlariga talabning egri chizig'i ko'rsatilgan.



**15.2. rasm.** Yaponiyada AQSh kompyuterlariga bo'lgan talab egri chizig'i.

- a) Agar yapon ienasi AQSh \$iga nisbatan qadri pasayib borsa, unda Yaponiyada 4000 \$ga sotilayotgan amerika kompyuterlarining miqdori qanday o'zgaradi, kamayadimi yoki ko'payadimi?
- b) Bu vaziyatda amerika kompyuterlariga bo'lgan talab qanday o'zgaradi: oshadimi yoki pasayadimi?
- v) Bu vaziyatda yaponiyaliklarning amerikaning kompyuterlariga qilgan xarajatlari (\$da) qanday o'zgaradi: o'sadimi yoki kamayadimi?

**Javob:**

- a) kamayadi.  
 b) pasayadi.  
 v) kamayadi.

3. Quyida **A** mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalar ro'yxati keltirilgan:

	(mln.\$)
<b>A</b> mamlakat rezidentlari tomonidan xorijiy firmalarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish	50
<b>A</b> mamlakatga tovar va xizmatlar importi	100
<b>A</b> mamlakatdan tovar va xizmatlar eksporti	120
<b>A</b> mamlakatga boshqa mamlakatlardan pul o'tkazishlar	30
<b>A</b> mamlakat firmalarining qimmatbaho qog'ozlarini xorijliklarga sotilishi	60
<b>A</b> mamlakatga oltin importi	60

**A** mamlakatning to'lov balansini tuzing.

**Javob:**

<u>Moddalar</u>	Debet	Kredit
	mln.\$	
Import	100	-
Eksport	-	120
Qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish	50	-
Qimmatbaho qog'ozlarni sotish	-	60
Pul o'tkazishlar	-	30
Oltin importi	60	-
<b>Jami</b>	210	210

4. Quyida shveysar frankiga bo'lgan talab kartasi va unin taklifi hajmi keltirilgan:

Frank narxi (\$da)	Frankga bo'lgan talabning hajmi (mln.frank)	Frank taklifining hajmi (mln.frank)
0,80	300	400
0,70	320	370
0,60	340	340
0,50	360	310
0,40	380	280

- \$ning muvozanatlashgan valyuta kursi qanday?
- shveysar frankining muvozanatlashgan valyuta kursi qanday?
- valyuta bozorida \$ning qancha miqdori sotib olinadi?
- valyuta bozorida shveysar frankining qancha miqdori sotib olinadi?

**Javob:**

- \$  $1\frac{2}{3}$  frank narxida sotiladi.
- 60 tsent.
- $340 \text{ mln.frank} \times 60 \text{ tsent} = 204 \text{ mln.}\$$
- 340 mln.frank.

5. Quyida funt sterlingga bo'lgan talab kartasi keltirilgan?

Funt narxi (\$da)	2,00	2,10	2,20	2,30	2,40	2,50
Funtga bo'lgan talab xajmi (mln.f.st.)	200	190	180	170	160	150

- Buyuk Britaniya hukumati funt sterling valyuta kursini 1 f.st.=2,40 \$ qilib belgiladi va bu kurs bo'yicha taklif etilayotgan funt sterling miqdori 180 mln.ga teng deb taxmin qilsak. Bu vaziyatda Britaniya hukumati funtni sotishi kerakmi yoki sotib olishi kerakmi? Agar shunday bo'lsa qanday miqdorda?

b) agar Britaniya hukumati funtni \$ga sotib olishi kerak bo'lsa, unda kerakli miqdordagi \$ni qaerdan olishi mumkin?

**Javob:**

- a) sotib oladi; 20 mln.funt.
- b) o'z rezervlaridan.

6. Quyidagi ma'lumotlar yordamida:

- a) kapital xarajati balansini hisoblang;
- b) joriy operatsiyalar balansini hisoblang;
- v) savdo balansini hajmini hisoblang.

1. Tovar eksporti	+40
2. Tovar importi	-30
3. Xizmatlar eksporti	+15
4. Xizmatlar importi	-10
5. Investitsiyalardan sof daromad	-5
6. Sof pul o'tkazishlar	+10
7. Kapital oqib kelishi	+10
8. Kapital oqib ketishi	-40
9. Rasmiy rezervlar	+10

**Javob:**

- a) kapital harakati balansini = -30;
- b) joriy operatsiyalar balansini = +20;
- v) savdo balansini hajmi = +10.

## TEST

**1. Agar 1 nemis markasining \$dagi narxi 50 tsentdan 45 tsentga tushgan bo'lsa, unda Germaniyada 150 markaga sotilayotgan magnitafonning (\$dagi) narxi:**

- a) 10 \$ga pasayadi;
- b) 7,50 \$ga kamayadi;
- v) 5,00 dolarga kamayadi;
- g) 7,50 \$ga ko'payadi;
- d) yuqoridagi javoblarning hammasi noto'g'ri.

**2. Mamlakat to'lov balansining tarkibiy qismi bo'lgan joriy to'lovlar schyoti quyidagini o'z ichiga olmaydi:**

- a) tovar eksporti;
- b) investitsiyalardan sof daromad;

- v) xorijiy mamlakatlarga transport xizmati;
- g) xorijda mamlakat aktividagi o'zgarish;
- d) bir tomonlama transfert to'lovlari.

**3. Fransuz frankiga bo'lgan talab egri chizig'i o'ng tomonga siljiydi, agar:**

- a) Fransiyadagi real foiz stavkalari nisbatan yuqori bo'lib, inflyatsiya darajasi esa (boshqa mamlakatlarga) nisbatan past bo'lsa;
- b) Fransiyadagi real foiz stavkalari nisbatan past bo'lib, inflyatsiya darajasi esa nisbatan yuqori bo'lsa;
- v) Fransiyadagi foiz stavkalari ham, inflyatsiya darajasi ham nisbatan past bo'lsa;
- g) Fransiyadagi foiz stavkalari ham, inflyatsiya darajasi ham nisbatan yuqori bo'lsa;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**4. Mamlakat o'z valyutasini devalvatsiya qildi deganda quyidagini nazarda tutishadi:**

- a) mamlakat oltin standartidan voz kechdi;
- b) valyuta birligini ichki sotib olishi qobiliyati tushib ketdi;
- v) hukumat oltin sotib oladigan narxini oshirdi;
- g) mamlakatda savdo balansining defitsiti mavjud;
- d) ushbu mamlakat valyutasida aks etgan ba'zi mamlakatlar valyutalarining narxi tushib ketdi.

**5. Agar Shveysariya frankining AQSh \$iga almashuv kursi 1 \$ uchun 4 frankdan 3 frankka pasaygan bo'lsa, unda frankning narxi:**

- a) 25 tsentdan 33 tsentga ko'tarilib, \$ kursi frankka nisbatan o'sdi;
- b) 33 tsentdan 25 tsentga tushdi, \$ kursi frankka nisbatan pasayib ketdi;
- v) 25 tsentdan 33 tsenga ko'tarilgan, \$ frankka nisbatan devalovatsiya qilingan;
- g) 25 tsentdan 33 tsentga ko'tarilib, \$ frankka nisbatan tushib ketadi;
- d) 33 tsentdan 25 tsentga tushdi, \$ kursi frankka nisbatan ko'tarildi.

**6. Oltin standart tizimi amal qilyapti. A mamlakat B mamlakatga tovar eksportini sezilarli darajada ko'paytirdi. Bunday holatda:**

- a) A mamlakatda narxlar darajasi pasayadi, B mamlakatda o'zgarishi mumkin, balki o'zgarmas;
- b) A mamlakatda narxlar darajasi o'zgarishi mumkin, o'zgarmasligi ham mumkin, B mamlakatda esa pasayadi;

- v) A mamlakatda narxlar darajasi o'sadi, B mamlakatda esa pasayadi;
- g) A mamlakatda narxlar darajasi pasayadi, B mamlakatda o'sadi;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**7. AQSh eksporti va importi hajmiga \$ning xorijiy valyutadagi (masalan, funt sterlingdagi) narxini sezilarli pasayishi qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin.**

- a) eksport va import o'sadi;
- b) eksport o'sadi, import kamayadi;
- v) eksport va import kamayadi;
- g) eksport kamayadi, import o'sadi;
- d) importga ham, eksportga ham sezilarli ta'sir qilmaydi.

**8. Agar AQSh va Kanada o'rtasida erkin suzuvchi valyuta kurslari rejimi o'rnatilgan bo'lsa, Kanada \$iga talab ko'payib borsa, unda bu shundan dalolat beradiki:**

- a) Kanada \$i taklifi pasaygan yoki pasayadi;
- b) AQSh valyutasidagi Kanada \$ining narxi pasaydi;
- v) AQSh \$ining taklifi pasaygan;
- g) Kanada valyutasidagi AQSh \$ining narxi pasaygan;
- d) AQSh \$i devolovatsiya qilingan.

**9. Agar AQShning YalMi pasayib borsa, unda erkin suzuvchi valyuta kurslari tizimida quyidagi hol yuz beradi:**

- a) import pasayib boradi, AQSh \$ining narxi ko'tarilib boradi;
- b) import va AQSh \$ining narxi pasayib boradi;
- v) import va \$ narxi ko'tarilib boradi;
- g) import o'sib boradi, AQSh \$i narxi pasayib boradi;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**10. Agar amerika korporatsiyalari xorijliklarga (\$da) katta miqdorda dividendlar to'layotgan bo'lsa, bu:**

- a) \$ni qadri tushib ketishiga olib keladi;
- b) \$ kursini oshib ketishiga olib keladi;
- v) AQShda mamlakatdan chiqib ketgan \$ga kompensatsiya ko'rinishida oltin harakatda bo'ladi;
- g) AQShdan chiqib ketgan \$ni kompensatsiya qilib import ko'payadi;
- d) hamma javoblar noto'g'ri.

**11. To'lov balansining aktiv saldosi ko'payadi, agar mamlakatda:**

- a) real foiz stavkalar pasaysa;

- b) inflyatsiya sur'ati o'sib borsa;
- v) iqtisodiy o'sishi sur'atlari ko'tarilsa;
- g) yuqorida qayd etilgan barcha jarayonlar yuz bersa;
- d) yuqorida qayd etilganlarining hech qaysisi yuz bermasa.

**12. Ispaniya to'lov balansining defitsitini pasaytirish maqsadida tashqi savdo ustidan nazorat o'rnatishga qaror qiladi. Bu qarorning natijalaridan biri quyidagidir:**

- a) mamlakatda inflyatsiya darajasi pasayadi;
- b) iqtisodiy o'sish sur'atlari pasayadi;
- v) Ispaniya eksporti pasayadi;
- g) Ispaniya importi pasayadi;
- d) savdo balansi saldosi pasayadi.

**13. Agar qayd qilingan valyuta kurslari rejimi sharoitida Yaponiyadagi inflyatsiya darajasi boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan yuqori bo'lsa, unda:**

- a) Yaponiya eksporti va importi pasayadi;
- b) Yaponiya eksporti va importi o'sadi;
- v) Yaponiya eksporti o'sadi, importi kamayadi;
- g) Yaponiya eksporti kamayadi, import o'sadi;
- d) Yaponiyaning to'lov balansining aktiv saldosi ko'payadi yoki defitsit kamayadi.

**Javob:**

1. b; 2. g; 3. v; 4. v; 5. g; 6. v; 7. b; 8. g; 9. v; 10. a; 11. d; 12. g; 13. g.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dornbush R. “Macroeconomics” – Boston. Mcgraw-Hill, 2001. – 574 p.
2. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика. Тесты: Учебное пособие. Киров: Изд. «Аса»., 2003., 96 с.
3. Ishmuhamedov A.E., Djumaev Z.A. Q. X. Jumaev. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma) –T. O'zbekiston Yozuvchilar uyuushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, 2005. 169 bet.
4. Пиндайк Р., Д. Рубинфельд. Микроэкономика. 5-е международное изд.- СПб.: Питер, 2007, – 350 с.
5. Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2009. – 560 с.
6. Бланшар О. Макроэкономика: учебник / О.Бланшар; науч.ред.пер. Л.Л.Любимов; Гос. ун-т – Высшей школы экономики, 2010. -671с
7. Марыганова Е.А., Шапиро С.А. Макроэкономика. Экспресс курс.: учебное пособие- М.: КНОРУС, 2010.-302 с.
8. Абель, Э. Макроэкономика / Э. Абель. - СПб.: Питер, 2012. - 768 с.
9. Тарасевич, Л.С. Макроэкономика: Учебник для бакалавров / Л.С. Тарасевич, П.И. Гребенников, А.И. Леусский. - М.: Юрайт, 2013. - 686 с.
10. Макроэкономика: учебник / Т.А. Агапова, С.Ф.Серегина. – 10-ей изд., перераб. и доп. – М.: Московский финансово-промышленный университет «Синергия», 2013. – 560 с. (Университетская серия).
11. Muminov Nozim Gaffarovich. Makroiqtisodiyot [matn] / N.G. Muminov, F.T.Egamberdiyev, R.K.Azizov – Toshkent “Tsentr innovatsionnix texnologiy” nashriyoti, 2017 yil – 200 bet.
12. Макроэкономика: учебник для вузов. Стандарт третьего поколения / Под. ред. Д.Ю. Миропольского, Т.Г. Бродской. – СПб.: Питер, 2018. – 368 с.: ил. – (Серия Учебник)

13. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma / E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. – 280 b.
14. Вахабов А.В., Бутабоев М.Т. Макроиқтисодиёт: Ўқув қўлланма. – Т.: “Navro‘z”, 2019. – 320 б.
15. Makroiqtisodiy tahlil. Maxmudov N.M., Hakimov H.A. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2019. – 146 bet.
16. Макроэкономика. Сборник задач и упражнений. Учебное пособие для СПО / ред. Серегина С. Ф. — М.: Юрайт. 2019. 184 с.
17. Аносова А. В., Ким И. А., Касаткина А. А. Макроэкономика. Учебник. — М.: Юрайт. 2019. 528 с.
18. Бойцова Е. Ю., Вощикова Н. К. Микроэкономика и макроэкономика. Актуальные проблемы. Учебник и практикум. — М.: Юрайт. 2019. 250 с.
19. Ивасенко А. Г., Никонова Я. И. Макроэкономика. Учебное пособие. — М.: КноРус. 2020. 320 с.
20. Макроэкономика. Деловые игры и кейсы: учебное пособие / О.В.Орусова, М.А. Екатириновская. – Москва: КНОРУС, 2020. – 180 с.- (Бакалавриат).

## MUNDARIJA

KIRISH .....	3
<u>1 BOB.</u> Kursning predmeti, maqsadi va vazifalari .....	4
<u>2 BOB.</u> Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar .....	9
<u>3 BOB.</u> Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari .....	14
<u>4 BOB.</u> Makroiqtisodiy tahlil: jami talab va jami taklif .....	20
<u>5 BOB.</u> Makroiqtisodiy beqarorlik: ishsizlik .....	30
<u>6 BOB.</u> Makroiqtisodiy beqarorlik: inflyatsiya .....	35
<u>7 BOB.</u> Klassik va Keynscha bandlik nazariyasi .....	39
<u>8 BOB.</u> Iqtisodiyot muvozanati va uni barqarorlashtirish .....	50
<u>9 BOB.</u> Iqtisodiy o'sish. Iqtisodiyotning siklik tebranishi .....	63
<u>10 BOB.</u> Iste'mol, jamg'arma va investitsiya vazifalari .....	68
<u>11 BOB.</u> Tovar va xizmatlar bozoridagi muvozanat .....	75
<u>12 BOB.</u> Makroko'lamda pul bozori. IS va LM modeli .....	80
<u>13 BOB.</u> Davlat budjeti va soliq siyosati .....	91
<u>14 BOB.</u> Xalqaro savdo nazariyasi .....	97
<u>15 BOB.</u> To'lov balansi va valyuta kursi .....	111
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....	120

**Muminov N.G., Rayxanov U.A., Kadirov A.A.**

# **MIKROIQTISODIYOT VA MAKROIQTISODIYOT**

**Uslubiy qo‘llanma**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 10.10.2022.

“Arial” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>

Nashriyot bosma tabog‘i 4,5. Shartli bosma taboq 4,9.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.